



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA
VAZIRLIGI

BUDJETNOMA

2026-2028

Mundarija

Qisqartmalar	2
Jadvallar	3
Diagrammalar	5
Kirish	7
Qisqacha sharh	8
I. Makroiqtisodiy va fiskal siyosatning 2030-yilga qadar mo'ljallangan asosiy maqsadlari	12
1.1. Iqtisodiy o'sish uchun zamin yaratishga qaratiladigan asosiy yo'nalishlar	14
1.2. Soliq siyosati	20
1.3. Budjet siyosati	26
II. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar sharhi	40
2.1. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning 2025-yil oxirigacha kutilmalari	40
2.2. Jahon iqtisodiyotidagi makroiqtisodiy rivojlanish tendensiyalari	43
2.3. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari	46
III. Konsolidatsiyalashgan budjet prognozlari	47
3.1. Davlat budjeti daromadlari prognozlari va tahlillari	52
3.1.1. Davlat budjeti daromadlarining 2025-yil kutilayotgan ijrosi	52
3.1.2. Davlat budjeti daromadlarining 2026-2028-yillar uchun prognozlari	59
3.2. Davlat budjeti xarajatlarning prognozlari va tahlili	63
3.2.1. Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnif bo'yicha prognozlari	64
3.2.2. Xarajatlarning iqtisodiy tasnif bo'yicha prognozlari	88
3.2.3. Davlat dasturlari uchun ajratiladigan mablag'lar prognozlari	90
3.2.4. Xarajatlarning BRMM bo'yicha tahlili	91
3.2.5. Xarajatlarning atrof-muhitga ta'siri bo'yicha tahlili	93
3.3. Mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarning prognozlari	97
3.4. Davlat maqsadli jamg'armalari va Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi daromadlari va xarajatlarning prognozlari	99
3.5. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari daromadlari va xarajatlarning tahlili	104
IV. Davlat qarzi prognozlari va maqsadli ko'rsatkichlari	106
4.1. Davlat qarzining joriy holati	106
4.2. Davlat qarzining prognoz ko'rsatkichlari	108
V. Fiskal tavakkalchiliklar bahosi	109
5.1. Makroiqtisodiy va fiskal xatarlar	109
5.2. Davlat ishtirokidagi korxonalarining moliyaviy holati	113
5.3. DXSH loyihalarining tahlili	119
VI. Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish	125
Asosiy tushunchalar	142
Ilovalar	

Qisqartmalar

BMTTD	Birlashgan Millatlar Tashkilotining taraqqiyot dasturi
BRM	Barqaror rivojlanish maqsadlari
DMJ	Davlat maqsadli jamg'armalari
DMBAT	Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi
DXSH	Davlat-xususiy sheriklik
FTA	Fransiya taraqqiyot agentligi
GFS	Government Finance Statistics (Davlat moliyasi statistikasi)
JST	Jahon savdo tashkiloti
JB	Jahon banki
KMK	Kon metallurgiya kombinati
MTT	Maktabgacha ta'lim tashkiloti
NNT	Nodavlat notijorat tashkilotlari
OTB	Osiyo taraqqiyot banki
YTB	Yevropa taraqqiyot banki
PEFA	Public Expenditure and Financial Accountability (Davlat moliyasini boshqarishni Davlat xarajatlari va moliyaviy hisobdorlik mezonlari asosida baholash)
QQS	Qo'shilgan qiymat solig'i
TTJ	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
XVJ	Xalqaro valyuta jamg'armasi
XMI	Xalqaro moliya instituti
YTB	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki
YIM	Yalpi ichki mahsulot

Jadvallar

1-jadval. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar	40
2-jadval. XMIlarning 2025-2026-yillarda jahondagi iqtisodiy o'sish yuzasidan prognozlari	43
3-jadval. O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlarida iqtisodiy o'sish sur'ati va inflyatsiya darajasi	45
4-jadval. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha xalqaro tashkilotlar prognozi va milliy prognozlari	45
5-jadval. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari	46
6-jadval. Konsolidatsiyalashgan budjet parametrlari.....	48
7-jadval. Budjet majburiyatlarini moliyalashtirish manbalari	51
8-jadval. Konsolidatsiyalashgan budjet ko'rsatkichlari milliy prognozining xalqaro tashkilotlar prognozlari bilan taqqoslama jadvali.....	51
9-jadval. Respublika bo'yicha soliq to'lovchilar soni	52
10-jadval. Davlat budjeti daromadlari prognozi va mo'ljallari.....	62
11-jadval. Davlat budjeti xarajatlarining budjet darajalari bo'yicha tahlili	63
12-jadval. Davlat budjeti xarajatlarining vazifa tasnifi bo'yicha tahlili	65
13-jadval. Maktabgacha va maktab ta'limi sohasi davlat dasturlari va tadbirlar.....	68
14-jadval. MTTlarning asosiy ko'rsatkichlari.....	69
15-jadval. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining asosiy ko'rsatkichlari.....	70
16-jadval. Oliy va o'rta-maxsus ta'lim sohasidagi asosiy davlat dasturlari va tadbirlar	72
17-jadval. O'rta-maxsus va professional ta'lim muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari	72
18-jadval. Davlat oliy ta'lim muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari	72
19-jadval. Fan sohasidagi asosiy davlat dasturlari va tadbirlar	73
20-jadval. 2026-yilda doktorantura kvotalari soni	74
21-jadval. Sog'liqni saqlash sohasidagi asosiy davlat dasturlari va tadbirlar	74
22-jadval. Tibbiyot muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari.....	75
23-jadval. Madaniyat sohasidagi asosiy davlat dasturlari va tadbirlar	76
24-jadval. Madaniyat sohasi tashkilotlarining asosiy ko'rsatkichlari	76
25-jadval. Sport sohasidagi asosiy davlat dasturlari va tadbirlar	77
26-jadval. Sport sohasi tashkilotlarining asosiy ko'rsatkichlari.....	77
27-jadval. Suv xo'jaligi sohasidagi asosiy davlat dasturlari va tadbirlar	80
28-jadval. Suv xo'jaligi sohasi tashkilotlarining asosiy ko'rsatkichlari.....	81
29-jadval. Yirik elektr energiya iste'mol qiluvchi tashkilotlarning asosiy ko'rsatkichlari	81
30-jadval. Qishloq xo'jaligi sohasi tashkilotlari asosiy ko'rsatkichlari	82
31-jadval. Qishloq xo'jaligi sohasidagi asosiy davlat dasturlari va tadbirlar	82
32-jadval. Obodonlashtirish tashkilotlarining asosiy ko'rsatkichlari	83
33-jadval. Jami ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasiga davlat investitsiyalari	86
34-jadval. Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi.....	87
35-jadval. Xarajatlarning iqtisodiy tasnif bo'yicha yoyilmasi	88
36-jadval. Ish haqi, pensiya va nafaqalar miqdori qo'shimcha oshirilishining budjetga ta'siri	89
37-jadval. Davlat budjeti xarajatlarining "yashil" budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash natijalari	94
38-jadval. Atrof-muhitga ijobiy ta'sirga ega xarajatlar	95
39-jadval. Mahalliy budjet parametrlarining 2026-yil uchun prognozlari.....	97
40-jadval. Pensiya jamg'armasining asosiy ko'rsatkichlari	101
41-jadval. Davlat qarzi bo'yicha ma'lumotlar	106
42-jadval. Moliyaviy ko'rsatkichlari tahlil qilingan 26 ta yirik davlat korxonalari ro'yxati	113
43-jadval. Korxonalarining moliyaviy ko'rsatkichlari	113
44-jadval. Davlat ishtirokidagi korxonalarining fiskal xatar ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot	115

45-jadval. Xalqaro kredit reytingiga ega davlat ishtirokidagi korxonalar, 2025-yil 1-aprel holatiga	118
46-jadval. DXSH loyihalarining sohalar kesimidagi tahlili	119
47-jadval. 2026-2028-yillarda DXSH loyihalari doirasida davlat budjetidan amalga oshiriladigan to'lovlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari	120
48-jadval. DXSH loyihalari doirasida davlat ishtirokidagi korxonalarning to'lovlari bo'yicha ma'lumot.	121
49-jadval. Xotin-qizlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun ajratilgan mablag'lar	135

Diagrammalar

1-diagramma. Asosiy makroiqtisodiy va budget ko'rsatkichlarining milliy prognozlari	11
2-diagramma. XVJning global iqtisodiy kutilmalari	44
3-diagramma. Konsolidatsiyalashgan budget tarkibi	48
4-diagramma. O'zbekiston Respublikasi va ayrim xorijiy davlatlar budget xarajatlari tarkibi	51
5-diagramma. 2024-2025-yillarda Davlat budjeti daromadlari tuzilmasi.....	53
6-diagramma. Bevosita soliqlar tuzilmasi.....	54
7-diagramma. QQS tushumlari.....	55
8-diagramma. Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i	57
9-diagramma. 2026-yil Davlat budjeti daromadlari.....	59
10-diagramma. Davlat budjeti xarajatlari tarkibi	64
11-diagramma. Yirik budget xarajatlari ulushi	66
12-diagramma. Ta'lim va fan xarajatlari.....	67
13-diagramma. Maktabgacha va maktab ta'limi sohasining 2026-yilgi xarajatlari tarkibi	67
14-diagramma. Nodavlat MTTlarga budgetdan ajratiladigan subsidiyalar <i>so'm</i>	68
15-diagramma. Davlat MTTlar uchun oziq-ovqat xarajatlariga ajratilayotgan mablag'lar	69
16-diagramma. Umumta'lim maktablarini zamonaviy kompyuter sinflari bilan ta'minlash	70
17-diagramma. Umumta'lim maktablarini darslik, mashq daftari va o'quv metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash xarajatlari	71
18-diagramma. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari xarajatlari tarkibi.....	71
19-diagramma. 2026-yilda fan sohasiga ajratilgan xarajatlar tarkibi.....	73
20-diagramma. Sog'liqni saqlash sohasi xarajatlari tarkibi	74
21-diagramma. Madaniyat sohasi xarajatlari tarkibi.....	75
22-diagramma. Sport sohasi xarajatlari tarkibi	77
23-diagramma. Kambag'allik darajasi	78
24-diagramma. Ipoteka dasturi doirasida jismoniy shaxslarga ajratiladigan mablag'lar	79
25-diagramma. Energo resurslar va jamoat transportida aholini tashish xarajatlarining bir qismini qoplash xarajatlari.....	79
26-diagramma. Iqtisodiyot sohasi yirik xarajatlari	80
27-diagramma. Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi xarajatlarining Davlat budjeti xarajatlaridagi va YIMdagi ulushi	87
28-diagramma. Iqtisodiy tasnif bo'yicha 2026-yilgi xarajatlar ulushi	89
29-diagramma. Ish haqi xarajatlarining YIMdagi va jami xarajatlardagi ulushi	89
30-diagramma. Budget subsidiyalari	90
31-diagramma. Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlarni amalga oshirish uchun davlat budjeti xarajatlari.....	91
32-diagramma. Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlarni amalga oshirish xarajatlarining YIMga va Davlat budjeti xarajatlariga nisbatan ulushi	93
33-diagramma. DMJ va TTJ budgetlarining prognozlari	100
34-diagramma. Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari.....	101
35-diagramma. Jami budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari.....	104
36-diagramma. 2026-yilda budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari manbalari.....	104
37-diagramma. Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari mablag'larining konsolidatsiyalashgan budget va YIMdagi ulushi	105
38-diagramma. Davlat qarzi portfeli valyuta tarkibi	107
39-diagramma. Davlat tashqi qarzi iqtisodiyot tarmoqlari kesimida	107
40-diagramma. Davlat tashqi qarzining kreditorlar kesimida taqsimlanishi.....	107
41-diagramma. O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi dinamikasi.....	108

42-diagramma. Global noaniqlik indeksi	110
43-diagramma. Asosiy savdo hamkor mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi va o'rtacha o'sish sur'ati	110
44-diagramma. AQSH dollari indeksi (DXY)	111
45-diagramma. Xalqaro moliyaviy bozor indekslar	111
46-diagramma. Asosiy savdo hamkor mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sekinlashishining ta'siri.....	112
47-diagramma. Asosiy savdo hamkor mamlakatlari milliy valyutalari qadrsizlanishining ta'siri ...	112
48-diagramma. Korxonalarning moliyaviy holati	114
49-diagramma. Davlat korxonalarining tashqi qarzi va ularga taqdim etilgan davlat kafolati	114
50-diagramma. Likvidlilik ko'rsatkichlari	115
51-diagramma. To'lov qobiliyati ko'rsatkichlari	116
52-diagramma. Daromadlik ko'rsatkichlari	117
53-diagramma. DXSH loyihalari bo'yicha to'lovlarning YIMga nisbati.....	120
54-diagramma. Inflyatsiya darajasidagi o'zgarishlarning DXSH loyihalari bo'yicha davlat budjetidan ajratiladigan to'lovlar hajmiga ta'siri	121
55-diagramma. DXSH loyihalari bo'yicha Davlat budjetidan ajratiladigan to'lovlarning Davlat budjeti daromadlariga nisbati	122
56-diagramma. DXSH loyihalari bo'yicha Davlat budjetidan ajratiladigan to'lovlarning YIMga nisbati .	123
57-diagramma. Milliy valyuta kursining AQSH dollariga nisbatan qadrsizlanishining davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan DXSH loyihalari bo'yicha amalga oshiriladigan to'lovlar hajmiga ta'siri	123
58-diagramma. Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan DXSH loyihalari bo'yicha amalga oshiriladigan to'lovlar YIMga nisbati	124

Kirish

Budjetnoma Budjet kodeksining 96-moddasi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, erishilgan natijalar hisobga olingan holda mamlakatni kelgusi davrda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini nazarda tutadi.

Budjet kodeksiga muvofiq ushbu hujjat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning o'rta muddatli davr uchun prognozini;

konsolidatsiyalashgan budjetning joriy yildagi ijrosining prognoz bahosini, prognoz yil uchun Davlat budjetining va DMJ budjetlarining, TTJ daromadlari hamda xarajatlarining loyihasini va kelgusi ikki yil uchun budjet mo'ljallarini;

sohalar bo'yicha rivojlanishning asosiy yo'nalishlari, maqsadlari, vazifalari, sifat va miqdor ko'rsatkichlarini;

davlat qarzining holati to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, jalb qilinadigan qarz mablag'larining yillik cheklangan miqdorini.

Mazkur Budjetnomada 2026–2028-yillarga mo'ljallangan Fiskal strategiyada¹ (keyingi o'rinlarda – Fiskal strategiya) belgilangan o'rta muddatli davr uchun makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari **aniqlashtirildi** hamda soliq va budjet siyosati yo'nalishlari yanada takomillashtirilib, ushbu prognozlar va yo'nalishlar, shuningdek, budjet taqchilligining cheklangan miqdori doirasida Davlat budjetining 2026-yilgi loyihasi shakllantirildi.

*Fiskal strategiyada asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari va xarajatlarining, budjet taqchilligi va uni moliyalashtirish manbalarining, shuningdek, davlat qarzining **dastlabki prognozlari** hamda soliq va budjet siyosatining o'rta muddatdagi yo'nalishlari, fiskal tavakkalchiliklar bahosi va boshqalar e'lon qilindi.*

Dastlabki prognozlardan kelib chiqib, birinchi darajali budjet mablag'larini taqsimlovchilarga respublika budjetidan ajratiladigan budjet mablag'larining, jumladan, kapital xarajatlarning hamda mahalliy budjetlarga va DMJlarga ajratiladigan transfertlarning cheklangan miqdorlari yetkazildi.

Respublika budjetidan yetkazilgan mablag'lar va transfertlarning cheklangan miqdorlaridan kelib chiqib, respublika budjetidan moliyalashtiriladigan budjet tashkilotlaridan va mahalliy budjetlardan budjet so'rovlari qabul qilib olindi.

Budjetnoma asosida 2026-yil uchun Davlat budjeti to'g'risidagi Qonun loyihasi ishlab chiqildi.

¹ <https://gov.uz/uz/imv/news/view/73599>

Qisqacha sharh

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni izchil davom ettirish, iqtisodiy salohiyatdan to'liq foydalanish va milliy strategiyada belgilangan ustuvor yo'nalishlarni hayotga tatbiq etish orqali 2030-yilga qadar YIM hajmini 200 milliard AQSH dollaridan oshirish maqsad qilib qo'yilgan.

Bunday natijaga erishish, o'z navbatida, mamlakatimizning "o'rtachadan yuqori daromadli davlatlar" qatoriga kirishiga, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlarni 5 ming AQSH dollaridan yuqori darajaga yetkazishga, kambag'allikni sezilarli qisqartirishga va aholi turmush darajasini oshirishga zamin yaratadi.

Shu bilan birga, mamlakatning xalqaro suveren reytingi investitsion darajaga chiqishiga va shu orqali xorijiy investitsiyalar hajmini sezilarli oshirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Belgilangan maqsadlarga erishish uchun 2030-yilga qadar YIMning yillik o'rtacha o'sish sur'atini kamida 6,5–7 foiz atrofida ta'minlash, inflyatsiya darajasini 5 foizgacha tushirish, budjet taqchilligini YIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik va davlat qarzini mo'tadil darajada saqlash vazifasi qo'yilgan.

Jahon iqtisodiyotidagi keskin o'zgarishlar va noaniqliklar sharoitida ushbu maqsadlarga erishish, uzoq muddatli istiqbolda makroiqtisodiy hamda fiskal barqarorlikni ta'minlash uchun qat'iy intizomga asoslangan soliq-budjet siyosatini yuritishni talab etiladi.

XVJning joriy yil oktabr oyidagi hisobotiga² ko'ra, iqtisodiy faollikning oshishi va yirik iqtisodiyotlarning o'sish tendensiyasiga qaytishi natijasida jahon iqtisodiyoti o'sishi 2025-yilda 3,2 foizni va 2026-yilda 3,1 foizni tashkil etishi (XVJning 2025-yil iyuldagi hisobotida³ 2025-2026-yillarda o'sish prognozi tegishincha 3 foiz va 3,1 foiz) prognoz qilingan.

Prognozning yaxshilanishi xalqaro savdo faolligining jadallashishi, AQSH tariflarining kutilganidan past darajada qo'llanishi va moliyaviy shart-sharoitlarning yaxshilanishi bilan izohlanmoqda. Shu bilan birga, umumiy global o'sish ko'rsatkichi yuqori prognoz qilinganiga qaramasdan, uning tarkibiy qismi zaifligicha qolmoqda. Rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'ati 2024-yildagi 1,8 foizdan 2025-2026-yillarda 1,6 foizgacha pasayishi kutilmoqda.

Xususan, Yevropa iqtisodiyoti o'sishi 2025-yil 1,2 foiz va 2026-yilda 1,1 foizni tashkil qilishi kutilmoqda.

² <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2025/10/14/world-economic-outlook-october-2025>

³ <https://www.imf.org/en/Publications/WEO/Issues/2025/07/29/world-economic-outlook-update-july-2025>

Rivojlanayotgan mamlakatlarda ham o'sish sur'atlari 2024-yildagi 4,3 foizdan 2025-yilda 4,2 foizgacha va 2026-yilda 4 foizgacha sekinlashishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, ayrim yirik davlatlarda iqtisodiy o'sish prognozlari aprel oyiga nisbatan yaxshilangan bo'lib, bunda Xitoyda 2025-yil uchun o'sish 4 foizdan 4,8 foizga oshirilgan.

Bundan tashqari, talabning ortishi natijasida (frontloading) iqtisodiy o'sishni qisqa muddatli rag'batlantirish omili ta'siri bosqichma-bosqich sekinlashishi, 2026-yildan boshlab global o'sish cheklanishi kutilmoqda. Shu bois, kutilmalarning yaxshilanishi asosan vaqtinchalik omillar bilan izohlanib, uzoq muddatli barqaror o'sish esa hanuz cheklanib qolmoqda.

Global inflyatsiya 2024-yildagi 5,7 foizdan 2025-yilda 4,2 foizga, 2026-yilda 3,7 foizgacha pasayishi prognoz qilinmoqda.

Xalqaro tashkilotlarning jahon iqtisodiyotidagi o'zgarishlar to'g'risidagi batafsil ma'lumotlari bilan mazkur hujjatning 2.2-kichik bo'limida tanishish mumkin.

Milliy prognozlarga ko'ra, davom etayotgan murakkab geosiyosiy va tashqi iqtisodiy vaziyatlarga, shuningdek, dunyoning rivojlangan davlatlari savdo siyosatidagi tebranishlarga qaramasdan O'zbekistonning iqtisodiy o'sish prognozlari qayta ko'rib chiqilganda, 2025-yilda 7 foiz, 2026-yilda 6,6 foiz, 2027-yilda 6,8 foizni va 2028-yilda 6,9 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Bunda, **sanoat** mahsulotlarining o'sish sur'ati 2026-yilda 6,4 foizni, 2027-yilda 6,7 foizni, 2028-yilda 6,9 foizni, **qishloq xo'jaligida** ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 2026-yilda 4,2 foizni, 2027-2028-yillarda 4,3 foizni, **bozor xizmatlarining** o'sish sur'ati 2026-yilda 14,5 foizni, 2027-yilda 14,3 foizni, 2028-yilda 14,4 foizni hamda **qurilishda** o'sish sur'ati 2026-yilda 10,2 foizni, 2027-yilda 8,3 foizni, 2028-yilda 8 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Mazkur Budjetnomada avvalgi yillardan farqli ravishda Davlat budjeti xarajatlarining vazifa jihatdan tasnifi XVJning GFS-2014 standartiga muvofiq Davlat funksiyalarini tasniflash mezonini asosida ishlab chiqildi.

Shuningdek, 2026-yildan boshlab budjet taqchilligi konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari va xarajatlari hamda uning tarkibiga kirmaydigan **davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun budjetdan ajratiladigan depozit va ssudalarni** inobatga olgan holda hisoblanib, **umumiy fiskal balansda** aks ettirilmoqda.

Bunda makroiqtisodiy va budjet barqarorligini ta'minlash uchun umumiy fiskal balansda budjet taqchilligini YIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik maqsad qilingan.

Shundan kelib chiqib, 2026-yilda konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari 515,4 trln so'm yoki YIMga nisbatan 26,1 foiz, xarajatlari 567 trln so'm yoki YIMga nisbatan 28,7 foiz, shuningdek davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun depozitlar va ssudalar 8,2 trln so'm yoki YIMga nisbatan 0,4 foiz miqdorida prognoz qilinmoqda.

*Fiskal strategiyada belgilangan **dastlabki prognozlar: konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari** 2026-yilda 509,8 trln so'm, 2027-yilda 578,4 trln so'm, 2028-yilda 648,8 trln so'm; **xarajatlari** 2026-yilda 568,6 trln so'm, 2027-yilda 645,4 trln so'm, 2028-yilda 724,7 trln so'm.*

Davlat qarzini xavfsiz darajada saqlash va samarali boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish natijasida o'rta muddatda davlat qarzi YIMga nisbatan 35 foiz atrofida shakllanishi prognoz qilinmoqda.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hamda budjet parametrlarining prognozlari global iqtisodiy noaniqliklar va geosiyosiy ziddiyatlar saqlanib qolinishi sharoitida tashqi va ichki xatarlar kelib chiqishi mumkinligini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

Jumladan, joriy yilgi Fiskal strategiyada e'lon qilingan makroiqtisodiy va Davlat budjeti maqsadli ko'rsatkichlariga erishishda xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan xatarlar ta'sirining hamda DXSH loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davlatning fiskal majburiyatlari va davlat korxonalarining moliyaviy holatining yangilangan sharhi mazkur hujjatning V bo'limida keltirilgan.

Uzoq muddatli maqsadlarga erishishda davlat moliyasi tizimini yanada takomillashtirish hamda natijadorlikka asoslangan budjet tizimini joriy etish ishlarini jadallashtirish uchun amalga oshiriladigan islohotlarni tizimlashtirish maqsadida 2025–2030-yillarga mo'ljallangan Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish Strategiyasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son qarori bilan tasdiqlandi.

1-diagramma. Asosiy makroiqtisodiy va budget ko'rsatkichlarining milliy prognozlari

Davlat moliyasini yanada takomillashtirish bo'yicha islohotlar, shu jumladan, "natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish" tizimini joriy etish, "Davlat moliyasi statistikasi-2014" xalqaro standartiga o'tish, xarajatlarni BRMM va "yashil budjet" tamoyillari asosida shakllantirish hamda davlat sektorida ichki nazorat va ichki auditni takomillashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar mazkur hujjatning VI bo'limida keltirilgan.

I. Makroiqtisodiy va fiskal siyosatning 2030-yilga qadar mo'ljallangan asosiy maqsadlari

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan vazifalardan kelib chiqib, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan 2026–2028-yillarga mo'ljallangan Fiskal strategiyaga muvofiq, makroiqtisodiy va budjet barqarorligini ta'minlashda quyidagi maqsadlar belgilangan:

1. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash:

- YIMning yillik o'sishini kamida 6,5–7 foiz miqdorida ta'minlash;
- mamlakatning suveren kredit reytingini oshirish;
- YIM hajmini 200 mlrd AQSH dollar va aholi jon boshiga daromadlarni 5 ming AQSH dollaridan oshirish orqali “daromadi o'rtachadan yuqori” bo'lgan davlatlar qatoriga kirish;
- umumiy fiskal balansni YIMga nisbatan 3 foizlik taqchillikdan oshirmaslik.

2. Daromadlar bazasini kengaytirish va soliq siyosatini takomillashtirish:

- to'lovlarda naqd pulsiz hisob-kitoblar ulushini oshirish va iqtisodiyotda tovarlar oqimining shaffofligini ta'minlash;
- barcha tadbirkorlar uchun teng imkoniyatlar yaratish maqsadida samarasiz soliq va bojxona imtiyozlarini bekor qilish;
- atrof-muhit va aholi salomatligini asrash maqsadida yashil soliqqa tortish va uni amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish;
- soliq siyosatining inklyuzivligini oshirish;
- islom moliyasi doirasida soliqqa tortish mexanizmini bosqichma-bosqich joriy etish;
- soliq to'lovchilar bilan hamkorlikni, shaffoflik va hisobdorlikni ta'minlashga qaratilgan soliq ma'murchiligining strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- aholi va tadbirkorlar o'rtasida soliq to'lash madaniyatini rivojlantirish;
- soliq va bojxona siyosatini JST talablariga uyg'unlashtirish.

3. Budjet xarajatlarining samaradorligini oshirish va budjet intizomini kuchaytirish:

– “Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish” amaliyotiga bosqichma-bosqich o'tishni davom ettirish;

– budjet ochiqqligi darajasini yanada kuchaytirish;

– budjet xarajatlarining inklyuzivligini oshirish;

– “gender” va “yashil” budjetlashtirish tamoyillarini budjet jarayoni bilan uyg'unlashtirish;

– XMllar bilan birgalikda natijaga asoslangan moliyalashtirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish.

4. Aholi farovonligini ta'minlash:

– aholining real daromadlarini oshirish maqsadida budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiya va nafaqalarni har yilgi inflyatsiya darajasidan yuqori miqdorlarda oshirib borish;

– kambag'allikni qisqartirish borasidagi islohotlarni jadallashtirish;

5. Fiskal siyosatning ijtimoiy yo'naltirilganligini ta'minlash:

– inson kapitaliga budjet xarajatlarining ustuvorligini oshirish, jumladan ta'lim, tibbiyot va boshqa ijtimoiy sohalarni aholi talablariga va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish;

– ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish;

– Davlat pensiya tizimini isloh qilish.

6. Davlat qarzini samarali boshqarish:

– Davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish va valyuta xatarlarini boshqarish;

– 2026-2028-yillarga mo'ljallangan davlat qarzini boshqarish strategiyasini amalga oshirish orqali davlat qarzining YIMga nisbati 50 foizdan oshmasligini ta'minlash.

Mazkur maqsadlarga erishish uchun Hukumat tomonidan o'rta muddatda amalga oshirilishi rejalashtirilgan makroiqtisodiy, soliq va budjet siyosati yo'nalishlari hamda chora-tadbirlari belgilab olindi.

1.1. Iqtisodiy o'sish uchun zamin yaratishga qaratiladigan asosiy yo'nalishlar

Makroiqtisodiy va fiskal siyosatning 2030-yilga qadar mo'ljallangan asosiy maqsadlariga erishishda, **2026-2028-yillar uchun** quyidagi **asosiy yo'nalishlarda islohotlar va tarkibiy o'zgarishlar** amalga oshirilishi inobatga olingan:

Birinchi, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan asosiy tadbirlar amalga oshiriladi. Bunda:

(a) **inflyatsiyani maqsadli boshqarish mexanizmlarini** keng joriy etish asosida, 2026-yilda umumiy inflyatsiya darajasini **7 foiz** va 2027-yildan esa umumiy inflyatsiyaning **5-6 foiz** atrofida shakllanishiga sharoit yaratish choralari ko'riladi;

(b) **fiskal barqarorlikni** ta'minlashda **fiskal qoidalarga qat'iy** amal qilinadi. Bunda, (i) **umumiy fiskal balansda budjet taqchilligini** YIMga nisbatan **3 foizdan** oshirmaslik, (ii) soliq ma'murchiligini yaxshilash, yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish va samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilish orqali **daromadlar bazasini oshirish**, (iii) davlat xarajatlarining maqsadli va oqilona yo'naltirilishini ta'minlash, samarasiz budjet ssuda va subsidiyalarini kamaytirish hamda **xarajatlar natijadorligini oshirish** choralari ko'riladi;

(d) **davlat qarzi** va **shartli majburiyatlarni** samarali boshqarish **maqsadli limit** qoidalari asosida **qat'iy amalga** oshiriladi, bunda (i) davlat qarzining xavfsiz darajada (YIMga nisbatan **50 foiz**) bo'lishini ta'minlash maqsadida yangi imzolanadigan qarz bitimlarini 2026-yil uchun belgilangan limitdan **oshirmaslik**; (ii) o'rta muddatli davrda davlatning shartli majburiyatlari bo'yicha fiskal xatarlar kuchayishining oldini olish maqsadida 2026-yilda **yangi imzolanadigan DXSH** loyihalarini **chegaraviy miqdorlardan oshirmaslik** choralari ko'riladi.

Ikkinchi, **2026-2028-yillarda sanoat mahsulotlarini** ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari **o'rtacha yillik 6,5 foizdan** kam bo'lmagan darajada ta'minlanadi. Bunda, quyidagi tarmoqlardagi tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish sanoat mahsulotlarining o'sishi uchun zamin yaratadi.

(a) **metallurgiya sanoatida:**

– Navoiy KMKda keyingi 3 yilda jami qiymati 1,2 mlrd AQSH dollarlik 5 ta yirik loyihalar amalga oshiriladi;

– Olmaliq KMKda 2,5 mlrd AQSH dollarlik 4 ta yirik loyiha foydalanishga topshirilib, mis katodi hamda oltin ishlab chiqarish quvvatlari oshiriladi.

(b) **Avtomobilsozlik** sanoatida yengil avtomobillar ishlab chiqarish hajmlari 1,5 barobargacha oshirilib, 700 ming donaga yetadi.

(d) **Elektr energetikasi tarmog'ida** yangi 11,7 GVt qo'shimcha quvvatlar yaratiladi. Bunda, 2 GVt fotoelektr stansiyalari, 5,4 GVt shamol elektr stansiyalari, 3,7 GVt DXSH asosidagi zamonaviy issiqlik elektr stansiyalar, 560 MVt elektr energiyasi saqlash tizimi quvvatlari ishga tushirilishi hisobiga 2028-yilga borib jami elektr energiya ishlab chiqarish hajmi 108,5 mlrd KVt soatga yetkaziladi.

Bundan tashqari, energiya sarfi yuqori bo'lgan issiqlik elektr stansiyalarida 3,2 GVt quvvatdagi eski energiya bloklari bosqichma-bosqich konservatsiya qilinadi, shundan, joriy yilda 1 GVt, 2026-yilda 160 MVt quvvat foydalanishdan chiqariladi.

(e) **Elektrotexnika sanoatida** yuqori texnologiyalarga asoslangan elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha jami qiymati 3,3 mlrd AQSH dollarlik 121 ta yangi ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etilib, misni qayta ishlash hajmi 145 ming tonnadan oshadi (*1,3 barobar*).

Natijada elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1,4 barobarga ortib, sohada qo'shilgan qiymat ulushi o'rtacha 21 foizdan 30 foizga yetkaziladi.

Shuningdek, hududlar "**solishtirma ustunligi**"dan kelib chiqib, sanoat zonalarida va yuqori texnologik parklarda yangi turdagi yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarish, mavjud quvvatlarni kengaytirish va chuqur qayta ishlashga qaratilgan sanoat loyihalari, shuningdek, talab yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni o'zlashtirishga qaratilgan loyihalar amalga oshiriladi.

Uchinchi, xizmatlar sohasini rivojlantirishda yuqori bilim va texnologiyaga asoslangan va hayot farovonligini oshirishga qaratilgan xizmatlar kengaytiriladi. Bunda:

– **axborot-kommunikatsiya texnologiyalari** va raqamli xizmatlarni kengaytirish, xususan, (i) raqamli iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirish, (ii) IT-outsourcing va fintex xizmatlarini eksportga yo'naltirishni kengaytirish, (iii) elektron savdo va elektron hukumat xizmatlarini, shuningdek, (iv) kiberxavfsizlik, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish sohasidagi xizmatlar rivojlantiriladi;

- ta'lim xizmatlarini rivojlantirishda, (i) uning turlarini diversifikatsiya qilish, ya'ni gibridd ta'lim modellarini kengaytirish, (ii) til o'rgatish, tadbirkorlik, texnologiyalar va kasb-hunarga yo'naltirilgan qisqa muddatli kurslar, oromgohlarni (bootcamp) rivojlantirish, (iii) xususiy ta'limda STEM ta'lim dasturlarini keng joriy qilish, (iv) xorijiy universitetlar bilan qo'shma dasturlar va innovatsion o'quv markazlari tashkil etish ishlari amalga oshiriladi;

- turizm va madaniy xizmatlarni kengaytirishda, xususan, (i) tibbiyot, ta'lim turizmi va ekoturizm yo'nalishlarini rivojlantirish, (ii) turistlar uchun raqamli xizmatlar, AR/VR ("to'ldiriladigan reallik" va "virtual reallik") texnologiyalari asosidagi madaniy loyihalarni yaratish, (iii) milliy hunarmandchilik va servis sohalarini integratsiyalash tadbirlari amalga oshiriladi;

- moliyaviy xizmatlarni inklyuziv va raqamli asosda rivojlantirishda (i) fintex loyihalarini qo'llab-quvvatlash va raqamli to'lov tizimlarini rivojlantirish, (ii) mikromoliyalash va kichik biznesga kredit xizmatlarini ommalashtirish, (iii) moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan axborot xizmatlari kengaytiriladi;

- hududiy xizmatlarni diversifikatsiya qilish, jumladan, har bir hududda mutaxassislashtirilgan xizmat turlarini aniqlash va qo'llab-quvvatlash, qishloq joylarda ijtimoiy va axborot xizmatlarini kengaytirish, hududlarda biznes uchun servis xablari va texnologik parklarni tashkil etish tadbirlari amalga oshiriladi.

To'rtinchi, atrof-muhit muhofazasini ta'minlash, iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish, suv resurslari tanqisligi sharoitida **qishloq va suv xo'jaligida samaradorlikni** oshirishga va aholining **oziq-ovqat xavfsizligini** ta'minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish davom ettiriladi. Bunda:

(a) iqlim o'zgarishiga mos dehqonchilik va chorvachilik yo'nalishlarini rivojlantirishni keng joriy etishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

(b) yer va suv resurslaridan samarali va barqaror foydalanish tizimlarini joriy qilish, xususan, agroekologik monitoring va raqamli suv nazorati platformalarini joriy qilish, suv tejovchi texnologiyalardan ommaviy foydalanish kabi suv sarfini qisqartirishga doir izchil chora-tadbirlarni davom ettirish;

(d) degradatsiyaga uchragan (*masalan, sho'rlangan va qumli*) yerlarni tiklash, shuningdek, tomorqa yerlari va dehqon xo'jaliklari yer maydonlaridan samarali foydalanish, mahallalarning ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda yuqori daromadli va eksportbop mahsulotlar yetishtirishni moliyaviy qo'llab-quvvatlash;

(e) oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega mahsulotlar (go'sht, guruch, kartoshka, sabzavot va meva) yetishtirish hajmini oshirish va uning uchun zaruriy moliyaviy va texnologik resurslarni yo'naltirish;

(f) sohada agrosanoat klasterlari va kooperatsiya tizimini keng joriy qilish va texnologik o'zgarishlarni o'zlashtirish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash salohiyatini oshirish va zanjirni mustahkamlash tadbirlarini amalga oshirish choralari ko'riladi.

Beshinchi, urbanizatsiya jarayonlari asosida hududlarni kompleks rivojlantirishning hamda unda zarur ishlab chiqarish va infratuzilmani yaxshilashning 2026-yilda yaxlit dasturi amalga oshiriladi. Bunda:

(a) hududlarda yalpi hududiy mahsulot hajmi 6 foizdan kam bo'lmagan darajada o'sishini ta'minlash choralari ko'riladi;

(b) zarur ishlab chiqarish va infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda XMilar qarz mablag'lari hisobidan natijaga asoslangan moliyalashtirish dasturi (PforR) asosida infratuzilma loyihalarini amalga oshirish boshlanadi;

(d) tasdiqlangan DXSH asosida amalga oshiriladigan loyihalar dasturi doirasida hududlardagi infratuzilmani rivojlantirish loyihalarini amalga oshirishga ustuvorlik beriladi.

(e) davlat ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida Davlat budjeti mablag'lari hisobidan 2026-yilda 18,5 trln so'm mablag' ajratiladi.

Oltinchi, mamlakat hududlari hamda qo'shni davlatlar o'rtasida o'zaro bog'liqlikni (connectivity) yaxshilashga qaratilgan yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirishga ustuvorlik qaratiladi. Xususan, **2026-yilda**:

(a) **avtomobil yo'llari sohasida** "Toshkent-Samarqand" va "Toshkent-Andijon" yo'nalishlarida pulli avtomobil yo'llarini qurish loyihalarini amalga oshirish, XMilar mablag'lari hisobidan xalqaro avtomagistral yo'llarni ta'mirlash va barpo etish choralari ko'riladi.

Shu bilan birga, ilg'or tajribani inobatga olgan holda mavjud yo'llarning o'tkazuvchanligi qobiliyatini oshirish va xavfsizligini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi amalga oshiriladi.

(b) **temir yo'l transporti** sohasida "O'zbekiston-Qirg'iziston-Xitoy" va "O'zbekiston-Afg'oniston-Pokiston" xalqaro temir yo'llarini barpo etishda faol ishtirok etish hamda "Nukus-Miskin-Urganch-Buxoro" yangi tez yurar temir yo'l liniyasini ishga tushirish hamda yangi tezyurar poyezdlarning doimiy qatnovlarini yo'lga qo'yish choralari ko'riladi;

(d) **aeroportlar va havo transporti sohasida** Toshkent, Buxoro va Urganch yangi xalqaro aeroportlarini qurish loyihalarini amalga oshirishni boshlash, respublikada havo qatnovini kamida 1,5 barobarga oshirish hamda xizmat bozorida raqobat muhiti uchun kamida 6 ta xalqaro aviakompaniyalarni jalb qilish ishlari amalga oshiriladi;

(e) **mahalliy va jamoat transportida** shaharlardagi ichki avtobus qatnovlari uchun yangi yurish yo'laklarini tashkil qilish (Toshkent shahrida avtobuslar uchun alohida liniyalar), shaharlarda avtobus parklarini kengaytirish va uni moliyalashtirishning yangi mexanizmlarini keng joriy qilish choralari ko'riladi.

Yettinchi, davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilish va xususiylashtirish jadallashtiriladi hamda raqobat muhitini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar amalga oshiriladi. Xususan:

(a) xususiylashtirish dasturi asosida davlat korxonalarini xususiylashtirish jadallashtiriladi, shuningdek, samarasiz davlat korxonalari faoliyati qayta ko'rib chiqilib, dasturga kiritgan holda ularni xususiylashtirish choralari ko'riladi.

(b) tovar va xizmatlar bozorida davlat sektorining ulushi bosqichma-bosqich qisqartirib boriladi. Bunda, JST talablari hamda raqobat muhitini yaratish asosida eksklyuziv huquqlar va yengilliklarni bekor qilish davom ettiriladi.

Sakkizinchi, xususiylashtirish **tadbirkorlikni rivojlantirish** va **biznes muhitni** yaxshilashga qaratilgan tarkibiy islohotlar davom ettiriladi. Xususan:

(a) kichik va o'rta biznes subyektlarini rivojlantirishda soddalashtirilgan ma'muriy tartib-taomillar joriy qilinadi. Bunda:

- vakolatli davlat organlarida raqamlashtirishning kengayishi natijasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishni litsenziyalash, ruxsatnomalar berish tartiblari maqbullashtiriladi;

- davlat tomonidan kichik va o'rta biznes subyektlarining yiriklashuvini qo'llab-quvvatlash davom ettiriladi;

– mahsulot ishlab chiqarishda milliy va xalqaro standartlarga rioya etish tizimi kuchaytiriladi.

(b) tadbirkorlik subyektlari, jumladan, tez va yuqori sur'atlarda o'sayotgan tadbirkorlar uchun zarur va qulay biznes muhitini tashkil qilishga qaratilgan ishlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash davom ettiriladi. Bunda:

– kichik va o'rta biznesga moliyaviy xizmatlardan keng foydalanishda mikromoliyalash va lizing xizmatlari ommalashtiriladi;

– moliyaviy inklyuzivlikni oshirishga qaratilgan choralar amalga oshirilishi davom ettiriladi, bunda, moliyaviy xizmatlar turlarini kengaytirishda raqamli bank xizmatlari va islom moliyasi institutlaridan keng foydalaniladi;

– tadbirkorlik subyektlariga bozor iqtisodiyoti prinsiplariga asoslangan sifatli konsalting xizmatlarini ko'rsatish infratuzilmasi shakllantiriladi;

– yoshlar va xotin-qizlarni jalb etgan holda kichik biznes ehtiyojlariga mos kasbiy tayyorgarlik, biznes boshqaruvi va raqamli savodxonlik ko'nikmalarini qamrab olgan tadbirkorlik ta'limi tizimi rivojlantiriladi;

– mahalliy xomashyo va butlovchi mahsulotlardan samarali foydalangan holda, hududlarda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va tarmoqlararo klasterlarni qo'llab-quvvatlash davom ettiriladi;

– ilg'or xorijiy tajriba asosida biznes boshqaruvi va raqamli savodxonlikka oid zamonaviy o'quv kurslarini tashkil etish orqali tadbirkorlik savodxonligini oshirish choralari ko'riladi.

(d) startup hamda innovatsion ishlanmalarni joriy etishga qaratilgan loyihalarni rivojlantirish uchun mavjud infratuzilmani yanada kengaytirish choralari ko'riladi. Xususan:

– startup loyihalarni moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda venchur jamg'armalari, "kraudfanding", investitsion kompaniyalar mablag'larini jalb qilish qo'llab-quvvatlanadi. Bunda 2026-yilning yakuniga qadar venchur jamg'armalar ishtirokida yangi biznes yo'nalishlarida kamida 200 ta startup loyihalar amalga oshirilishi ta'minlanadi;

– inkubatsiya va akseleratsiya dasturlarini oliy ta'lim muassasalarida amalga oshirish hamda yetakchi ekspert va biznes mentorlarni jalb qilgan holda startup loyihalarga uslubiy yordam ko'rsatishni nazarda tutuvchi startup studiyalar tashkil etiladi.

1.2. Soliq siyosati

Soliq ma'murchiligi va raqobat muhitini yaxshilash, aholini sog'lom turmush tarziga jalb qilish, atrof-muhitni himoya qilishni rag'batlantirish hamda budjet daromadlarining barqarorligini ta'minlash soliq siyosatining o'rta muddatdagi asosiy yo'nalishlari sifatida saqlab qolinadi. Jumladan:

1-yo'nalish. Asosiy soliq stavkalarini o'zgarishsiz saqlab qolish.

Qulay tadbirkorlik muhitini ta'minlash maqsadida asosiy soliq turlari – **advalor soliq stavkalari saqlab qolinadi:**

(a) 2026-yilda foyda solig'ining bazaviy stavkasi 15 foiz, QQS 12 foiz, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i 12 foiz, ijtimoiy soliq 12 foiz (*budjet tashkilotlari uchun 25 foiz*), aylanmadan olinadigan soliqning bazaviy stavkasi 4 foiz, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 1,5 foiz miqdorida;

(b) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun yer solig'i qishloq xo'jaligi ekinzorlarining normativ qiymatiga nisbatan belgilangan 0,95 foiz soliq stavkasi saqlab qolinmoqda;

2-yo'nalish. Sog'lom turmush tarzini rag'batlantirish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish.

(a) Aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini rag'batlantirish, shuningdek, JSTning mahalliy va import qilingan tamaki va alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig'i stavkalarini bosqichma-bosqich birlashtirish talablaridan kelib chiqib:

(i) alkogol mahsulotlari va etil spirti bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-85-son Farmoni va JST talablaridan kelib chiqib, 2027-yil 1-yanvarga qadar alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig'i stavkalarini birxillashtirish maqsadida aroq, konyak va boshqa alkogol mahsulotlari uchun aksiz solig'i stavkasini **2026-yil 1-fevraldan** boshlab mahalliy mahsulotlarga 1 litr uchun 48 ming so'm, import qilinadiganga 1 litr uchun 60 ming so'm hamda **2026-yil 1-iyuldan** stavkalarni tenglashtirgan holda 1 litr uchun 48 ming so'm etib belgilash nazarda tutilmoqda.

Shuningdek, **2026-yil 1-fevraldan** boshlab mahalliy va import qilinadigan vino va pivo bo'yicha quyidagi soliq stavkalarini belgilash taklif etilmoqda:

– tabiiy vinoning 1 litri uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilarga 7 ming so'm va import qilinadigan mahsulotlarga 12 ming so'm hamda boshqa turdagi vinolarning 1 litri uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilarga 9 ming so'm va import qilinadigan mahsulotlarga 15 ming so'm;

– pivoning 1 litri uchun mahalliy ishlab chiqaruvchilarga 3 ming so'm va import qilinadigan mahsulotlarga 5 ming so'm.

2026-yil 1-iyuldan boshlab aksiz solig'i stavkalarini tenglashtirgan holda tabiiy vinoning 1 litri uchun 10 ming so'm, boshqa turdagi vinoning 1 litri uchun 12 ming so'm, shuningdek pivoning 1 litri uchun 4 ming so'm miqdorida belgilash taklif etilmoqda.

2026-yil 1-yanvardan boshlab 1 litr iste'mol va texnik etil spirti uchun 15 ming so'm aksiz solig'i stavkasini saqlab qolgan holda, etil spirtining bosh fraksiyasiga aksiz solig'ini 1 litr uchun amaldagi 15 ming so'mdan 5 ming so'mgacha pasaytirish taklif etilmoqda.

(ii) tamaki mahsulotlari bo'yicha:

2026-yil 1-fevraldan sigara, chilim uchun tamaki, o'rama tamaki, qizdiriladigan tamaki tayoqchasi va veyplar uchun, **2026-yil 1-iyuldan** esa filtrli, filtrsiz sigaretlarga soliq stavkalarini **7 foizga** oshirish taklif etilmoqda.

Bunda mahalliy ishlab chiqaruvchilar va import qilinadigan mahsulotlar uchun bir xil stavka qo'llagan holda sigaretlarning ming donasi uchun **365 ming so'm**, sigaraning bir donasi uchun **21,5 ming so'm**, chilim uchun tamaki, chekiladigan o'rama tamakining 1 kg uchun **642 ming so'm**, qizdiriladigan tamaki tayoqchasining 1 kg uchun **481,5 ming so'm**, veyplarning 1 ml uchun **2,14 ming so'm** etib belgilash taklif etilmoqda.

(iii) tarkibida shakar yoki shirinlashtiruvchi modda mavjud bo'lgan hamda energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklar:

2026-yil 1-apreldan boshlab ushbu mahsulotlar bo'yicha tarkibidagi shakar moddasining miqdoriga qarab progressiv tartibda soliqqa tortish taklif etilmoqda. Xususan:

– tarkibida shakar bo'lgan 100 ml ichimliklardagi shakar miqdori:

- 5 grammgacha bo'lganda 1 litri uchun **500 so'm** (amaldagi stavka);
- 5 grammdan 10 grammgacha bo'lganda 1 litri uchun **515 so'm**;
- 10 grammdan yuqori bo'lganda 1 litri uchun **535 so'm**.

– tarkibida shakardan boshqa shirinlashtiruvchi moddalar bo'lgan ichimliklarga 1 litri uchun **500 so'm**;

– energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklar uchun aksiz solig'i stavkasini 1 litr uchun **2 150 so'm** etib belgilash taklif etilmoqda.

Bunda, umumiy ovqatlanish sohasidagi korxonalar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan tayyorlanib iste'molchilarga realizatsiya qilingan ichimliklarning aksiz solig'iga tortilmasligi bo'yicha aniqlashtiruvchi qoidalar kiritilmoqda, shuningdek tovarlar tarkibidagi shakar miqdori bo'yicha ma'lumot iste'mol qadog'ida ko'rsatilmagan taqdirda eng yuqori soliq stavka qo'llanilishi nazarda tutilmoqda.

(iv) 2026-yil 1-apreldan **neft mahsulotlarini** ishlab chiqarish va yakuniy iste'molchilarga sotishda belgilangan aksiz solig'i stavkasini **7 foizga** oshirish, polietilen granulalari (10 foiz) va tabiiy gaz (12 foiz) uchun esa amaldagi soliq stavkasini saqlab qolish taklif etilmoqda;

(v) 2026-yil 1-apreldan boshlab iste'molga tayyor 1 kg kartoshka chipslari uchun **15 ming so'm** miqdorda aksiz solig'ini joriy etish taklif etilmoqda.

Ushbu aksiz solig'i kartoshka chipslarini ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar va O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni olib kiruvchilar tomonidan to'lanishi belgilanmoqda.

Mazkur taklif Jahon Sog'liqni saqlash tashkilotining ortiqcha vaznga qarshi kurashish choralari kuchaytirish hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining sog'lom ovqatlanishni qo'llab quvvatlash bo'yicha tavsiyalari asosida ishlab chiqildi va bu bo'yicha boshqa davlatlar tajribalari o'rganildi.

(b) **2026-yil 1-yanvardan** yer, mol-mulk, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari hamda yer qa'ridan foydalanganlik uchun qat'iy soliq stavkalarini hamda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchun soliq solish maqsadida qo'llanadigan ijara to'lovining eng kam stavkalarini **7 foizga** indeksatsiya qilish taklif etilmoqda.

3-yo'nalish. Tadbirkorlar uchun teng sharoit, qulay biznes muhitini yaratish hamda qo'shimcha yengilliklar taqdim etish.

(a) **2026-yil 1-yanvardan boshlab** tadbirkorlar uchun soliq yukini pasaytirish orqali qulay biznes muhitini yaratish maqsadida:

(i) yillik aylanmasi bir milliard so'mgacha bo'lgan yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar uchun **aylanmadan olinadigan soliq stavkasi 1 foiz** miqdorida belgilanmoqda. Shu munosabat bilan:

– yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun **qat'iy belgilangan miqdorda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini** to'lash;

– soliq davrida tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan daromadi 100 million so'mdan oshmagan o'zini o'zi band qilgan shaxslarni **aylanmadan olinadigan soliq to'lashdan ozod qilish** tartiblari bekor qilinadi.

(ii) aylanmadan olinadigan soliqdan ilk marta QQS va foyda solig'i to'lashga o'tgan soliq to'lovchilarni:

- bir yil davomida foyda solig'ini to'lashdan ozod qilish;
- 6 oy davomida buxgalteriya xizmatlari xarajatlarining har oyda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 3,5 baravaridan oshmagan qismini to'layotgan soliq to'lovlari hisobidan chegirib tashlash;

(iii) 2026-yil 1-yanvardan boshlab foyda solig'i bo'yicha har oy bo'nak to'lovlarini to'lashi lozim bo'lgan tadbirkorlik subyektlari daromadining chegaraviy miqdori **10 mlrd so'mdan 20 mlrd so'mgacha** oshirish;

(iv) foyda solig'i bo'yicha soliq imtiyozlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari bilan amortizatsiya qilinadigan asosiy vositalarni tezlashtirilgan amortizatsiya qilish huquqini berish tarzida uch yildan ortiq bo'lmagan muddatga taqdim etish tartibini joriy etish;

(v) yuridik shaxs tomonidan norezidentga dividendlar to'lashda foyda solig'i summasini ilgari soliqqa tortilgan dividend bo'yicha to'langan foyda solig'iga kamaytirish;

(vi) yuridik shaxslar tomonida mol-mulk va yer solig'i imtiyozlaridan foydalanishda maqsadli ko'rsatkichlar asosida amalga oshirish tartibini joriy etish taklif etilmoqda. Bunda maqsadli ko'rsatkich sifatida tovar aylanma va ishchilar soni inobatga olinadi.

Ushbu tartib to'g'ridan-to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari ishtirokidagi yuridik shaxslarga, mahsulot taqsimotiga oid bitim ishtirokchilariga, notijorat va budjet tashkilotlariga, yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan hamda 2026-yil 1-yanvarga qadar maxsus iqtisodiy zona ishtirokchisi maqomini olgan yuridik shaxslarga tatbiq etilmaydi.

(b) 2026-yil 1-yanvardan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) **elektron savdosini amalga oshiruvchilar uchun** foyda solig'i **15 foiz** (amalda 10 foiz) va aylanmadan olinadigan soliq **4 foiz** (amalda 3 foiz) stavkada belgilanmoqda;

(d) qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilari tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari realizatsiyasi uchun **2026-yil 1-yanvardan** boshlab QQS ning "nol" stavkasi joriy etilmoqda;

(e) **2026-yil 1-yanvardan boshlab** o'z ehtiyoji uchun gips xomashyosini qazib chiqarib, undan tayyor qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarga gips olish uchun **yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 50 foiz** miqdorida qo'llanilishi belgilanmoqda;

(f) 2026-yil 1-yanvardan boshlab issiqxona xo'jaliklari:

– 2029-yil 1-yanvarga qadar bo'lgan davrda issiqxona faoliyatidan olgan daromadlari joriy hisobot (soliq) davri yakunlari bo'yicha jami daromadning kamida 60 foizini tashkil etgan taqdirda ijtimoiy soliqni 1 foiz miqdorida to'lashi;

– yer solig'ini yer fondi toifasidan qat'i nazar qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlar uchun belgilangan soliq stavkalarida hisoblashi nazarda tutilmoqda.

(g) bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan V ochiq muloqotida belgilangan vazifalari doirasida soliq siyosati va ma'murchiligida **2026-yil 1-yanvardan quyidagi o'zgarishlar nazarda tutilmoqda:**

– yuridik shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i va yer solig'i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq, aylanmadan olinadigan soliq hamda QQS bo'yicha **soliq hisobotlarini shakllantirish vazifasi soliq organlariga o'tkazilib**, ushbu majburiyatni **soliq to'lovchilar uchun bekor qilish**;

– hisobot davrida bir nechta soliq turlari bo'yicha soliq hisobotlari taqdim etilmagan holatda, barcha taqdim etilmagan hisobotlar bo'yicha umumiy **bitta jarima qo'llash**;

– tadbirkorlarga sayyor soliq tekshiruvi natijalari bo'yicha hisoblangan moliyaviy sanksiyalarni **6 oy ichida teng ulushlarda** to'lash huquqini berish;

– kameral soliq tekshiruvi o'tkazilgan davrda aynan bir xil holat bo'yicha qayta kameral soliq tekshiruvi hamda soliq auditi o'tkazilgan yoki o'tkazilayotgan davrda tekshiruvdan oldingi tahlil o'tkazmaslik;

– milliy va xorijiy marketpleyslarda xorijiy davlatlarga sotilgan tovarlarga eksport operatsiyalari bo'yicha QQS summasi o'rnini qoplab berish hamda **soliq qarzini soliq to'lovchining debitorlari hisobidan** undirish imkoniyatini taqdim etish.

Shuningdek, 2025-yilda tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan imtiyozlar ro'yxati mazkur Budjetnomaning 9-ilovasida keltirilgan.

4-yo'nalish. Xalq deputatlari Kengashlari vakolatlarini takomillashtirish.

(a) **2026-yil 1-yanvardan** Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlariga qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar uchun belgilangan soliq stavkalariga **0,5 dan 1,2 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar qo'llash** vakolati berilmoqda;

(b) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlariga qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalarining aniq miqdorini shaharlar va tumanlar xalq deputatlari Kengashlari bilan kelishgan holda **0,5 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar qo'llash** vakolati nazarda tutilmoqda.

Shu bilan birga, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha pasaytiruvchi va oshiruvchi (0,7 dan 1,5 gacha) koeffitsiyentlarni qo'llash va yer qa'ridan foydalanganlik uchun noruda qurilish materiallari, sement ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari soliq stavkalarga oshiruvchi (1,3 gacha) koeffitsiyent qo'llash vakolati **berilmoqda**.

1.3. Budjet siyosati

1.3.1. Aholi farovonligini ta'minlash

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasiga muvofiq barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan budjet siyosatini yuritish Hukumatning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Bunda, aholi turmush darajasini oshirish, fuqarolarning real daromadlari o‘shishini ta'minlash va ularning ijtimoiy muhofazasini kuchaytirish maqsadida **budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorlari yillik inflyatsiya darajasidan yuqori miqdorlarda oshirib boriladi.**

Shuningdek, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” orqali to‘lanadigan nafaqalarning manzilliligini oshirish, muhim ijtimoiy soha va ijtimoiy himoya tadbirlariga yo‘naltiriladigan mablag‘lar samaradorligini kuchaytirish choralari davom ettiriladi.

Ushbu maqsadda, **“Ijtimoiy himoya yagona reyestri”** va **“Kambag‘al oilalar reyestri”** birlashtirilib, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami **yagona reyestrda** yuritiladi. Bunda “Ijtimoiy himoya yagona reyestri”ga kiritilgan oilalar uchun belgilangan ijtimoiy xizmatlar, yordamlar va imtiyozlar “Kambag‘al oilalar reyestri”ga kiritilgan oilalarga ham tatbiq etiladi.

Buning natijasida, muhtoj aholining ijtimoiy himoya bilan qamrov darajasi oshiriladi hamda budjet mablag‘lari ustuvor ravishda aholining ehtiyojmand qatlamiga yo‘naltiriladi.

Shu bilan birga, daromadi qisman oshgan, biroq kambag‘allik chegarasida turgan oilalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida “ijtimoiy paket” joriy etiladi hamda mehnat qilish qobiliyatiga ega bo‘lmagan a‘zolari mavjud oilalarga passiv daromad keltiruvchi qo‘llab-quvvatlash choralari taqdim etiladi.

Barcha ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug‘ish nafaqasi tayinlanishi va to‘lab berilishining amaldagi tartibi ijtimoiy adolatlilik tamoyillari asosida takomillashtirilib, ularga to‘lanadigan “dekret” pullari Davlat ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi orqali to‘lab beriladi.

Shu bilan birga, xodimlarning vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlik nafaqasining amaldagi tartibi o‘zgartirilib, integratsiyalashgan axborot tizimi orqali tayinlash va to‘lab berish yo‘lga qo‘yiladi.

Aholi farovonligini ta'minlash uchun kelgusi yillarda ko'p qavatli uy-joylarni qurish ko'lamini kengaytirish, "Yangi O'zbekiston" massivlarini barpo etishni jadallashtirish, eski va samarasiz turar joy fondlarini bosqichma-bosqich renovatsiya qilish, **ipoteka bozorini** moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda kapital bozorining rolini oshirish hamda tijorat banklari tomonidan ajratiladigan ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirish davom ettiriladi.

Shu bilan birga, "Yangi O'zbekiston" massivlarida yangi quriladigan infratuzilma inshootlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan (quyosh panellari va shunga o'xshash qurilmalar) hamda energiya tejavchi materiallar va uskunalardan keng foydalanish ko'zda tutilmoqda. Massivlarning issiqlik ta'minotini tashkil etishda esa muqobil issiqlik tizimlari – issiqlik nasoslari, quyosh suv isitish qurilmalari va shu kabi ekologik toza texnologiyalar keng joriy etiladi.

Shuningdek, ipoteka krediti bozorida tijorat banklari va "O'zbekiston ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi"ning ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish, shuningdek, xalqaro va mahalliy moliya tashkilotlaridan mablag'lar jalb qilish choralari ko'riladi.

Aholining muhtoj qatlamini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash maqsadida "Kambag'al oilalar reyestri"ga kiritilgan oilalar farzandlarini qabul qilgan oilaviy nodavlat MTTlarga ushbu bolalar ta'minoti uchun ota-onalar to'lovining 40 foizi budjetdan qoplab beriladi.

Umumta'lim maktablarida "Kambag'al oilalar reyestri"ga kiritilgan oilalar farzandlari uchun maktabdan tashqari ta'lim va sport to'garaklari tashkil etish uchun mablag'lar ajratilib boriladi.

Hududlarda aholi turmush shart-sharoitini yaxshilash, tadbirkorlikni rivojlantirish, kambag'allikni qisqartirish maqsadida keyingi yillarda "**Kambag'allikdan farovonlik sari**" dasturi doirasida Davlat budjetidan mablag'lar ajratish ishlari davom ettiriladi.

Bundan tashqari, Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi hisobidan kambag'al oilalarga o'z faoliyatini boshlashi uchun zarur bo'lgan uskunalar xarid qilishga hamda dehqonchilik va bog'dorchilik tashkil qilish uchun dehqon xo'jaliklariga suv quduqlarini burg'ilash, nasos agregatlarini sotib olish, tomchilatib sug'orish tizimini o'rnatish va elektr tarmoqlarini tortish uchun ssudalar ajratiladi.

Shuningdek, yengil konstruksiyali issiqxonalar o'rnatish, urug'liklar, ko'chatlar va sug'orish vositalari xarid qilish uchun jamg'arma hisobidan subsidiyalar ajratiladi.

1.3.2. Ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport sohalarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasidan kelib chiqib, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to‘liq javob beradigan ta’lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish uchun Davlat budjeti mablag‘lari ustuvor ravishda ijtimoiy sohani qo‘llab-quvvatlash hamda islohotlarini amalga oshirish uchun yo‘naltiriladi.

1. Ta'lim va fan sohasini yangi bosqichga olib chiqish hamda qamrovini oshirish.

Davlat rahbari tomonidan islohotlarning eng ustuvor yo‘nalishi sifatida ta’lim sifatini oshirish hamda ustoz va murabbiylarning mehnat va yashash sharoitini yaxshilash belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda ta’lim va fan sohasida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ishlar amalga oshiriladi:

(a) maktablarda navbatlilik koeffitsiyentini pasaytirish. Bunda:

- o‘quvchilar soni o‘shishini inobatga olgan holda har yilgi Ijtimoiy va ishlab chiqarish dasturi doirasida yangi umumta’lim maktablarini qurish va mavjudlarining sig‘imini oshirish tadbirlariga ustuvorlik berish;

- XMilar mablag‘larini jalb qilish hisobidan yangi o‘rinlar yaratish;

- umumta’lim maktablari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, binolarni energiya saqllovchi materiallar bilan ta’minlash, energiya samarador isitish moslamalari bilan qayta qurish;

- umumiy o‘rta ta’lim sohasiga xususiy sektorni keng jalb qilish.

(b) umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining axborot-kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasini yaxshilash uchun zamonaviy texnikalar va boshqa vositalar bilan ta’minlash;

(d) umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida darsliklarni yangilab borish;

(e) umumta’lim maktablari uchun har yili 10 ming donadan ortiq yangilangan sport jihozlari to‘plamlari xarid qilishga mablag‘ ajratish orqali ularni to‘liq zamonaviy sport jihozlari bilan ta’minlash;

(f) ta’lim tashkilotlarini “Toza qo‘llar” dasturi doirasida sanitariya-gigiyena vositalari bilan to‘liq ta’minlash, ichimlik suv ta’minoti va sanitariya-gigiyena obyektlari infratuzilmasini yaxshilash;

(g) MTTlar qamrovini oshirib borish;

(h) maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalarni, shu jumladan, birinchi navbatda "Kambag'al oilalar reyestri"ga kiritilgan oilalarning farzandlarini qamrab olish maqsadida barcha tuman va shaharlarda ilk rivojlanish markazlarini tashkil etish;

(i) davlat MTTlarni to'liq didaktik materiallar bilan ta'minlash;

(j) maktabgacha va maktab ta'limi tizimiga har yili 1 500 nafar xorijiy mutaxassislarni jalb qilish;

(k) oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini jami bitiruvchilar soniga nisbatan 50 foizga yetkazish, bunda oliy ta'lim sifatini va xususiy sektorlar rolini oshirish yuzasidan islohotlarni amalga oshirish;

(l) davlat oliy ta'lim muassasalarining magistratura yo'nalishida to'lov-kontrakt asosida tahsil olayotgan xotin-qizlar kontrakt to'lovlarini budjetdan qoplab berish orqali ular ulushini jami magistrlar soniga nisbatan 30 foizdan oshirish;

(m) oliy va professional ta'lim tashkilotlari bakalavr hamda magistraturaning kunduzgi ta'lim shaklida to'lov-kontrakt asosida tahsil olish uchun ta'lim krediti uchun resurslar ajratib borish.

2. Sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish

(a) 2026-yildan boshlab davlat tibbiy sug'urtasi tizimi mexanizmlarini respublikaning barcha hududlarida tatbiq etish va shu orqali sog'liqni saqlash tizimida sog'lom raqobat muhitini yaratish.

Bugungi kunda Davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida joriy etilgan.

(b) Ilg'or xorijiy tajriba asosida aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning yangi tizimini joriy etish:

xalqaro ilg'or tajribaga asoslangan aholiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko'rsatishning yangi modelini joriy qilish;

birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari, xususan, tuman (shahar) ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalar, oilaviy shifokor punktlari va oilaviy poliklinikalar, mahalla tibbiyot punktlari faoliyatini yagona yondashuv asosida tashkil qilish orqali aholiga tibbiyotni yanada yaqinlashtirish;

aholiga tibbiy yordam ko'rsatishda oilaviy shifokorlar ulushini 70 foizga yetkazish;

sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish hamda tibbiyotda qog'ozbozlikni kamaytirish orqali tibbiyot xodimlari yuklamasini 30 foizgacha kamaytirish;

aholining birlamchi tibbiy-sanitariya yordamidan roziligini 85 foizdan oshirish;

tibbiyot xodimlarini samaradorlik ko'rsatkichlari asosida moddiy rag'batlantirish tizimini joriy qilish;

tibbiyot brigadalari xodimlarining bilim va ko'nikmalarini oshirish.

(d) Sog'liqni saqlash sohasida xususiy sektor ulushini oshirish va bosqichma-bosqich ular tomonidan aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarni davlat buyurtmasi sifatida xarid qilishni kengaytirish.

3. Madaniyat va sport sohalarini yanada rivojlantirish

Madaniyat va sport sohalariga ajratiladigan mablag'lar samaradorligini yanada oshirish uchun moliyalashtirish tartibini takomillashtirish maqsadida quyidagilar taklif etiladi.

(a) Davlat teatrlari Davlat budjeti mablag'lari hisobidan davlat buyurtmasini bajarish sharti bilan bosqichma-bosqich loyihaviy moliyalashtirish tizimiga o'tkazish. Bunda, davlat buyurtmasini shakllantirishda o'rtacha yillik spektakllar soni, chipta narxi, budjetdan tashqari tushumlarni hisobga olgan holda loyihaviy moliyalashtirish tizimini takomillashtirish.

Shuningdek, davlat teatrlarini saqlash bilan bog'liq xarajatlarning budjetdan tashqari tushumlari hisobiga qoplanadigan ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish reja-jadvalini tasdiqlash.

(b) Madaniyat va sport sohasiga tegishli ko'chmas mulk obyektlaridan samarali foydalanishni tashkil etish maqsadida madaniyat va sport obyektlarini tadbirkorlar(xususiy sheriklar)ga DXSH asosida bino va inshootlarni qurish, ta'mirlash, jihozlash hamda madaniyat markazlarini faoliyatini boshqarish taklifi bilan berish.

1.3.3. Davlat investitsiyalarini boshqarish samaradorligini oshirish

Investitsiya dasturlarini shakllantirish va ijro etish tizimini yanada takomillashtirish maqsadida joriy yilning fevral oyida xalqaro ekspertlar tomonidan Davlat investitsiyalarini boshqarishni baholash (PIMA Update and Climate PIMA) mezonlari asosida baholash o'tkazildi.

Baholash natijalariga ko'ra, budget qoidalarining joriy etilganligi, kapital qo'yilmalar budgetini rejalashtirish takomillashtirilganligi, investitsiya loyihalarini baholash, tanlash va monitoring qilishni kuchaytirish uchun yangi tartib-taomillarning tasdiqlanganligi, DXSH sohasida markazlashtirilgan nazorat va hisobotni, shu jumladan, ularning fiskal xatarlarini tasdiqlashdan oldin baholash va ko'rib chiqish talabining kuchaytirilganligi bo'yicha ijobiy baho berildi.

Shuningdek, davlat investitsiyalarini boshqarishni rivojlantirish maqsadida quyidagi ustuvor vazifalar maqsad qilib olindi:

1. Quyidagilarni nazarda tutuvchi namunaviy metodologiyani ishlab chiqish:

- ijtimoiy, kommunal va yo'l-transport sohalarini uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, ko'rib chiqish va tasdiqlash tartibi;

- ushbu strategiyalarni iqlim bilan bog'liq maqsad va vazifalar, iqlim o'zgarishini yumshatish uchun kapital qo'yilmalarga ehtiyojlar va tegishli KPI ko'rsatkichlari bilan bog'lash va yangilash;

- investitsiya rejalarining milliy iqlim strategiyasiga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha tartibotlarni joriy etish.

2. XMilar ekspertlarining tavsiyalarini inobatga olgan holda, shu jumladan, DXSH mexanizmlariga "Gateway" (*loyihani amalga oshirish jarayonida oraliq nazorat nuqtalarini tashkil etish. Har bir nazorat nuqtasida loyiha ning maqsadga muvofiqligi, xatarlari, moliyalashtirilishi va keyingi bosqichga tayyorligini baholash*) jarayonlarini joriy qilish bo'yicha davlat investitsiyalari boshqaruvini tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish.

3. Amaldagi davlat investitsiyalarini boshqarish (DIB) tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga o'zgartish va qo'shimchalar yuzasidan takliflar ishlab chiqish, jumladan:

- budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan kapital qo'yilmalarning o'rta muddatli ko'rsatkichlarini aniqlash orqali investitsiya dasturlarini shakllantirish muddatlarini budget jarayonlariga bog'lash;

- investitsiya loyihalari ustuvorligini aniqlashda moliyalashtirish manbalari va amalga oshirish mexanizmlaridan qat'i nazar, loyihalarni iqlim o'zgarishiga moslashtirish va uning oqibatlarini yumshatish mezonlarini joriy qilish;

- dastlabki loyihalarni ishlab chiqish, tanlash va baholash, shuningdek, vazirlik va idoralar o'rtasida konsolidatsiyalashgan investitsiya dasturini muvofiqlashtirish bo'yicha majburiyatlarni taqsimlash uchun yagona standart yondashuvlar va boshqarish mexanizmlarini joriy etish.

4. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida quyidagilarni amalga oshirish:

- budjet tashkilotlari va muassasalarining xarajatlar smetalarida o'rta muddatli istiqbolda ko'zda tutilgan loyihalar bo'yicha saqlash va texnik xizmat ko'rsatish uchun ko'zda tutilgan xarajatlarni alohida qatorda belgilash;

- davlat infratuzilmasini rivojlantirish doirasida infratuzilma loyihalarining iqlimga ta'siri bilan bog'liq xatarlarni tahlil qilish.

5. Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-saytida budjetdan moliyalashtiriladigan yirik loyihalar ro'yxati va ularni amalga oshirish jarayoni, loyihaning butun davri uchun kapital xarajatlarni ko'rsatgan holda joylashtirish.

6. "Kapital qo'yilmalar" axborot tizimini yanada takomillashtirish, baholash mezonlarining iqlim maqsadlariga muvofiqligini hisobga olgan holda loyihalarni dastlabki ishlab chiqish, tanlash va baholash jarayonlarini kiritish.

7. Bajarilgan loyihalarni investitsiyadan keyin monitoring qilish tartibiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi nizomni ishlab chiqish. Bunda quyidagilarni ko'zda tutish:

- amalga oshirilgan loyihalarni baholash tizimlari (*ex-post project evaluation – investitsiyadan keyingi monitoring*) hamda topshirilgan quvvatlardan foydalanish bo'yicha standart hisobot shakllari va samaradorlik ko'rsatkichlari, shu jumladan, moliyaviy, ijtimoiy, ishlab chiqarish, ekologik va iqlim ko'rsatkichlarini;

- vazirlik va idoralar tomonidan tugallangan loyihalarni iqtisodiy baholash jarayonlariga ekspertlarni jalb qilish hamda yangi loyihalarni amalga oshirishda foydalanish uchun tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish tizimlarini joriy qilish.

8. DIB sohasidagi vazirlik va idoralarning mansabdor shaxslari va mutaxassisleri salohiyatini oshirish rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash. Bunda:

- PIMA va C-PIMA bo'yicha yangi boshqaruv tamoyillari asosida loyihalarni tayyorlash, baholash, tanlash va monitoring qilish bo'yicha o'quv kurslari;

- iqlim jihatlarini tarmoq strategiyalari va investitsiya rejalarida inobatga olish, shu jumladan, iqlim bilan bog'liq davlat investitsiyalari qiymatini baholash bo'yicha treninglar;

- iqlim o'zgarishini hisobga olgan holda tugallangan loyihalarni investitsiyadan keyin baholash bo'yicha treninglar;

- DXSH shartnomalarini tuzish va boshqarish bo'yicha o'quv kurslarini muntazam ravishda o'tkazish.

9. Investitsiya dasturlarini aniqlash, asosiy natijalar va moliyalashtirish bilan bog'liq ko'rsatkichlarni aniqlash, dasturlarni texnik, ijtimoiy va ekologik ta'sirlar bo'yicha baholash, salohiyatni oshirish, tizim samaradorligini yaxshilash imkoniyatlarini aniqlashda PforR (Natijaga asoslangan moliyalashtirish dasturi) instrumentlaridan foydalanish.

10. Davlat resurslari hisobidan moliyalashtiriladigan kapital loyihalar to'g'risidagi ma'lumotlar shaffofligini ta'minlash maqsadida budjetdan moliyalashtiriladigan asosiy kapital loyihalar ro'yxati, shu jumladan, o'rta muddatli istiqbolga mo'ljallangan mablag'lar va loyihaning ekspluatatsiya davri davomidagi umumiy xarajatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yoritib borish choralari ko'riladi.

1.3.4. Budjet taqchilligini mo'tadil darajada saqlash

"O'zbekiston-2030" strategiyasida mamlakat iqtisodiyotining izchil o'sishi uchun fiskal barqarorlikni ta'minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilab berilgan.

2024-yil uchun Davlat budjeti to'g'risidagi Qonunga muvofiq konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligi YIMga nisbatan 4 foiz miqdorida tasdiqlangan bo'lib, o'tgan moliya yili davomida budjet intizomini yaxshilash choralari ko'rilishi natijasida 3,3 foizigacha pasaytirishga erishildi.

Shuningdek, joriy yilda konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini tasdiqlangan YIMga nisbatan 3 foiz miqdoridan oshmasligi ta'minlanadi.

Davlat budjeti likvidliligini boshqarish samaradorligini oshirish va budjet oldidagi majburiyatlarni tartibga solish, **konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini qisqartirish**, shuningdek, davlat qarzi oshishini oldini olish maqsadida 2026-yildan boshlab budjet balansini shakllantirish mexanizmi takomillashtirilmoqda.

Bunda konsolidatsiyalashgan budjet balansi hamda **davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun Davlat budjeti va DMJ hisobidan ajratiladigan depozit va ssudalar “Umumiy fiskal balans” sifatida** aks ettirilmoqda.

Depozit va ssudalarni budjetda inobatga olgan holda budjet qamrovini kengaytirish orqali umumiy fiskal balansni YIMga nisbatan 3 foizlik taqchillikdan oshirmaslik ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Budjet daromadlarini oshirish uchun yashirin iqtisodiyotni yanada qisqartirish hisobiga soliq to'lovchilar qamrovini oshirish va qo'shimcha daromadlar manbasini yaratish, soliq-bojxona imtiyozlarini tanqidiy ko'rib chiqish, ijtimoiy-iqtisodiy samara bermayotgan imtiyozlarni bekor qilish hamda daromadlarni diversifikatsiya qilish ishlari davom ettiriladi.

Shuningdek, Davlat budjeti xarajatlarining samaradorligi va manzilliligi ko'rib chiqiladi hamda samarasiz deb topilgan xarajatlar va subsidiyalarni optimallashtirish choralari ko'riladi.

Budjet xarajatlari samaradorligini oshirishda kelgusi yillar uchun rejalashtiriladigan budjet xarajatlarining asosiligi va manzilliligiga hamda sohaga doir strategik maqsadlarga muvofiqligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Moliya yili davomida budjet xarajatlari va subsidiyalarning muhimligi va natijadorligini doimiy o'rganib borish orqali samarasiz deb topilgan hamda iqtisod qilinishi mumkin bo'lgan xarajatlar optimallashtirib boriladi.

Shu bilan bir qatorda, asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish jarayonlari qo'shimcha tartiblarni joriy etish yordamida takomillashtiriladi.

Shuningdek, 2026-yilda budjet tashkilotlarining **4-guruh (boshqa) xarajatlari** miqdorini (*oziq-ovqat va dori-darmon xarajatlaridan tashqari*) **joriy yilgi miqdorlarda saqlab qolish** taklif etilmoqda.

Shu bilan birga, davlat pensiya ta'minoti tizimini isloh qilish orqali Pensiya jamg'armasiga respublika budjetidan ajratiladigan transfertlarning o'sish sur'atini kamaytirish maqsad qilingan.

Uy-joy va ipoteka dasturi doirasida tijorat banklari va Ipotekani qayta moliyalashtirish kompaniyasi mablag'larining ulushini oshirish ishlari amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, davlat korxonalarini moliyaviy “sog'lomlashtirish” orqali davlat korxonalariga va ayrim sohalarga ajratiladigan ssudalar va subsidiyalarni qisqartirib borish choralari ko'riladi.

Yuqoridagilar natijasida budjet taqchilligi oshishining oldi olinadi va budjetni qo'llab-quvvatlash uchun yillik jalb qilinadigan mablag'lar limitiga amal qilinib, davlat qarzining YIMga nisbati 50 foizdan oshmasligini ta'minlash bo'yicha ko'rilayotgan choralar kuchaytiriladi hamda uzoq muddatda qarzga xizmat ko'rsatish bo'yicha budjet xarajatlari oshishining oldi olinadi.

Shuningdek, o'rta muddatda Davlat budjetining **birlamchi taqchilligi**, ya'ni Davlat budjeti xarajatlaridan davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha foiz to'lovlarni chiqarib tashlagan holda hisoblanadigan Davlat budjeti taqchilligini **qisqartirish** choralari ko'riladi.

Bu, o'z navbatida, Hukumat tomonidan Davlat budjeti daromadlari va xarajatlari o'rtasidagi muvozanatni tiklash bo'yicha ko'rilayotgan qat'iy choralar natijasida yuzaga kelishi prognoz qilinmoqda.

Budjetning **birlamchi taqchilligi** kamayishi makro-fiskal barqarorlikni mustahkamlash bilan birga davlat qarzi barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, ushbu ko'rsatkich xalqaro investorlar va reyting agentliklari tomonidan fiskal intizomning yaxshilanishi sifatida baholanib, mamlakatning suveren reytinglaridagi ijobiy o'zgarishlariga zamin yaratadi.

Davlat moliyasining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash, fiskal intizomni mustahkamlash va davlatning moliyaviy majburiyatlarini samarali boshqarish maqsadida xalqaro ekspertlar tavsiyalariga muvofiq budjet qonunchiligida davlat qarzi va budjet taqchilligini chegaralash bo'yicha qoidalar kiritilgan.

Jumladan, Hukumat nomidan va uning kafolati ostida jalb qilinadigan tashqi qarzning yillik cheklangan hajmi, jami davlat qarzining yuqori chegarasi va konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligining yillik cheklangan miqdori bo'yicha cheklovlar joriy etildi.

Shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida 2025-yildan boshlab konsolidatsiyalashgan budjet taqchilligini YIMga nisbatan 3 foizdan oshirmaslik belgilandi.

Qonunchilikka kiritilgan ushbu qoidalarining huquqiy asoslarini kuchaytirish va ularni yanada takomillashtirish, shuningdek, xalqaro ekspertlar tavsiyalaridan kelib chiqib, **Budjet kodeksiga fiskal qoidalarining ishlashini kuchaytirish va uning budjet jarayonidagi rolini oshirish bo'yicha normalar** kiritiladi.

Bunda Hukumat va Parlamentning favqulodda vaziyatlarda (*pandemiya, tashqi iqtisodiy va siyosiy vaziyatlarning hamda ichki xavf-xatarlarning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'sirini yengillashtirish va boshqalar*) ushbu qoidalarni vaqtinchalik to'xtatib turish va qoidalarga qaytish bo'yicha vakolatlari aniq belgilanadi.

Bundan tashqari, Davlat budjeti tasdiqlangan parametrlariga joriy yil davomida qo'shimcha xarajatlarning kelib chiqishini tartibga solish bo'yicha xalqaro tajribalar doimiy o'rganiladi.

1.3.5. Davlat qarzini samarali boshqarish

Davlat qarzini mo'tadil darajada saqlash va samarali boshqarish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan:

- "Davlat qarzi to'g'risida"gi Qonunda davlat qarzining eng yuqori miqdori YIMning yillik prognoz ko'rsatkichiga nisbatan 60 foizdan oshishiga yo'l qo'yilmasligi belgilandi. Bunda, davlat qarzining miqdori YIMga nisbatan 50 foizga yetgan taqdirda Vazirlar Mahkamasi davlat qarziga belgilangan me'yorlardan oshmasligini ta'minlovchi chora-tadbirlarni Parlamentga kiritadi;

- Davlat budjeti to'g'risidagi Qonunga muvofiq yangi jalb qilinadigan davlat qarzi miqdorlarini qonuniy chegaralash amaliyoti yo'lga qo'yildi;

- Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish manbalarini va davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish hamda valyuta xatarlarini boshqarish maqsadida milliy valyutada qarz jalb qilish hamda ichki moliya bozorlarini rivojlantirish choralari ko'rilmoqda.

Davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish maqsadida yillik davlat g'aznachiligi obligatsiyalarini joylashtirish hajmi oshirib borilmoqda. 2025-yilning 1-iyul holatiga davlat g'aznachiligi obligatsiyalari qoldig'i 45,1 trln so'mni tashkil qildi.

Shuningdek, 2020-yildan buyon 17,8 trln so'mlik milliy valyutadagi suveren xalqaro obligatsiyalar London fond birjasida joylashtirildi.

Davlat g'aznachiligi obligatsiyalari bozorini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilgan chora-tadbirlar:

- **"Birlamchi dilerlik"** tizimi yo'lga qo'yildi;
- davlat g'aznachiligi obligatsiyalarining **auksion kalendari** e'lon qilinishi yo'lga qo'yildi;

- bozorda oldindan e'lon qilingan auksion kalendariga asosan uzluksiz davlat g'aznachiligi obligatsiyalarini (*turli muomala davriga ega*) taklif qilinishi natijasida birlamchi bozorda **davlat g'aznachiligi obligatsiyalari muomala davri 10 yilgacha uzaytirildi** hamda **foiz stavkalari sezilarli darajada barqarorlashdi**;

- xalqaro identifikatsiya kodlarini (ISIN) berish orqali davlat g'aznachilik obligatsiyalarini joylashtirish amaliyoti va 1 ta identifikatsiya kodi (ISIN) doirasida **benchmark obligatsiyalari** chiqarilishi yo'lga qo'yildi;

- davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozorini rivojlantirish doirasida 2022–2024-yillarda XVJning **texnik ko'maklari** jalb qilindi va ekspertlar tavsiyalari amalda tatbiq etilmoqda;

- auksion natijalari bo'yicha hisob-kitoblar **T + 0, T + 1 va T + 2⁴** xalqaro standartlari asosida amalga oshirilmoqda;

- davlat g'aznachilik obligatsiyalari bo'yicha foiz to'lovlarini to'lash xalqaro standartlarga mos **har olti oyda** amalga oshirilmoqda;

- davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozoridagi operatsiyalar to'g'risidagi **axborotlar** (*auksion o'tkazish bo'yicha e'lonlar, auksion natijalari va investorlar uchun zaruriy ma'lumotlar*) muntazam ravishda Iqtisodiyot va moliya vazirligi⁵, Markaziy bank va O'zbekiston Respublika valyuta birjasining rasmiy **veb-saytlarida** e'lon qilib kelinmoqda.

– Davlat korxonalari va banklari o'z loyihalarini moliyalashtirish uchun, transformatsiya jarayonlariga muvofiq, jahon moliya bozorlarida davlat kafolatisiz mablag' jalb qilishga o'tkazilmoqda.

*Davlat korxonalari hamda banklari tomonidan xalqaro me'yorlar va talablar asosida o'z moliyaviy hisobotlarining shaffofligini ta'minlash, "Fitch", "S&P" va "Moody's" xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan holda xalqaro kredit reytingi olinishi natijasida 2019-yildan 2025-yilning 1-iyuliga qadar "O'zsanoatqurilishbank" ATB, "O'zmilliybank" AJ, "Ipoteka-bank" ATIB, "Agrobank" ATB, "UzAvto Motors" AJ, "O'zbekneftgaz" AJ va "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ tomonidan umumiy hajmi qariyb **6,1 mlrd AQSH dollarlik** mablag'lar xalqaro obligatsiyalar chiqarish orqali jalb qilindi.*

⁴ **T+0, T+1, T+2** — savdo kunidan so'ng hisob-kitob amalga oshiriladigan muddatlarni anglatadigan xalqaro standartlar

⁵ <https://www.imv.uz/static/auksionlar-otkazish-kalendari>

2025-yilning may va iyun oylarida xalqaro reyting agentliklari tomonidan mamlakatimiz suveren kredit reytingi ijobiy baholandi. Unga ko'ra, "S&P" va "Moody's" O'zbekiston suveren kredit reytingini mos ravishda "BB-" va "Ba3" darajada tasdiqlab, uning kutilmasini "barqaror" dan **"ijobiy" ga oshirgan** bo'lsa, "Fitch" xalqaro reyting agentligi "BB-" darajadan **"BB" darajaga oshirib**, uning kutilmasini "barqaror" darajada tasdiqladi.

– XVJ tavsiyalariga asosan har chorakda davlat qarziga oid statistik ma'lumotlar⁶ Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy veb-saytida e'lon qilib kelinmoqda.

Budjet taqchilligi chegarasiga rioya qilish orqali taqchillikni hamda investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun yangi jalb qilinadigan tashqi qarz mablag'lari bo'yicha belgilangan limitlarga amal qilinadi.

Bundan tashqari, jami davlat qarzida davlat g'aznachilik obligatsiyalarini chiqarishning cheklangan sof hajmi ulushini bosqichma-bosqich oshirib borish choralarini ko'rish orqali **valyuta xatarlarini kamaytirish** hamda davlat qarzi portfelini diversifikatsiya qilish bo'yicha ishlar davom ettiriladi.

Davlat qarzini xavfsiz darajada saqlash va samarali boshqarish bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar.

Davlat qarzini xavfsiz darajada saqlash va samarali boshqarish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi belgilab olindi:

– Davlat qarzini to'lashning o'rtacha muddatini uzaytirish (*o'rta va uzoq muddatli davlat qimmatli qog'ozlari chiqarishni ko'paytirish*), shuningdek, davlat qarzini manbalar bo'yicha diversifikatsiya qilish;

– Davlat g'aznachilik obligatsiyalari bozoriga xalqaro investorlarni keng jalb qilish jarayonini jadallashtirish;

– Davlat qarzi bo'yicha xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xatarlarni oldini olish, ularni bartaraf etish yoki kamaytirish yuzasidan qat'iy choralar ko'rish;

– Davlat qarziga oid ma'lumotlar ochiqligini ta'minlash.

⁶ <https://www.imv.uz/static/umumiy-jadval>

1.3.6. DXSH loyihalari bo'yicha fiskal majburiyatlarni tartibga solish

2025-yil 1-yanvar holatiga DXSH prinsiplari asosida amalga oshirilayotgan loyihalarning soni jami 1 134 tani tashkil etib, umumiy qiymati 365,1 trln so'mga yetdi *(2024-yil yakuni bo'yicha qiymati 1 mln AQSH dollarigacha bo'lgan loyihalar 891 tani, qiymati 1 mln AQSH dollaridan ortiq bo'lgan loyihalar soni 243 tani tashkil etgan)*.

DXSH tamoyilida amalga oshirilayotgan loyihalar portfelining 93 foizi energetika sohasiga (339,8 trln so'm) to'g'ri kelsa, kommunal xizmatlar 4,6 foizni (16,9 trln so'm), boshqa sohalar esa 1 foizdan kamroq ulushga ega.

Hisob-kitoblarga ko'ra, 2026-yil uchun DXSH loyihalari bo'yicha **budjetdan amalga oshiriladigan jami to'lovlar 10,1 trln so'mga baholanmoqda**. Bunda, budjetdan amalga oshiriladigan to'lovlarning asosiy qismi kommunal sohasiga va nodavlat MTTlarga ajratiladigan mablag'lar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

DXSH loyihalari soni va ulardan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davlatning fiskal majburiyatlarining o'sib borayotganligini inobatga olib, 2024-yil davomida makro-fiskal xatarlarni baholash tizimi xalqaro amaliyot asosida kengaytirildi. Xususan, JB va XVJ ko'magida DXSH loyihalari doirasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davlatning to'g'ridan to'g'ri va shartli majburiyatlarini baholash bo'yicha amaliyotlar takomillashtirildi.

DXSH loyihalari bo'yicha budjet oldidagi xatarlarni pasaytirish maqsadida 2025-yil uchun Davlat budjeti to'g'risidagi Qonunda davlat tomonidan majburiyatlar qabul qilinishi va davlat tomonidan tasdiqlovchi xatlar berilishi talab etiladigan DXSH tamoyillari asosida imzolanadigan barcha yangi loyihalar qiymatining cheklangan miqdori yiliga **6,5 mlrd AQSH dollari miqdorida belgilandi**.

II. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar sharhi

2.1. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning 2025-yil oxirigacha kutilmalari

So'nggi yillarda jahonda yuz berayotgan geosiyosiy ziddiyatlar va keskinliklar, global iqtisodiyotdagi uzoq muddatli noaniqliklarga qaramasdan, mamlakatimizda iqtisodiyotni yanada liberallashtirishga qaratilgan islohotlar, shuningdek, joriy yilning 9 oyida iqtisodiyot tarmoq va sohalarida erishilgan natijalaridan kelib chiqib, iqtisodiy o'sish sur'ati tasdiqlangan prognoz (6 foiz) ko'rsatkichidan yuqoriroq, ya'ni **7 foiz** darajada shakllanishi kutilmoqda.

1-jadval. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, foizda

Ko'rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	2025-yil	
			tasdiqlangan parametr	kutilma
YIM nominal hajmi, trln so'mda	1 204	1 455	1 675 *	1 721
YIM o'sish sur'ati	6,3	6,5	6	7
Inflyatsiya darajasi	8,8	9,8	8	7,8-7,9
Ishsizlik darajasi	6,8	5,5	5	5
<i>Iqtisodiyot tarmoqlarining o'sish sur'atlari:</i>				
Sanoat mahsulotlari	6,3	6,5	6,1	6,7
Qurilish ishlari	7	8,8	14,2	12,7
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarish	4,1	3,1	4,1	4,1
Bozor xizmatlari	14,1	14,2	14,5	13,3-15,4

*Izoh: * "2025-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonunning (24.12.2024-yil O'RQ-1011-son) 2-ilovasidagi maqsadli parametrlardagi foiz ko'rsatkichlari saqlab qolinganda rasmiy statistikada o'tgan yillar uchun YIM nominal hajmining o'zgarishi hisobiga qayta ko'rib chiqilgan.*

2025-yilda kutilmalarning belgilangan prognozlarga nisbatan yuqori shakllanishiga quyidagi ijobiy omillar ta'sir etmoqda.

Birinchidan, mamlakat iqtisodiyotini yanada liberallashtirishga qaratilgan islohotlarning izchil davom ettirilishi, shuningdek, har bir tarmoq, soha va hududlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan maqsadli dasturlarning amalga oshirilayotgani hisobiga xizmatlar sohasining yuqori sur'atlari bilan birga sanoat, qurilish va qishloq xo'jaligi tarmoqlarida ham sezilarli o'sish qayd etildi.

Tarmoqlar kesimida iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri bozor xizmatlari (o'sish – 14-15 foiz) sohasi bo'lishi kutilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-fevraldagi "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-78-son qarori bilan 2025-yil uchun bozor xizmatlari sohasida qo'shimcha choralarning belgilanishi bozor xizmatlarining yuqori sur'atlarda o'sishga katta turtki berdi.

*Bunda, 2025-yilda xizmatlar sohasidagi loyihalarga **67,4 trln** so'm miqdorida kredit mablag'larini ajratish, hududlarda **652 ta** drayver loyihalarni infratuzilma bilan ta'minlash uchun Davlat budjetidan **1 trln** so'm yo'naltirish kabi sohaning o'sishini ta'minlaydigan qo'shimcha choralar belgilandi.*

2025-yil yakuni bilan sanoat – 6,7 foizga (prognoz 6,1 foiz), qurilish ishlari – 12,7 foizga va qishloq xo'jaligi – 4,1 foizga o'sishi kutilmoqda.

Ikkinchidan, jahon iqtisodiyot va moliya bozoridagi yuqori noaniqliklar sharoitida asosiy eksport mahsulotlarimiz narxlarining yil boshiga nisbatan oshishi kuzatildi.

Shu bilan birga, ayrim Markaziy banklar (eng yirik xaridorlar Hindiston, Xitoy, Turkiya va Polsha) tomonidan oltinning keng sotib olinishining ortishi hamda jahonda ushbu metalning toza energiya loyihalari – quyosh panellari va akkumulyatorlarda qo'llanishi ortayotgani ham talabning ortishi va narxning oshishiga sabab bo'lmoqda.

Bu esa, mamlakatimiz umumiy eksport hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, joriy operatsiyalar hisobi taqchilligining yaxshilanishini qo'llab-quvvatlovchi omil bo'lishi kuzatilmoqda.

Uchinchidan, uy-xo'jaliklari iste'molining real hajmi ham prognozga nisbatan 1-1,5 foizgacha tezlashib, **7-7,5 foiz** atrofida shakllanmoqda. Bunda:

– transchegaraviy pul o'tkazmalari hajmi migrantlarni qabul qiluvchi mamlakatlar valyuta kurslarining mustahkamlanishi, shuningdek, mehnat migrantlari geografiyasining diversifikatsiyalashuvi hisobiga yil yakuni bilan prognozga nisbatan **4-5 foiz** yuqori, ya'ni **17-18 foiz**ga oshishi kutilmoqda;

– iqtisodiyotda kreditlash sur'atlarining jadallashuvi, bunda jismoniy shaxslar kreditlar qoldig'i o'sishi YIMning nominal o'sishiga nisbatan yuqori shakllanishi kuzatilmoqda;

– pensiyalar, nafaqalar, kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqalari va moddiy yordam to'lovlari, shuningdek, budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi va stipendiyalar miqdorlari dastlabki prognozda belgilangan miqdorlardan ortiq oshirildi.

Yuqorida qayd etilgan ijobiy omillarga qaramasdan xalqaro savdodagi cheklovlarning kuchayishi, global inflyatsiyaning pasayishi kutilganidan sekin kechayotgani, jahonda oziq-ovqat mahsulotlari narxi oshayotganligi hamda asosiy savdo hamkor davlatlardagi inflyatsiya darajasining target ko'rsatkichlaridan yuqori shakllanganligi kelgusida import inflyatsiyasiga olib kelishi va yalpi talabga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Joriy yilning ikkinchi choragida yuqori iqtisodiy faollik va talab narxlarga bosim o'tkazdi, ammo baza ta'sirlari chiqib ketishi orqali avgustdan inflyatsiya darajasi pasayishni boshladi.

Yil yakuni bilan inflyatsiya darajasi 7,8-7,9 foiz atrofida shakllanishi kutilmoqda.

Ma'lumot uchun: oktabr oyida yillik inflyatsiya 7,8 foizni tashkil etdi.

2.2. Jahon iqtisodiyotidagi makroiqtisodiy rivojlanish tendensiyalari

XVJning 2025-yil oktabr oyidagi hisobotida, jahon iqtisodiyotidagi noaniqliklar saqlanayotganiga qaramasdan, iqtisodiy faollik barqarorligicha qolgani ta'kidlangan.


Ushbu hisobotga ko'ra, global iqtisodiy o'sish 2025-yilda 3,2 foiz, 2026-yilda esa 3,1 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda (*2024-yilda – 3,3 foiz*).

Bunda rivojlangan mamlakatlarda o'sish sur'atlari 2025–2026-yillarda 1,6 foiz atrofida bo'lishi, rivojlanayotgan mamlakatlarda esa 2025-yilda 4,2 va 2026-yilda 4 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

2-jadval. XMlarning 2025-2026-yillarda jahondagi iqtisodiy o'sish yuzasidan prognozlari

Mamlakatlar	XVJ		JB	
	2025 kutilma	2026 prognoz	2025 kutilma	2026 prognoz
Jahon iqtisodiyoti	3,2	3,1	2,3	2,4
Rivojlangan va bozor iqtisodiyotiga ega davlatlar	1,6	1,6	1,2	1,4
AQSH	2,0	2,1	1,4	1,6
Yevropa Ittifoqi	1,2	1,1	0,7	0,8
Germaniya	0,2	0,9	-	-
Fransiya	0,7	0,9	-	-
Italiya	0,5	0,8	-	-
Ispaniya	2,9	2,0	-	-
Buyuk Britaniya	1,3	1,3	-	-
Kanada	1,2	1,5	-	-
Xitoy	4,8	4,2	4,5	4,0
Yaponiya	1,1	0,6	0,7	0,8
Rivojlanayotgan Yevroosiyo davlatlari	4,2	4,0	3,8	3,6
Rossiya Federatsiyasi	0,6	1,0	1,4	1,2
Turkiya	3,5	3,7	3,1	3,6
Qozog'iston	5,9	4,8	4,5	3,6
Qirg'iziston	8,0	5,3	6,8	5,5
Turkmaniston	2,3	2,3	-	-
Tojikiston	7,5	5,5	7,0	-
O'zbekiston	6,8	6,0	5,9	5,9

2-diagramma. XVJning global iqtisodiy kutilmalari, foizda



Shuningdek, XVJning hisobotiga ko'ra, mamlakatimizning asosiy savdo hamkorlari, jumladan, Xitoy iqtisodiyoti 4,8 foizdan 4,2 foizgacha, Qozog'istonda 5,9 foizdan 4,8 foizgacha pasayishi, Turkiya iqtisodiyoti 3,5 foizdan 3,7 foizgacha hamda Rossiya 2025-yildagi 0,6 foizdan 2026-yilda 1 foizgacha o'zgarishi prognoz qilingan.

O'zbekistonning asosiy savdo hamkor mamlakatlarida iqtisodiy tendensiyalar va kutilmalari quyidagicha:

Rossiya iqtisodiyotida 2025-yilning ikkinchi choragida **YIM 1,1 foizga** o'sdi. Tarmoqlar kesimida qayta ishlash sanoati (3,8 foiz) va qurilish (2,7 foiz) sohalari ijobiy hissa qo'shib, shuningdek, umumiy ovqatlanish xizmatlari (9,2 foiz), moliya (11 foiz), davlat boshqaruvi (5,3 foiz) va axborotlashtirish (3,5 foiz) xizmatlarida yuqori o'sish qayd etildi. Shu bilan birga, suv ta'minoti va chiqindilarni utilizatsiya qilish (3,9 foiz), savdo (2 foiz) hamda xomashyo qazib olish (1,2 foiz) sohaslarida pasayish kuzatildi. Biroq, ichki talabning sustlashishi sababli, 2025-yilda YIMning o'sishi 2,5 foizdan 1,2 foizgacha pasayishi kutilmoqda.

Xitoyda 2025-yilning ikkinchi choragida **YIM o'sish sur'ati 5,3 foizni** tashkil etdi. Bunda, sanoat va qurilish tarmoqlari 5,3 foizga, xizmatlar esa 5,5 foizga o'sdi. YIM o'sishi asosan sanoat ishlab chiqarishi hisobiga ta'minlangan bo'lib, iyun oyida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 6,8 foizga o'sdi. Ichki talabni qo'llab-quvvatlash maqsadida monetar siyosatdagi yumshatish choralari hisobiga 2025-yil yakuniga qadar YIM 5 foizga o'sishi kutilmoqda.

Turkiya iqtisodiyotida 2025-yilning ikkinchi choragida **YIM 4,8 foizga** o'sib, ushbu o'sish asosan xususiy iste'mol (5,1 foiz) va investitsiyalar (8,8 foiz) hisobiga ta'minlandi. 2025-yilda inflyatsiyaning yuqori darajada saqlanishi sharoitida pul-kredit va fiskal siyosatning qat'iylashishi, YIMning esa 3-3,5 foizga o'sishi kutilmoqda. Bundan tashqari, inflyatsiya yillik hisobda 30 foizdan yuqori darajada shakllanmoqda.

Qozog'istonda 2025-yilning ikkinchi choragida **YIM o'sish sur'ati 6,2 foizni** tashkil etdi. Iqtisodiy faollikning jadallashuvi tovarlar ishlab chiqarish (8 foiz) va xizmatlar sohasi (5,2 foiz) hisobiga ta'minlandi. Eng yuqori o'sish transport-logistika (31 foiz), moliya va sug'urta xizmatlari (9,4 foiz), hamda qurilish (22,1 foiz) va qayta ishlash sanoatida (21,2 foiz) qayd etildi. Pul-kredit sharoitlarining yumshatilishi va fiskal rag'batlantirish ta'sirida 2025-yilda YIMning o'sishi 5,5 foizni tashkil etishi kutilmoqda.

3-jadval. O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlarida iqtisodiy o'sish sur'ati va inflyatsiya darajasi

Mamlakatlar	YIM o'sishi, foizda		Inflyatsiya darajasi, foizda	
	2025 kutilma	2026 prognoz	2025 kutilma	2026 prognoz
Rossiya	1,2	0,5-1,5	6,4	4,7
Xitoy	5	5	0,7	0,7
Turkiya	3,5	4,5	25-29	16
Qozog'iston	5,5-6,5	5,5-6,5	11-12,5	9,5-11,5

Shuningdek, 2025-2026-yillar uchun XVJ tomonidan tayyorlangan O'zbekistonning iqtisodiy o'sish prognozlariga ko'ra, 2025-yilda YIMning o'sishi 6,8 foiz va 2026-yilda 6 foiz atrofida bo'lishi prognoz qilingan.

4-jadval. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha xalqaro tashkilotlar prognozi va milliy prognozlar, foizda

		2025	2026	2027	2028
OTB	YIM o'sishi	6,6	6,7	x	x
	Inflyatsiya	8,0	7,0	x	x
JB	YIM o'sishi	5,9	5,9	5,8	x
	Inflyatsiya	x	x	x	x
XVJ	YIM o'sishi	6,8	6,0	5,7	5,7
	Inflyatsiya	8,5	6,5	5,0	5,0
Milliy prognoz	YIM o'sishi	7	6,6	6,8	6,9
	Inflyatsiya	7,8-7,9	7,0	5-6	5,0

2.3. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari

2030-yilga qadar YIMning yillik o'sishini kamida 6,5–7 foiz hamda uning hajmini 200 mlrd AQSH dollaridan oshirish, shuningdek joriy makroiqtisodiy tendensiyalarning o'zgarishlaridan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining 2026–2028-yillar uchun asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining dastlabki prognozlari hamda uning asosiy iqtisodiy shartlari ishlab chiqildi.

Bunda, iqtisodiy o'sish sur'atlarini 2026-yilda 6,6 foiz, 2027-yilda 6,8 foiz va 2028-yilda 6,9 foiz darajasida prognoz qilinmoqda.

5-jadval. Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozlari

	Ijro		Kutilma	Fiskal strategiya	Prognoz	Mo'ljal	
	2023	2024	2025	2026	2026	2027	2028
YIM, trln so'm	1 204	1 455	1 721	1 957	1 976	2 256	2 576
YIM o'sish sur'ati, foizda	6,3	6,5	7,0	6,1	6,6	6,8	6,9
Sanoat mahsulotlarining o'sish sur'ati, foizda	6,3	6,5	6,7	6,3	6,4	6,7	6,9
Qurilish ishlarining o'sish sur'ati, foizda	7,0	8,8	12,7	10,2	10,2	8,3	8,0
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklarida ishlab chiqarishning o'sish sur'ati, foizda	4,1	3,1	4,1	4,2	4,2	4,3	4,3
Bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, foizda	14,1	14,2	13,3-15,4	13,6	14,5	14,3	14,4

III. Konsolidatsiyalashgan budget prognozlari

Konsolidatsiyalashgan budgetning 2025-yil oxirigacha kutilmalari hamda 2026–2028-yillar uchun prognozlari asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning **aniqlashtirilgan prognozlari**dan kelib chiqib hamda **umumiy fiskal balans** miqdori YIMga nisbatan **3 foizlik taqchilik doirasida qayta shakllantirildi**.

Bunda 2025-yil oxirigacha konsolidatsiyalashgan budget daromadlari 476,5 trln so'mni (*tasdiqlangan budgetga nisbatan o'sish 10,6 foiz*) hamda xarajatlari 528,6 trln so'mni (*tasdiqlangan budgetga nisbatan o'sish 10 foiz*) tashkil etishi kutilmoqda.


Davlat budgeti hamda DMJ budgetlari daromadlari va xarajatlarining, shuningdek, TTJning tushumlari va xarajatlarining 2025-yil oxiriga qadar kutilayotgan ijrosi bo'yicha to'liqroq ma'lumotlar bilan mazkur Budgetnomada keltirilgan jadval va diagrammalarda tanishish mumkin.

Soliq ma'murchiligini yaxshilash, daromadlar bazasini yanada kengaytirish hamda ayrim soliq-bojxona imtiyoz va preferensiyalarini bekor qilish bo'yicha choralar ko'rilishi natijasida 2026–2028-yillarda **konsolidatsiyalashgan budget daromadlari** YIMning 26 foiz atrofida shakllanishi prognoz qilinmoqda.

Shuningdek, 2026-yilda konsolidatsiyalashgan budget xarajatlari YIMga nisbatan 28,7 foiz hamda davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun depozitlar va ssudalar YIMga nisbatan 0,4 foiz miqdorida prognoz qilinmoqda.

Bunda 2026-yilda konsolidatsiyalashgan budget daromadlari 515,4 trln so'm (*daromadlarning Fiskal strategiyada belgilangan prognozdan 1 foizga ko'p*) va xarajatlari 567 trln so'm (*Fiskal strategiyadagi prognozdan 0,3 foizga kam*), shuningdek davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun depozitlar va ssudalar 8,2 trln so'm miqdorida prognoz qilingan.

2027–2028-yillar uchun mo'ljallarga global va ichki shoklarning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sirini yumshatish, jumladan, aholi daromadlarini oshirish, kambag'allikni yanada qisqartirish, davlat tomonidan tadbirkorlarni va aholini qo'shimcha qo'llab-quvvatlash kabi ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni moliyalashtirish zaruriyatidan kelib chiqib, aniqlik kiritilishi mumkin.

3-diagramma. Konsolidatsiyalashgan budjet tarkibi

Izoh: Davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun budjetdan ajratiladigan depozit va ssudalar inobatga olinmagan.

6-jadval. Konsolidatsiyalashgan budjet parametrlari, trln so'm

	Ijro		Kutilma	Fiskal strategiya	Prognoz	Mo'ljal	
	2023	2024	2025	2026	2026	2027	2028
Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari	321,9	381,4	476,5	509,8	515,4	585	663,2
Davlat budjeti	231,7	274,4	345,2	372,4	368,9	425,5	486,2
DMJ*	47	55,2	67,4	73,8	78,2	87,5	101,5
TTJ	11,3	16	21,3	23,7	24,3	25,4	26,6
Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari	32,4	36,5	42,5	39,9	44	46,6	48,9
Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari	381	429,3	528,6	568,6	567	644,5	732,6
Davlat budjeti	281,1	310,9	388,9	408,9	402,4	460,7	527,9
DMJ*	43,3	50,2	64,3	71,1	73,9	85,5	97,4
TTJ	36,9	20,4	21,5	23,7	24,3	25,4	26,6
Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari	31,2	34,7	40,3	39,9	44	46,6	48,9
Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar	9,3	15	15,9	25	22,4	26,4	31,7
DMJga transfertlar	31	34,9	57,7	61	73,6	75,7	78,8
Davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun depozitlar va ssudalar	13,9	27,1	22,7	x	8,2	8,9	8,8
Umumiy fiskal balans**	-59,2	-47,8	-52,1	-58,8	-59,9	-68,4	-78,1

6-jadval (davomi). Konsolidatsiyalashgan budjet parametrlari, YIMga nisbatan foizda

	Ijro		Kutilma	Fiskal strategiya	Prognoz	Mo'ljal	
	2023	2024	2025	2026	2026	2027	2028
Konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari	26,7	26,2	27,7	26,1	26,1	26	25,7
Davlat budjeti	19,2	18,9	20,1	19,1	18,7	18,9	18,9
DMJ*	3,9	3,8	3,9	3,8	4	3,9	3,9
TTJ	0,9	1,1	1,2	1,2	1,2	1,1	1
Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari	2,7	2,5	2,5	2	2,2	2,1	1,9
Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari	31,6	29,5	30,7	29,1	28,7	28,6	28,4
Davlat budjeti	23,3	21,4	22,6	20,9	20,4	20,4	20,5
DMJ*	3,6	3,4	3,7	3,6	3,7	3,8	3,8
TTJ	3,1	1,4	1,3	1,2	1,2	1,1	1
Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari	2,6	2,4	2,3	2	2,2	2,1	1,9
Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlar	0,8	1	0,9	1,3	1,1	1,2	1,2
DMJga transfertlar	2,6	2,4	3,4	3,1	3,7	3,4	3,1
Davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun depozitlar va ssudalar	1,2	1,3	1,3	x	0,4	0,4	0,3
Umumiy fiskal balans**	-4,9	-3,3	-3	-3	-3	-3	-3
<i>Davlat budjetining birlamchi taqchilligi</i>	<i>-3,2</i>	<i>-1,2</i>	<i>-1,2</i>	<i>-0,4</i>	<i>-0,2</i>	<i>-0,1</i>	<i>-0,1</i>

* Transfertilarsiz

** 2023–2025-yillarda taqchillik konsolidatsiyalashgan budjet balansi asosida aniqlangan, 2026-yildan boshlab **umumiy fiskal balans** qoidasi asosida hisoblanmoqda.

2026-yil uchun aniqlashtirilgan prognozlarning Fiskal strategiyada belgilangan 2026-yil uchun dastlabki budjet ko'rsatkichlaridan asosiy farqi.

Daromadlar farqining asosiy sabablari:

- Davlat budjeti daromadlari aniqlashtirilishi (-3,5 trln so'm);
- DMJ daromadlari prognozlarning aniqlashtirilishi, shuningdek, ularning tarkibiga Farmatsevtika tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, Ijtimoiy sug'urta hamda Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armalari kiritilishi (+4,4 trln so'm);
- TTJ tushumlarining aniqlashtirilishi (+0,6 trln so'm);
- budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalariga tushumlarning aniqlashtirilishi (+4,1 trln so'm).

Xarajatlar farqining asosiy sabablari:

- Davlat budjeti xarajatlari prognozlarning aniqlashtirilishi (-6,5 trln so'm);

- DMJ xarajatlari prognozlarining aniqlashtirilishi, shuningdek, ularning tarkibiga Farmatsevtika tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, Ijtimoiy sug'urta hamda Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armalari kiritilishi (+2,8 trln so'm);

- TTJ xarajatlarining aniqlashtirilishi (+0,6 trln so'm);

- Tashqi qarz hisobidan davlat dasturlariga xarajatlarning aniqlashtirilishi (-2,6 trln so'm);

- budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari xarajatlarining aniqlashtirilishi (+4,1 trln so'm).

Shuningdek, DMJga transfertlarning oshishi, asosan 2026-yildan boshlab Andijon, Jizzax, Namangan, Surxondaryo, Toshkent va Farg'ona viloyatlaridagi tibbiyot muassasalari to'liq davlat tibbiy sug'urta tizimi bilan qamrab olinishi natijasida Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasiga budjetdan transfertlarning oshishi (+11,1 trln so'm) bilan izohlanadi.

Budjet taqchilligi va budjet oldidagi boshqa majburiyatlar hamda uni moliyalashtirish manbalari.

Soliq ma'murchiligini yaxshilash bo'yicha ko'rilgan choralar natijasida 2024-yilda Davlat budjeti daromadlarining tasdiqlangan budjetga nisbatan oshishi, moliya yili davomida samarasiz xarajatlarning optimallashtirilishi natijasida budjet taqchilligi tasdiqlangan ko'rsatkichga nisbatan 0,7 foiz bandga past (*YIMning 3,3 foizi*) bajarilishiga erishildi.

Joriy yilda va kelgusi o'rta muddatda budjet taqchilligini tasdiqlangan miqdorda saqlash bo'yicha barcha choralar ko'riladi. Jumladan, xarajatlar samaradorligini o'rganib borish, subsidiyalar miqdorlarini kamaytirish, joriy yilda kelib chiqadigan qo'shimcha xarajatlarni tartibga solish, TTJ taqchilligiga yo'l qo'ymaslik kabi ta'sirchan choralar amalga oshiriladi.

2026–2028-yillar uchun **umumiy fiskal balans** (depozit va ssudalarni inobatga olgan holda) **YIMga nisbatan 3 foizlik taqchillik chegarasida** shakllantirildi.

Bundan tashqari, Hukumat tomonidan soliq-budjet intizomini kuchaytirish bo'yicha amalga oshirilayotgan choralar natijasida budjetning **birlamchi taqchilligi** 2026-yilda 2023-yilgi YIMga nisbatan 3,2 foizdan 0,2 foizgacha, **2027–2028-yillarda esa** 0,1 foizgacha pasayishi prognoz qilinmoqda.

2026–2028-yillarda budget taqchilligi, shuningdek, davlat qarzining asosiy qismini qaytarish xarajatlarini 7-jadvalda ko'rsatilgan manbalar hisobidan qoplash rejalashtirilgan.

7-jadval. Budget majburiyatlarini moliyalashtirish manbalari, *trln so'm*

	2024	2025*	2026	2027	2028
Ichki qarz**	38,4	38	30	30	30
Tashqi qarz	26,2	25,2	31,8	33	34,3
Davlat aktivlarini xususiylashtirish hisobidan tushumlar	5,4	10	12	14	15
Budget ssudalarining qaytishi, respublika budgetining, DMJ budgetlarining va budgetdan tashqari jamg'armalarning qoldiq mablag'lari hamda boshqa manbalar	21,2	35,4	12,9	16,3	39,4


* 2025-yil yakuni bilan kutilayotgan ijro.

** Davlat g'aznachilik obligatsiyalarini chiqarishdan respublika budgetiga haqiqatda tushadigan tushumlar.

8-jadval. Konsolidatsiyalashgan budget ko'rsatkichlari milliy prognozining xalqaro tashkilotlar prognozlari bilan taqqoslama jadvali, *YIMga nisbatan foizda*.

		2023	2024	2025	2026	2027	2028
JB⁷	Daromadlar	25,9	25,9	25,6	25,8	25,7	x
	Xarajatlar	31,5	29,2	28,6	28,8	28,7	x
	Fiskal balans	-5,5	-3,3	-3	-3	-3	x
XVJ⁸	Daromadlar	26,7	26,5	26,3	26,4	x	x
	Xarajatlar	31,6	29,7	29,3	29,4	x	x
	Fiskal balans	-4,9	-3,2	-3	-3	x	x
Milliy prognoz	Daromadlar	26,7	26,2	27,7	26,1	26	25,7
	Xarajatlar	31,6	29,5	30,7	29,1	29	28,7
	Fiskal balans	-4,9	-3,3	-3	-3	-3	-3

4-diagramma. O'zbekiston Respublikasi va ayrim xorijiy davlatlar budget xarajatlari tarkibi, *jamiga nisbatan foizda*⁹



Izoh: Yevropa Ittifoqi davlatlarining 2022-yilgi, Qirg'iziston Respublikasining 2025-yilgi hamda O'zbekiston Respublikasining 2026-yilgi ma'lumotlaridan foydalanildi.

⁷ https://www.worldbank.org/en/publication/macro-poverty-outlook/mpo_eca

⁸ <https://www.imf.org/en/News/Articles/2025/04/23/mcs-042325-uzbekistan-staff-concluding-statement-of-the-2025-article-iv-mission>

⁹ <https://minfin.kg/storage/files/shares/Post/Post-1439/documents/996910706d267dac65f49d8f1657c4bd.pdf>
https://ec.europa.eu/eurostat/databrowser/view/gov_10a_exp/default/table?lang=en

3.1. Davlat budjeti daromadlari prognozlari va tahlillari

3.1.1. Davlat budjeti daromadlarining 2025-yil kutilayotgan ijrosi

2025-yil Davlat budjeti daromadlari soliq-bojxona siyosatining quyidagi o'zgarishlari asosida ijro qilinmoqda:

– 2025-yil 1-yanvardan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) elektron savdosini amalga oshiruvchilar uchun foyda solig'i 10 foiz (2024-yilda 7,5 foiz) va aylanmadan olinadigan soliq 3 foiz (2 foiz) etib belgilanganligi;

– tabiiy gazga aksiz solig'i stavkasi 20 foizdan 12 foizgacha pasaytirilib, mahalliy va import qilinadigan tabiiy gaz uchun bixillashtirilganligi;

– aroq, konyak va tarkibida spirt hajmi yuqori bo'lgan boshqa alkohol mahsulotlariga aksiz solig'i stavkasi 9 foizga indeksatsiya qilinganligi;

– resurs soliqlari stavkalarining indeksatsiya qilinishi va xalq deputatlari Kengashlariga berilgan vakolatlar kengayishi natijalari o'z aksini topgan.

Soliq-bojxona siyosatida ko'zda tutilgan tadbirlar va boshqa iqtisodiy omillar natijasida respublikada asosiy soliq to'lovchilari soni quyidagicha o'zgardi.

9-jadval. Respublika bo'yicha soliq to'lovchilar soni


	2024-yil 1-iyul	2025-yil 1-iyul	Farqi
1. Asosiy soliq turlari bo'yicha to'lovchilar soni (birlik)			
Foyda solig'i	222 758	230 423	7 665
Aylanmadan olinadigan soliq*	344 212	331 934	-12 278
QQS	222 758	230 423	7 665
Aksiz solig'i	4 236	4 538	302
Yer qa'ridan foydalanilganlik uchun soliq	1 565	1 626	61
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	156 467	159 539	3 072
Yuridik shaxslar mol-mulk solig'i	77 733	82 563	4 830
Yuridik shaxslar yer solig'i	187 290	187 801	511
2. Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar soni (ming nafar)			
Daromad solig'i (qat'iy belgilangan daromad solig'i to'lovchi YTT bilan birga)	6 032	6 059	27
Mol-mulk solig'i	6 812	6 932	120
Yer solig'i	5 819	5 884	65

*2025-yil 1-apreldan boshlab, aylanma solig'i to'lovchisi bo'lgan dorixonalar va tibbiy xizmat ko'rsatuvchi korxonalar QQS to'lovchisiga aylangan.

2025-yilda Davlat budjeti daromadlari prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan 11,9 foizga oshib, haqiqatda ijrosi 345,2 trln so'm bo'lishi kutilmoqda. Bu o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 70,8 trln so'mga yoki 25,8 foizga ko'p.

Soliq qo'mitasi tomonidan undiriladigan daromadlar 237,7 trln so'mni (*prognoz 223,9 trln so'm*), jumladan, hududiy soliq idoralari tomonidan undiriladigan daromadlar 98,4 trln so'mni tashkil qilishi kutilmoqda. Bojxona qo'mitasi bo'yicha 74,3 trln so'm mablag' budjetga undirilishi kutilmoqda (*prognoz 73,9 trln so'm*).

5-diagramma. 2024-2025-yillarda Davlat budjeti daromadlari tuzilmasi, trln so'm



Bevosita soliqlar

Bevosita soliqlar bo'yicha tushumlar **112,9 trln so'm** bo'lishi kutilmoqda. Bu o'tgan yilgi shu turdagi daromadlarga nisbatan 22 trln so'mga yoki 24,2 foizga ko'p. 2025-yilda bevosita soliqlar Davlat budjeti daromadlarining 32,7 foizini (*2024-yilda 33,1 foiz*) tashkil qilishi kutilmoqda.


Foyda solig'i bo'yicha tushumlar **68,3 trln so'm** bo'lishi kutilmoqda. Bu o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 15,6 trln so'mga yoki 29,7 foizga ko'p.

Mazkur soliq turi bo'yicha tushumlarning o'sishiga eksport tovar va xizmatlarini eksport qilishdan olingan daromadlarga nisbatan berilgan foyda solig'i bo'yicha imtiyozlar bekor qilinganligi (*o'tgan yilga nisbatan qo'shimcha 950 mlrd so'm*) ham ta'sir ko'rsatdi.

Hududiy soliq to'lovchilar tomonidan foyda solig'i tushumlari ham o'sishi kuzatilmoqda. Xususan, 2024-yilda hududiy soliq idoralari nazoratidagi to'lovchilardan 7,2 trln so'm undirilgan bo'lsa, 2025-yilda 3,8 trln so'mga o'sib 11,0 trln so'm tushum kutilmoqda.

Misol uchun, Toshkent shahrida yangi ochilgan 18 ta to'lovchilardan 2,5 trln so'm tushum undirilishi kutilmoqda.

6-diagramma. Bevosita soliqlar tuzilmasi, trln so'm



Aholi daromadlarining oshishi, legalizatsiya bo'yicha olib borilayotgan faoliyat samaralari sifatida, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlar **41,4 trln so'm** bo'lishi kutilmoqda. Bu o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 6 trln so'mga yoki 17 foizga ko'p.

Ushbu soliq bo'yicha tushumlarning 50 foizi tuman va shaharlar budjetlarida qoldirildi (2024-yilda 20-25 foiz).

Bundan tashqari, joriy yilning 1-aprelidan soliq idoralariga to'lovchilarning ishchilar sonini, nazorat-kassa mashinasini qo'llash holatlarini tekshirish kabi ayrim vakolatlar berildi.

Joylardagi xalq deputatlari Kengashlariga yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qat'iy stavkalarini belgilash hamda ijaraning eng kam miqdorlariga oshiruvchi koeffitsiyent qo'llash vakolatlari berilganligi natijasida 2024-yilga nisbatan 110 mlrd so'm qo'shimcha mablag'lar tushishi kutilmoqda.

Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha tushumlar **3,2 trln so'm** bo'lishi kutilmoqda. Bu o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 358 mlrd so'mga yoki 12,7 foizga ko'p. Bundan tashqari, joriy yilning 1-aprelidan boshlab, 10 415 ta aylanma solig'i to'lovchisi bo'lgan dorixonalar va tibbiy xizmat ko'rsatuvchi korxonalar QQS to'lovchisiga aylandi va buning natijasida 45,5 mlrd so'm tushumlar mazkur soliq bo'yicha kamayib, boshqa daromadlarning ko'payishiga olib keldi.

2025-yil 1-yanvardan boshlab aylanmadan olinadigan soliqning qat'iy stavkalarini tovar aylanmasi yiliga **500 mln so'mgacha** bo'lgan tadbirkorlar uchun (2024-yilda 25 mln so'm) **30 mln so'm**, tovar aylanmasi **500 mln so'mdan 1 mlrd so'mgacha** bo'lgan tadbirkorlar uchun (2024-yilda 34 mln so'm) **40 mln so'm** miqdorida belgilanishi hisobiga **105 mlrd so'm** qo'shimcha tushum tushishi hisob-kitob qilinmoqda.

Bilvosita soliqlar

Bilvosita soliqlar bo'yicha tushumlar **106,9 trln so'm** bo'lishi kutilmoqda. Bu o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 18,6 trln so'mga yoki 21 foizga ko'p.


2025 yilda bilvosita soliqlar Davlat budjeti umumiy daromadlarining **31 foizini** tashkil qilishi kutilmoqda (2024-yilda 32,2 foiz).

QQS bo'yicha tushumlar **74,2 trln so'm** bo'lishi kutilmoqda. Bu o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 14,9 trln so'mga yoki 25,1 foizga ko'p.

Soliq organlari tomonidan **43,6 trln so'm** (2024-yilning mos davriga nisbatan 10,2 foizga ko'p), bojxona organlari tomonidan **57 trln so'm** (2024-yilning mos davriga nisbatan 16,2 foizga ko'p) QQS bo'yicha tushumlar undirilishi ta'minlandi.

2025-yil 1-iyul holatiga QQS to'lovchilar soni **230,4 mingta** subyektni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **7,7 mingta** oshdi.

7-diagramma. QQS tushumlari, trln so'm



Tarmoqlar kesimida QQS tushumlari sanoatda 18,4 trln so'mni (2024-yilga nisbatan 12,3 foizga ko'p), xizmatlar sohasida 19,9 trln so'mni (+16,0 foiz) tashkil qilishi hisob-kitob qilinmoqda.

2025-yilda tadbirkorlik subyektlari tomonidan hisobga (zachyotga) olingan hamda tegishli tartibda budjetdan qaytarib (qoplab) beriladigan QQS summasi **26,4 trln so'mni** (2024-yilda - 29,3 trln so'm) tashkil etishi kutilmoqda.

Xususan, tog'-kon va metallurgiya sohasidagi korxonalarga 4,6 trln so'm (2024-yilda 4,8 trln so'm), elektr energetika korxonalariga 1,8 trln so'm (3,3 trln so'm), yoqilg'i energetika kompleksi korxonalariga 200 mlrd so'm (2,3 trln so'm) hamda oziq-ovqat va nooziq-ovqat sanoati korxonalariga 1,3 trln so'm (1,6 trln so'm) QQS qoplab berilishi kutilmoqda.

Tovar aylanmasidan qat'i nazar dorixonalar va tibbiy xizmat ko'rsatuvchilar QQS to'lovchi toifasiga o'tkazilishi hisobiga joriy yilda qo'shimcha 100 mlrd so'm tushum kutilmoqda.

Misol uchun, Toshkent shahrida 1 397 ta to'lovchi hisobiga 15 mlrd so'm, Farg'ona viloyatida 1 116 ta to'lovchi hisobiga 6 mlrd so'm, Samarqand viloyatida 1 137 ta to'lovchi hisobiga 6,5 mlrd so'm qo'shimcha tushum kutilmoqda.

Umumiy ovqatlanish korxonalari, turoperatorlar, mehmonxonalar, chorvachilik va parrandachilik sohasidagi to'lovchilarga ular tomonidan to'langan QQSning bir qismini qaytarish tartibining amaldagi ifodasi sifatida **815 ta** to'lovchiga **65 mlrd so'm** qismi "keshbek" sifatida qaytarilmoqda.

Aksiz solig'i bo'yicha tushumlar **21,3 trln so'm** bo'lishi kutilmoqda. Bu o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 2,3 trln so'mga yoki 11,8 foizga ko'p.

2025-yilda:

tamaki, alkogol, neft mahsulotlari va boshqa aksiz to'lanadigan tovarlarga aksiz solig'i stavkasi 10 foizgacha indeksatsiya qilindi (+300 mlrd so'm).

tabiiy gazga aksiz solig'i stavkasi 20 foizdan 12 foizgacha pasaytirilib, mahalliy va import qilinadigan tabiiy gaz uchun bir xil tarzda belgilandi (+400 mlrd so'm).

Shuningdek, mobil aloqa operatorlari uchun aksiz solig'ining bekor qilinishi natijasida to'lovchilar ixtiyorida **1,1 trln so'm** mablag' qoldirildi.


Bojxona bojlari bo'yicha tushumlar **11,5 trln so'm** bo'lishi kutilmoqda. Bu o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 1,5 trln so'mga yoki 14,5 foizga ko'p.

Bojxona daromadlarining oshishi asosan bojxonada yangi axborot dasturlari tubdan yangilangan Xavfni boshqarish tizimi va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, rasmiylashtiruv jarayonining tezlashishi va bojxona ma'muriyatchiligining yangi usullarini joriy etish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar bilan bog'liq.

Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i

Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlar **43,9 trln so'm** bo'lishi kutilmoqda. Bu o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 7,5 trln so'mga yoki 20,7 foizga ko'p.

2025-yilda **resurs soliqlari** va **mol-mulk solig'i** tushumlari Davlat budjeti daromadlarining **12,7 foizini** tashkil qilishi kutilmoqda.

8-diagramma. Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i, trln so'm

Resurs soliqlarining asosiy, ya'ni **57,9 foiz** qismi **yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq**ga to'g'ri keladi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha tushumlar **25,4 trln so'm** bo'lishi kutilmoqda. Bu o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 5,2 trln so'mga yoki 25,9 foizga ko'p.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha tushumlarning o'sishi tog'-kon sanoati korxonalarining asosiy ishlab chiqarish tovari hisoblangan oltin narxining jahon bozorida yuqori narxlarda bo'lishi bilan bog'liq.

Bundan tashqari, **2025-yil 1-yanvardan:**

- 1 kub metr **qum-shag'al** (*shu jumladan, qurilish qumi va qumtoshlar*) qazib olish uchun amaldagi 5 foiz miqdoridagi advalor stavkani bekor qilgan holda **5 ming so'm** etib belgilanganligi;

- 1 kub metr granit va marmar uchun 5 foizlik advalor stavkani saqlab qolgan holda qat'iy belgilangan soliq miqdori 1 kub metr uchun granitga **30 ming so'm, marmarga 20 ming so'm** etib belgilanganligi;

- kon-kimyxo xomashyosi hamda noruda qurilish materiallari guruhidagi boshqa foydali qazilmalar uchun belgilangan qat'iy stavkalar **10 foizga** indeksatsiya qilinganligi ham tushumlar o'sishiga asosiy omillardan biri bo'lmoqda.

Mol-mulk solig'i, yer solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo'yicha tushumlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 trln so'mga yoki 14,1 foizga oshib, **18,5 trln so'm** bo'lishi kutilmoqda.

Tushumlarning o'tgan yilga nisbatan o'sishiga quyidagi asosiy omillar ta'sir ko'rsatdi:

- mol-mulk solig'ini hisoblab chiqarish maqsadida binolar va inshootlarning 1 kv metr uchun mutlaq miqdorda belgilangan eng kam qiymatini o'rtacha 10 foizga indeksatsiya qilinishi;

- xalq deputatlari Kengashlari tomonidan suv solig'i stavkalariga kamaytiruvchi va oshirish koeffitsiyentlarining qo'llanishi;

- 2025-yildan boshlab mahalliy davlat hokimiyati organlariga yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqqa oshiruvchi koeffitsiyentlar qo'llash vakolati berilgani.

Shuningdek, xalq deputatlari Kengashlari tomonidan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yerlar bo'yicha bazaviy soliq stavkasiga nisbatan oshiruvchi koeffitsiyentlar qo'llanishi va stavkaning o'rtacha 10 foizga indeksatsiya qilinishi hisobiga yer solig'idan budjetga tushumlar oshdi.

Boshqa soliqsiz tushumlar

Boshqa soliqsiz tushumlar **81,6 trln so'm** bo'lishi kutilmoqda. Bu o'tgan yilgi daromadlarga nisbatan 22,7 trln so'mga yoki 38,6 foizga ko'p.

2025-yilda boshqa soliqsiz tushumlar Davlat budjeti daromadlarining **23,6 foizini** tashkil qilishi kutilmoqda.

Joriy yilda tog'-kon va metallurgiya sanoati korxonalarining asosiy ishlab chiqarish tovari hisoblangan oltin narxining jahon bozorida yuqori narxlarda bo'lishi foyda solig'i, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va dividend tushumlarining o'sish omillaridan biri bo'ldi.

3.1.2. Davlat budjeti daromadlarining 2026-2028-yillar uchun prognozlari

2026-yil uchun Davlat budjeti daromadlari prognozini ishlab chiqishda 2025-yil Davlat budjeti daromadlari kutilmalari, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, iqtisodiy tarmoqlarning o'sish sur'atlari, tashqi iqtisodiy omillar, asosiy xomashyo resurslarini qazib olish va qayta ishlash hajmlari va ularning jahon bozoridagi narxlari bo'yicha prognozlari, berilgan soliq imtiyozlari hamda 2026–2028-yillarga mo'ljallangan soliq-budget siyosatidagi o'zgarishlar hisobga olingan.

Jumladan:


- inflyatsiya darajasi **7 foiz** bo'lgan holda YIMning **6,6 foizga** o'sishini ta'minlovchi omillar, xususan, daromadlarning salmoqli qismini tashkil qiluvchi asosiy mahsulotlar va aksiz solig'iga tortiladigan tovarlarning ishlab chiqarish hajmlarining o'sishi;

- yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq-bojxona ma'murchiligini takomillashtirish maqsadida sohada raqamlashtirishni jadallashtirish, qurilish sohasida shaffoflikni ta'minlash, naqd pulsiz munosabatlarni ko'paytirish va boshqa yo'nalishlarda islohotlarni amalga oshirish tadbirlari;

- ayrim aksiz, resurs soliqlari va mol-mulkni ijaraga berish bo'yicha eng kam ijara to'lovlarining o'rtacha 7 foizga indeksatsiya qilinishi.

Soliq siyosatida ko'zda tutilayotgan o'zgarishlar hamda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, 2026-yil uchun Davlat budjeti daromadlari **368,9 trln so'm** yoki YIMga nisbatan **18,7 foiz** miqdorida prognoz qilinmoqda.

9-diagramma. 2026-yil Davlat budjeti daromadlari, trln so'm



Bevosita soliqlar

Bevosita soliqlar bo'yicha tushumlar **116,3 trln** so'm yoki YIMga nisbatan 5,9 foiz bo'lishi prognoz qilinmoqda.

2026-yilda **bevosita soliqlar** Davlat budjeti daromadlari prognozining **31,5 foizini** tashkil etadi.

Foyda solig'i bo'yicha tushumlar **64,5 trln** so'm yoki YIMga nisbatan 3,3 foiz bo'lishi prognoz qilinmoqda.

Mazkur soliq turi prognozini hisob-kitob qilishda aylanmadan olinadigan soliq to'lovchilar QQS to'lovchisiga aylanganda 1 yil davomida foyda solig'idan ozod etilishi va bo'nak to'lovlarini to'lash tartibini qo'llashning chegaraviy miqdorlarining oshirilishi ko'zda tutilgan.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i bo'yicha tushumlar **49 trln** so'm yoki YIMga nisbatan 2,5 foiz bo'lishi prognoz qilinmoqda.

Bunda mehnatga haq to'lash jamg'armasining o'sishi, legalizatsiya qilish tadbirlari hisobiga qo'shimcha **2,3 trln so'm** daromad hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning qat'iy belgilangan daromad solig'ining bekor qilinishi ko'zda tutilmoqda.

Aylanmadan olinadigan soliq bo'yicha tushumlar **2,8 trln** so'm bo'lishi prognoz qilinmoqda.

Aylanmadan olinadigan soliqni prognoz qilishda qat'iy belgilangan stavkalarining bekor qilinishi hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun 1 foizlik stavka belgilanishi (*1,2 trln so'm*) bo'yicha daromadlarning yo'qotilishi hamda o'zini o'zi band qilgan shaxslarning 1 foiz miqdorida aylanma soliqqa tortilishi va soliq ma'murchiligini yaxshilash va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish orqali qo'shimcha manbalar jalb qilinishi (*0,2 trln so'm*) inobatga olingan.

Bilvosita soliqlar

Bilvosita soliqlar bo'yicha tushumlar **124,6 trln** so'm yoki YIMga nisbatan 6,3 foiz bo'lishi prognoz qilinmoqda.

2026-yilda **bilvosita soliqlar** Davlat budjeti daromadlarning asosiy qismini tashkil qilib, umumiy daromadlar prognozining **33,8 foizini** tashkil etadi.

QQS bo'yicha tushumlar **88,9 trln** so'm YIMga nisbatan 4,5 foiz bo'lishi prognoz qilinmoqda.

Shu bilan birga, soliq to'lovchilarga QQSning **33,3 trln so'mini** (*jami QQS bo'yicha yig'iladigan mablag'larning 27,2 foizi*) qaytarib berish prognoz qilingan.

Mazkur soliq bo'yicha prognozni hisob-kitob qilishda iqtisodiy o'sish natijasida korxonalar faolligining oshishi, soliq ma'murchiligini yaxshilash va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish, QQS to'loviga o'tadigan korxonalarning ortishi (*6 trln so'm*), yangi aylanma solig'idan QQSga o'tgan korxona hisobchilarining oylik ish haqini QQS dan chegirish, import hajmining oshishi bo'yicha qo'shimcha daromadlar hamda aylanmadan olinadigan soliqdan ilk marta QQSga o'tganlar uchun yengilliklar taqdim etish, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari realizatsiyasi uchun QQS ning "nol" stavkasini joriy etish bo'yicha yo'qotishlar inobatga olingan.

Aksiz solig'i bo'yicha tushumlar **22,8 trln so'm** (YIMga nisbatan 1,2 foiz) bo'lishi prognoz qilinmoqda.

Prognozni hisoblashda energoresurslar tarifining ortishi (*250 mlrd so'm*), kartoshka chipsi mahsuloti uchun va sirop konsentrati uchun aksiz solig'ining joriy etilishi (*88 mlrd so'm*), tarkibida shakar yoki shirinlashtiruvchi modda mavjud bo'lgan ichimliklar uchun tarkibidagi shakar moddasining miqdoridan kelib chiqib aksiz solig'ining progressiv stavkasining joriy qilinishi (*95 mlrd so'm*), tamaki, alkogol va neft mahsulotlari uchun aksiz solig'i stavkalarini indeksatsiya qilish (*810 mlrd so'm*) bilan birga JST talablari asosida mahalliy va import tovarlari uchun stavkalarining birxillashtirilishi ko'zda tutilgan.

Bojxona bojlari bo'yicha tushumlar **12,9 trln so'm** (YIMga nisbatan 0,7 foiz) bo'lishi prognoz qilinmoqda.

Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i

Resurs soliqlari va mol-mulk solig'i bo'yicha tushumlar **45,8 trln** (YIMga nisbatan 2,3 foiz) bo'lishi prognoz qilinmoqda.

2026-yilda **resurs soliqlari va mol-mulk solig'i** Davlat budjeti daromadlari prognozining **12,4 foizini** tashkil etadi.

Prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra, resurs soliqlarining asosiy, ya'ni **53,9 foiz** qismi **yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqqa** to'g'ri keladi va ushbu soliqdan tushumlar **24,7 trln so'm**, **mol-mulk solig'i**, **yer solig'i** va **suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq** bo'yicha tushumlar **21,1 trln so'm** bo'lishi prognoz qilinmoqda.

Resurs soliqlarini prognoz qilishda yer, mol-mulk, suv resurslari hamda yer qa'ridan foydalanganlik uchun belgilangan qat'iy soliq stavkalarini o'rtacha 7 foizga indeksatsiya qilish (1,1 trln so'm) inobatga olingan.

Davlat budjeti daromadlarining 2027-2028-yillarga mo'ljallari.

2027-2028-yillar uchun Davlat budjeti daromadlari mo'ljallari asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozidan va soliq-bojxona siyosatidagi ko'zda tutilayotgan o'zgarishlardan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

Ko'zda tutilayotgan o'zgarishlar, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlaridan kelib chiqib, 2027-yil uchun Davlat budjeti daromadlari mo'ljallari **425,5 trln so'm**, 2028-yilda **486,2 trln so'm** miqdorida belgilanmoqda.

10-jadval. Davlat budjeti daromadlari prognozi va mo'ljallari, trln so'm

Soliq turlari	2026-yil prognoz	2027-yil mo'ljal	2028-yil mo'ljal
Davlat budjeti daromadlari, jami	368,9	425,5	486,2
Bevosita soliqlar	116,3	138,7	158,0
Bilvosita soliqlar	124,6	144,5	169,2
Resurs soliqlari	45,8	52,8	59,5
Boshqa daromadlar	82,2	89,6	99,5

3.2. Davlat budjeti xarajatlarining prognozlari va tahlili

2024-yilning 4-choragida va 2025-yilning o'tgan davri mobaynida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari bilan tasdiqlangan dastur va tadbirlar uchun qo'shimcha xarajatlarning kelib chiqishi natijasida 2025-yilgi Davlat budjeti xarajatlari konsolidatsiyalashgan budget taqchilligining cheklangan miqdori doirasida qayta ko'rib chiqildi.

Jumladan, joriy yil oxirigacha Davlat budjeti xarajatlari tasdiqlangan parametrga nisbatan 12,8 foizga oshib, 388,9 trln so'mni tashkil etishi kutilmoqda.

Joriy moliya yili uchun tasdiqlangan parametrning o'zgarishi asosan **ish haqi, pensiya va nafaqalarning** dastlab rejalashtirilgan muddatdan oldin hamda miqdorlardan ortiq oshirilishi, yoqilg'i-energetika sohasida bozor mexanizmlarini joriy etishda **ehtiyojmand aholini davlat tomonidan qo'shimcha qo'llab-quvvatlash**, "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish, hududlardagi dolzarb ijtimoiy va infratuzilma bilan bog'liq muammolarni hal etishga hamda boshqa muhim ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar uchun, jumladan, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalarini yanada qo'llab-quvvatlash, energiya sarfini kamaytirish va yashil energiya manbalaridan foydalanishni rag'batlantirish choralariga qo'shimcha mablag'lar ajratilishi bilan izohlanadi.

Davlat budjeti jami xarajatlari 2026-yilda YIMga nisbatan 2023-yilgi 23,3 foizdan 20,4 foizgacha pasayishi va 2027-2028-yillarda YIMga nisbatan 20,5 foiz atrofida prognoz qilinmoqda. Bunda 2026-yilda Davlat budjeti xarajatlari 2025-yil uchun kutilayotgan ijroga nisbatan 3,5 foiz ko'p yoki 402,4 trln so'm miqdorida prognoz qilingan.

11-jadval. Davlat budjeti xarajatlarining budget darajalari bo'yicha tahlili, trln so'm

	Ijro		Parametr	Prognoz	Mo'ljal	
	2023	2024	2025	2026	2027	2028
Davlat budjeti	281,1	310,9	344,8	402,4	460,7	527,9
Respublika budjeti	179,4	224,1	263,2	308,4	365,3	424,4
Mahalliy budjetlar*	101,7	86,8	81,6	94	95,4	103,5

Izoh:


* - Mahalliy budjetlar hisobidan so'ndiriladigan davlat qarziga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni inobatga olmagan holda.

2026-yildan MTTLar va umumta'lim tashkilotlari hamda ixtisoslashtirilgan maktablarni qurish-ta'mirlash, shuningdek akademik litseylarni saqlash xarajatlari mahalliy budjetlarga o'tkazilmoqda.

3.2.1. Xarajatlarning vazifa jihatidan tasnif bo'yicha prognozlari

Vazifa jihatidan tasnif bo'yicha Davlat budjeti xarajatlari avvalgi yillardan farqli ravishda, XVJning GFS-2014 standartiga muvofiq ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi xarajatlari hamda ijtimoiy ta'sirga ega bo'lgan energetika va jamoat transportida o'rnatiladigan past tariflar bilan bog'liq budjet subsidiyalari tegishli sohalar tarkibida aks ettirilgan.

10-diagramma. Davlat budjeti xarajatlari tarkibi



Izoh: 2025-yil – kutilayotgan ijro

12-jadval. Davlat budjeti xarajatlarining vazifa tasnifi bo'yicha tahlili, trln so'm

		Ijro		Kutilma	Prognoz	Mo'ljal	
		2023	2024	2025	2026	2027	2028
	Xarajatlar, jami	281,1	310,9	388,9	402,4	460,7	527,9
	<i>shundan, markazlashgan investitsiya</i>	<i>17,4</i>	<i>19,7</i>	<i>20,7</i>	<i>18,5</i>	<i>22,1</i>	<i>25,1</i>
1	Ijtimoiy soha, shundan:	163,3	174,4	205,8	220	256,2	293,9
	Ta'lim	65,4	77,2	92,2	100,3	121,7	141,2
	Sog'liqni saqlash	32,4	37,6	43,9	48,9	55,6	63,7
	Madaniyat	3,1	3,3	4,3	4,4	4,9	5,2
	Sport	3	3,7	4	3,7	4	4,3
	Fan	1,8	2,1	2,2	2,4	2,8	3
	Nafaqalar, moddiy yordam va aholiga boshqa imtiyozli to'lovlar	19,2	15,3	16,8	17	19,1	21,8
	Aholiga past tariflar qo'llash hisobiga energetika va transport korxonalariga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	20,9	15,3	15,6	13,4	13,3	13,1
	Aholi bandligi va farovonligini oshirish xarajatlari	2,7	1,7	2,7	2,4	3,8	3,9
	Pensiya jamg'armasiga transfertlar	13,8	16,3	20,2	23	20	18
	Ipoteka krediti bo'yicha subsidiyalar	1,1	1,4	2,5	2,7	3	3,3
2	Iqtisodiyot xarajatlari	41,1	40,7	57,9	54,6	60,2	69,1
3	Davlat boshqaruvi va hokimiyati organlari	18,2	20,2	21,1	21,4	23,6	26,7
4	O'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash hamda NNTni qo'llab-quvvatlash	0,6	1,3	1,4	1,5	1,5	1,5
5	Zaxira jamg'armalari	1,7	2,8	3	2,1	2,3	2,5
6	Yer uchastkalarining olib qo'yilishi bilan bog'liq aholi zararlarini qoplash	0,7	0,6	0,7	0,8	0,8	0,8
7	Davlat qarziga xizmat ko'rsatish bo'yicha foiz to'lovlari	8,2	14,5	20	24,6	30,6	35,5
8	Boshqa xarajatlar	47,3	56,6	79	77,5	85,5	97,9


Izoh: Markazlashgan investitsiya xarajatlari har bir soha tarkibida inobatga olingan bo'lib, investitsiya xarajatlarining sohalar bo'yicha yoyilmasi mazkur Budjetnomaning 34-jadvalida keltirilgan.

11-diagramma. Yirik budjet xarajatlari ulushi, foizda

Ta'lim va fan sohasi.

2026-yilda ta'lim va fan sohasi uchun 102,7 trln so'm (2025-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 8,8 foiz ko'p) yoki Davlat budjeti xarajatlarning 25,5 foizi miqdoridagi mablag'lar rejalashtirilmoqda.


2027-2028-yillarda ushbu sohalarga tegishincha 124,4 trln so'm va 144,2 trln so'm mablag' yo'naltirish mo'ljallangan.

12-diagramma. Ta'lim va fan xarajatlari, trln so'm**Maktabgacha va maktab ta'limi sohasi**

2026-yilda Davlat budjetidan **maktabgacha** va **maktab ta'limi sohasi** uchun jami **83,7 trln so'm** yoki Davlat budjeti jami xarajatlarning **20,8 foizini** tashkil etishi prognoz qilingan. Shundan:

davlat **MTTlarni moliyalashtirishga 20 trln so'm** yoki 2025-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 9,1 foizga (2025-yil tasdiqlangan budjetga nisbatan 16,8 foizga ko'p) ko'p;

umumiy o'rta ta'lim xarajatlari uchun **63,7 trln so'm** yoki 2025-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 7,6 foizga (2025-yil tasdiqlangan budjetga nisbatan 13,3 foizga ko'p) ko'p mablag'lar rejalashtirilmoqda.


13-diagramma. Maktabgacha va maktab ta'limi sohasining 2026-yilgi xarajatlari tarkibi, mlrd so'm

Izoh: Oziq-ovqat xarajatlari MTTlar uchun 3 401 mlrd so'm, umumiy o'rta ta'lim uchun 338 mlrd so'm.

13-jadval. Maktabgacha va maktab ta'limi sohasi davlat dasturlari va tadbirlar, *mlrd so'm*

	Ijro	Kutilma	Prognoz	Mo'ljal	
	2024	2025	2026	2027	2028
Jami, shundan:	5 555	6 787	9 362	10 884	12 637
Nodavlat MTTlariga subsidiyalar	3 343	3 810	4 669	6 000	7 500
Umumta'lim maktablarining darsliklarini yangilash	1 173	1 300	1 985	2 000	2 200
Umumta'lim maktablari uchun yangi kompyuter sinflarini xarid qilish xarajatlari	196	200	250	500	500
"Toza qo'llar" dasturi	-	311	221	250	275
1 500 nafar xorijiy o'qituvchilarni jalb qilish	111	210	700	650	650
Yetim bolalarni uy-joy bilan ta'minlash	132	140	140	140	140
"Kambag'al oilalar reyestri"ga kirgan oilalar farzandlari uchun to'garaklar tashkil etish	-	100	100	100	100
Davlat MTTlarini didaktik materiallar bilan ta'minlash	-	40	185	135	135
Maktablarni interaktiv doskalar bilan ta'minlash xarajatlari	-	-	100	100	100
Davlat MTTlarida Face-ID texnologiyasini joriy etish	-	50	50	50	50


Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini oshirish, jumladan, maktabgacha ta'lim xizmatlari nodavlat sektorini yanada rivojlantirish orqali qamrab olingan bolalarning nodavlat maktabgacha ta'limdagi qamrovini oshirish maqsadida 2026-yilda Davlat budjetidan ajratiladigan subsidiya mablag'lari 22,5 foizga oshirilib, 4,7 trln so'm (2025-yilda 3,8 trln so'm) ko'zda tutilmoqda.

14-diagramma. Nodavlat MTTlarga budjetdan ajratiladigan subsidiyalar, *mlrd so'm*

14-jadval. MTTlarning asosiy ko'rsatkichlari

		Ijro	Kutilma	Proqnoz
		2024	2025	2026
I	Jami MTTlar soni, birlik	38 058	38 390	38 942
	Jami tarbiyalanuvchilar soni, <i>ming kishi</i>	2 350	2 428,2	2 525,6
	Jami xodimlar soni, <i>ming kishi</i>	266,9	267,2	271,6
	Jami pedagog xodimlar soni, <i>ming kishi</i>	63,5	65,1	69,9
	Tarbiyachining o'rtacha oylik ish haqi miqdori, <i>mln so'm</i>	3,4	3,7	4,1
III	Davlat MTTlar soni, birlik	6 919	6 941	7 008
	Tarbiyalanuvchilar soni, <i>ming kishi</i>	1 415	1 454,6	1 528,2
	Joriy xarajatlar, <i>trln so'm</i>	10,4	13	14,4
IV	Kapital xarajatlar, trln so'm	1,0	1,5	0,9
V	DXSH asosida MTTlar soni, birlik	1 537	1 551	1 694
	Tarbiyalanuvchilar soni, <i>ming kishi</i>	137,8	152,8	156,4
VI	Oilaviy MTTlar soni, birlik	28 739	29 028	29 318
	Tarbiyalanuvchilar soni, <i>ming kishi</i>	797,2	820,8	841

Davlat MTTlarda sog'lom ovqatlantirishni tashkil etish maqsadida 2026-yilda ovqatlantirish xarajatlari **25 foizga oshirilib**, budjetdan 3,4 trln so'm (2025-yilda 2,7 trln so'm) mablag' ajratilishi rejalashtirilmoqda.


15-diagramma. Davlat MTTlar uchun oziq-ovqat xarajatlariga ajratilayotgan mablag'lar

15-jadval. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining asosiy ko'rsatkichlari

	Ijro	Kutilma	Prognoz
	2024	2025	2026
Jami ajratilgan mablag'lar, trln so'm	49,4	59,2	63,7
shundan, kapital xarajatlar, trln so'm	3,8	4	3,1
Jami tashkilotlar soni, birlik	10 504	10 551	10 599
Umumta'lim maktablar soni	10 050	10 107	10 180
Ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar*	125	115	90
Jismoniy yoki psixik rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlar	95	95	95
Mehribonlik uylari soni	3	3	3
Prezident maktablari soni	14	14	14
Ijod va ixtisoslashtirilgan maktablar soni	217	217	217
O'quvchilar soni (ming kishi)	6 547,1	6 545,8	6 684,8
Umumta'lim maktablarda	6 475,5	6 476,1	6 621,1
Ayrim fanlarga ixtisoslashtirilgan maktab-internatlarda*	57,4	55,4	49,4
Jismoniy yoki psixik rivojlanishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktab-internatlarda	11,8	11,8	11,8
Mehribonlik uylarida	0,2	0,2	0,2
Prezident maktablarida	2,2	2,3	2,3
O'qituvchilar soni, ming kishi	548,1	550,4	558,1
1-toifali o'qituvchining o'rtacha oylik ish haqi miqdori, mln so'm	4,2	4,7	5,1

* – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.04.2022-yildagi PF-106-son Farmoniga asosan 2022/2023 o'quv yilidan boshlab fanlar chuqur o'qitiladigan maktablar hamda maktab-internatlar bosqichma-bosqich umumiy o'rta ta'lim maktablari sifatida qayta tashkil etilishi belgilangan.


16-diagramma. Umumta'lim maktablarini zamonaviy kompyuter sinflari bilan ta'minlash, mlrd so'm



Hozirda umumta'lim maktablarida 15,9 ming kompyuter sinflari mavjud bo'lib, shundan 13,2 ming kompyuter sinflari (*83 foizi*) zamonaviy texnikalar va boshqa vositalar bilan ta'minlangan. Maktablarning zamonaviy texnikalar bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish uchun 2026-yilda budgetdan ajratiladigan mablag'lar joriy yilga nisbatan 50 mlrd so'mga oshirilmoqda.

Shuningdek, mazkur tadbirlar uchun 2026-yil davomida budget imkoniyatlaridan kelib chiqib **qo'shimcha** mablag'lar ajratish choralari ko'riladi.

17-diagramma. Umumta'lim maktablarini darslik, mashq daftari va o'quv metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash xarajatlari, *mlrd so'm*




Umumta'lim maktablarini darslik, mashq daftari va o'quv metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash uchun 2026-yilda **1 985 mlrd so'm** yoki 2025-yilga nisbatan **53 foiz ko'p** mablag'lar yo'naltirish rejalashtirilgan.

Ushbu mablag'lar hisobidan 1-11 sinflar va tayyorlov guruhlariga uchun jami **106,4 mln dona** (*2025-yilga nisbatan 37,4 mln donaga ko'p*) darslik, mashq daftari va o'quv metodik qo'llanmalar bilan ta'minlanadi.

O'rta-maxsus va oliy ta'lim sohasi xarajatlari **16,7 trln so'mni** yoki 2025-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 13,2 foizga ko'p mablag' yo'naltirish rejalashtirilgan.

18-diagramma. Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari xarajatlari tarkibi, *mlrd so'm*.



16-jadval. Oliy va o'rta-maxsus ta'lim sohasidagi asosiy davlat dasturlari va tadbirlar, mlrd so'm

	Ijro	Kutilma	Prognoz	Mo'ljal	
	2024	2025	2026	2027	2028
Jami xarajatlar , shundan:	3 441	3 603	4 177	4 241	4 310
Ta'lim krediti uchun Davlat budjetidan tijorat banklariga maqsadli resurslar*	2 601	2 532	2 000	2 000	2 000
Professional ta'limni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish	-	-	1 300	1 300	1 300
Magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini budjet hisobidan qoplab berish	95	125	125	140	155
Talabalarning oylik ijara to'lovining bir qismini kompensatsiya qilish uchun mablag'lar	136	190	209	220	240
Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash uchun davlat granti asosida 1 200 ta o'rin uchun xarajatlar	102	117	131	144	158

* – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.05.2024-yildagi PF-82-son Farmonida 2024/2025 o'quv yilidan boshlab oliy va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olish uchun ta'lim kreditini faqat kunduzgi ta'lim shaklida o'qiyotgan talaba va o'quvchilarga ajratish belgilangan.

17-jadval. O'rta-maxsus va professional ta'lim muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari

	Ijro	Kutilma	Prognoz
	2024	2025	2026
Akademik litseylar soni, birlik	73	73	73
o'quvchilar soni, <i>ming kishi</i>	26,9	29,9	29,9
o'qituvchilar soni, <i>pedstavka, ming kishi</i>	2,8	3,0	3,0
Kollejlar soni, birlik	139	139	42
o'quvchilar soni, <i>ming kishi</i>	57,3	46,2	2,0
o'qituvchilar soni, <i>pedstavka, ming kishi</i>	4,2	3,5	0,5
Texnikumlar soni, birlik	234	601	601
o'quvchilar soni, <i>ming kishi</i>	125,3	511,4	511,4
o'qituvchilar soni, <i>pedstavka, ming kishi</i>	8,0	26,8	30,6
Qurilish sohasida kadrlar tayyorlash markazlar soni, birlik	13	13	13
o'quvchilar soni, <i>ming kishi</i>	2,2	1,8	1,8
o'qituvchilar soni, <i>pedstavka, ming kishi</i>	0,1	0,1	0,1

Izoh: 2026-yil 1-iyuldan boshlab barcha kollejlari tugatiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-190-son Farmoniga asosan 2026-yil 1-sentabrdan boshlab texnikumlar soni 640 tani tashkil etadi.

18-jadval. Davlat oliy ta'lim muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari

	Ijro	Kutilma	Prognoz
	2024	2025	2026
Oliy ta'lim muassasalari soni - jami	140	140	140
Talabalar soni, <i>ming kishi</i>	1 073,9	1 150,1	1 219,3
davlat granti asosida	160,8	182,3	193,4
kontrakt hisobiga	913,1	967,9	1 025,9
Jami xodimlar soni, <i>ming kishi</i>	84,1	96,6	96,6
shundan, professor-o'qituvchilar soni	50,2	51,7	51,7
Grant kvotalar soni, (<i>ming birlik</i>) shundan:	58,5	60,3	60,7
bakalavriyat	34,8	35,6	35,6
magistratura	9,4	9,9	10,5
imtiyoz asosida qabul	14,3	14,8	14,6
Ilmiy unvonga ega katta o'qituvchining o'rtacha bir oylik ish haqi miqdori, <i>ming so'm</i>	10 437,7	11 481,5	12 629,6

Ta'lim sohasini yanada rivojlantirish uchun xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda 2035-yilga qadar maktab ta'limini rivojlantirish **milliy strategiyasini** ishlab chiqish taklif etiladi. Bunda:

har bir mahalla kesimida aholining demografik o'sish ko'rsatkichlarini tahlil qilgan holda **yangi o'quv o'rinlarini yaratish dasturini** tasdiqlash;


binolarining quvvatidan to'liq foydalanilmayotgan ta'lim sifati past va moddiy-texnik bazasi qoniqarsiz bo'lgan **maktablarni rivojlantirish dasturini** ishlab chiqish;

o'qitish **1 smenadan past** va bir-biriga yaqin joylashgan maktablarni birlashtirish va bo'shagan binolardan samarali foydalanish choralarini ko'rish.

Fan va ilmiy tadqiqot sohasi

Fanni yanada rivojlantirish tadbirlari uchun 2026-yilda **2,4 trln so'm** yoki 2025-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 11,1 foiz ko'p mablag' yo'naltirish rejalashtirilmoqda.

19-diagramma. 2026-yilda fan sohasiga ajratilgan xarajatlar tarkibi, *mlrd so'm*



19-jadval. Fan sohasidagi asosiy davlat dasturlari va tadbirlar, *mlrd so'm*

	Ijro	Kutilma	Prognoz	Mo'ljal	
	2024	2025	2026	2027	2028
Jami xarajatlar , shundan:	1 825	1 892	2 044	2 363	2 537
Doktoranturaga kvotalar sonini oshirish xarajatlari*	1 150	1 333	1 394	1 463	1 537
Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	675	558	650	900	1 000


* doktorantura kvotalarini oshirish xarajatlari sohalarga taqsimlangan

20-jadval. 2026-yilda doktorantura kvotalari soni

	Parametr	Prognoz			
	2025-yilda kvotalar soni (birlik)	2026-yilda kvotalar soni (birlik)	Stipendiya miqdori (ming so'm)	Bir yillik stipendiya (mlrd so'm)	Jami xarajatlar (mlrd so'm)
Jami	13 907	14 500	x	1 093,0	1 394,1
Ilmiy-tadqiqot muassasalari	2 650	2 834	x	211,6	270,4
Doktorantura	964	1 042	7 213,5	90,2	111,8
Tayanch doktorantura (PhD)	1 686	1 792	5 645,9	121,4	158,6
Oliy ta'lim muassasalari	11 257	11 666	x	881,4	1 123,6
Doktorantura	4 485	4 841	7 213,5	419,0	519,5
Tayanch doktorantura (PhD)	6 772	6 825	5 645,9	462,4	604,1

Sog'liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish

2026-yilda sog'liqni saqlash sohasi xarajatlari **48,9 trln so'mni** yoki 2025-yilgi kutilayotgan ijroga nisbatan 11,4 foizga oshgan holda jami xarajatlarning 12,1 foizi, YIMning esa 2,5 foizi miqdorida mablag'lar rejalashtirilgan.

20-diagramma. Sog'liqni saqlash sohasi xarajatlari tarkibi, *mlrd so'm*

21-jadval. Sog'liqni saqlash sohasidagi asosiy davlat dasturlari va tadbirlar, *mlrd so'm*


	Ijro	Kutilma	Prognoz	Mo'ljal	
	2024	2025	2026	2027	2028
Jami xarajatlar, shundan:	2 140	2 848	4 847	5 252	5 758
Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi	530	600	708	700	750
Bolalarni vaktsinatsiya qilish	240	242	245	270	296
Nefrologiya va gemodializ yordamini ko'rsatish	121	281	266	293	322
Bolalar va tug'ish yoshidagi, homilador va emizuvchi ayollarni maxsus preparatlar bilan ta'minlash	26	61	43	47	52
Onkologiya yordamini takomillashtirish	164	168	250	275	303

22-jadval. Tibbiyot muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari

	Ijro	Kutilma	Prognoz
	2024	2025	2026
Jami tashkilotlar (birlik), shu jumladan:	3 922	3 877	4 023
ko'p tarmoqli markaziy poliklinikalar	209	209	209
oilaviy poliklinikalar	1 083	1 083	1 083
qishloq vrachlik punktlari	1 185	1 185	1 185
tez tibbiy yordam stansiyalari	210	210	211
umumiy statsionar muassasalar	282	282	250
shoshilinch tibbiy yordam markaz va bo'limlari	130	130	130
ixtisoslashgan statsionar muassasalar	217	217	217
boshqa muassasalar	598	605	738
O'rinlar soni (ming koyka)	119,7	119,7	119,7
Xodimlar soni (ming kishi), shundan:	554,8	554,8	556,0
shifokorlar	91,6	91,6	92,1
o'rta tibbiy xodim	297,1	297,1	297,5
kichik tibbiy xodim	99,9	99,9	100,1
boshqa xodimlar	66,2	66,2	66,3
2-toifali shifokor ish xaqi miqdori (ming so'm)	7 017,7	7 508,9	8 635,2
Imtiyozli bemorlar soni (ming kishi)	488,5	493,4	498,3
Bir o'ringa o'rtacha dori xarajati (ming so'm)	30,7	33,8	37,2
Bir o'ringa o'rtacha oziq-ovqat xarajati (ming so'm)	28,5	32,8	36,0

Madaniyat va sport sohalarini yanada rivojlantirish**Madaniyat sohasi**

Madaniyat sohasiga 2026-yilda **4,4 trln so'm** mablag' ajratilishi prognoz qilingan.

21-diagramma. Madaniyat sohasi xarajatlari tarkibi, *mlrd so'm*

23-jadval. Madaniyat sohasidagi asosiy davlat dasturlari va tadbirlar, *mlrd so'm*

	Ijro	Kutilma	Prognoz	Mo'ljal	
	2024	2025	2026	2027	2028
Jami xarajatlar, shundan:	1 010	1 207	1 079	1 139	1 179
Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi	193	190	200	200	200
Madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish va tiklash	95	125	125	135	145
Badiiy, qisqa metrajli, hujjatli, multiplikatsion filmlarni ishlab chiqarish	107	110	110	120	120
Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	49	50	50	50	50
"Zakovat" intellektual klubi NNT faoliyatini moliyalashtirish xarajatlari	50	50	50	50	50
"Tirik tarix" dasturi doirasidagi filmlarni yaratish uchun xarajatlar	-	70	70	80	80


24-jadval. Madaniyat sohasi tashkilotlarining asosiy ko'rsatkichlari

	Ijro	Kutilma	Prognoz
	2024	2025	2026
Teleradiokanallar, birlik	24	19	19
<i>Xodimlar soni, ming kishi</i>	<i>2,8</i>	<i>2,8</i>	<i>2,8</i>
Axborot-resurs markazlari, birlik	203	205	205
<i>Xodimlar soni, ming kishi</i>	<i>4,3</i>	<i>4,4</i>	<i>4,4</i>
Tibbiyot kutubxonalari, birlik	11	11	11
<i>Xodimlar soni, ming kishi</i>	<i>0,2</i>	<i>0,2</i>	<i>0,2</i>
Ma'naviyat va ma'rifat markazlari, birlik	15	15	15
<i>Xodimlar soni, ming kishi</i>	<i>0,7</i>	<i>0,7</i>	<i>0,7</i>
Ko'zi ojizlar kutubxonalar, birlik	91	86	86
<i>Xodimlar soni, ming kishi</i>	<i>0,6</i>	<i>0,6</i>	<i>0,6</i>
Muzeylar va ko'rgazmalar, birlik	50	50	53
<i>Xodimlar soni, ming kishi</i>	<i>2,1</i>	<i>2,2</i>	<i>2,2</i>
Madaniyat va aholi dam olish markazlari hamda saroylar, birlik	825	844	844
<i>Xodimlar soni, ming kishi</i>	<i>8,1</i>	<i>8,3</i>	<i>8,3</i>
Teatr, akademik xalq badiiy jamoalari, birlik	72	72	72
<i>Xodimlar soni, ming kishi</i>	<i>8</i>	<i>8</i>	<i>8</i>
Boshqa tashkilotlar, birlik	498	489	489
<i>Xodimlar soni, ming kishi</i>	<i>3</i>	<i>3</i>	<i>3</i>
Jami xodimlar soni, ming kishi	30,6	30,9	30,9
Madaniyat xodimining o'rtacha bir oylik ish haqi miqdori (ming so'm)	2 421,9	3 677,9	4 045,7
Davlat buyurtmasiga asosan ishlab chiqarilgan kino mahsulotlari soni	109	105	159

Sport sohasi

Sport sohasiga xarajatlar **2026-yilda 3,7 trln so'mni** tashkil etishi prognoz qilingan.

22-diagramma. Sport sohasi xarajatlari tarkibi, *mlrd so'm*.



25-jadval. Sport sohasidagi asosiy davlat dasturlari va tadbirlar, *mlrd so'm*

	Ijro 2024	Kutilma 2025	Prognoz 2026	Mo'ljal	
				2027	2028
Jami xarajatlar, shundan:	918	1 202	780	763	763
Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasi	247	250	210	210	210
Olimpiya va Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rish va qatnashish xarajatlari	269	240	270	270	270
Sport turlarini ommaviylashtirish va rivojlantirish	104	84	85	85	85

26-jadval. Sport sohasi tashkilotlarining asosiy ko'rsatkichlari, *birlik*


	Ijro 2024	Kutilma 2025	Prognoz 2026
Tashkilotlar - jami	445	452	457
<i>shu jumladan:</i>			
Bolalar-o'smirlar sport maktablari	254	254	254
Futbol akademiyalari	14	15	15
Ixtisoslashtirilgan bolalar-o'smirlar sport maktablari	56	56	56
Chavandozlar maktablari	14	14	14
Futbol bo'yicha bolalar-o'smirlar sport maktablari	13	14	14
Oliy sport mahorati maktablari	15	15	18
Ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari sport maktablari	6	7	7
O'zbekiston "Yoshlik" sport jamiyati	15	15	15
Sport turlari bo'yicha mahorat maktablari	15	15	15
Boshqa tashkilotlar	43	47	49
Tarbiyalanuvchilar soni (ming kishi)	514,1	514,7	514,8
Jami xodimlar soni (ming kishi)	28,7	29,9	30
shu jumladan, murabbiylar soni	16,3	16,5	16,5
murabbiyning bir oylik o'rtacha ish haqi miqdori (ming so'mda)	5 640,3	6 204,3	6 824,7

Aholini ijtimoiy himoya qilish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash

Aholini ijtimoiy himoya qilish jami xarajatlari uchun (*nafaqalar, moddiy yordam, dafn to'lovlari, homiladorlik nafaqalari va boshqa kompensatsiya to'lovlari ko'rinishida*) 2026-yilda jami budjet xarajatlarining 4,2 foizi yo'naltiriladi.

2026-yil 1-yanvardan xususiy sektorda ishlovchi ayollarga homiladorlik va tug'ish nafaqasi tayinlanishi va to'lab berilishining amaldagi tartibi takomillashtirilishi natijasida ularga to'lanadigan "dekret" pullari miqdori va qamrov darajasi oshiriladi.

23-diagramma. Kambag'allik darajasi¹⁰



Shuningdek, 2026-yilda:

“Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturi doirasida tuman va shaharlarning ixtisoslashuvidan kelib chiqib, sanoat, qishloq xo'jaligi hamda xizmat ko'rsatish sohalarida tadbirkorlikni rivojlanishiga turtki beruvchi “drayver” loyihalar uchun zarur infratuzilmani yaratishga **1 trln so'm**;

“Yangi O'zbekiston” qiyofasidagi tuman (shahar)lar va mahallalarni rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun jami **3,9 trln so'm** mablag' ko'zda tutilgan

Bundan tashqari, Kambag'allikdan chiqarish dasturi doirasida “Nuroni” jamg'armasiga **304 mlrd so'm** mablag' ajratilishi rejalashtirilgan.


Aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilash.

Uy-joy sharoitini yaxshilash dasturi doirasida 2026-yilda Davlat budjetidan jami **15 trln so'mga** yaqin, bunda:

ipoteka krediti bo'yicha dastlabki badalning va foiz to'lovlarining bir qismini qoplash uchun **2,7 trln so'm subsidiya** mablag'lari;

ipoteka kreditlarini ajratish uchun Davlat budjetidan tijorat banklariga **12,3 trln so'm resurs mablag'lari** yo'naltirilishi prognoz qilinmoqda.

¹⁰ <https://president.uz/uz/lists/view/8342>

24-diagramma. Ipoteka dasturi doirasida jismoniy shaxslarga ajratiladigan mablag'lar


2026-yilda aholi uchun past tariflarni qo'llash natijasida energetika va transport korxonalariga yetkazilgan zararlarni qoplash maqsadida davlat budjetidan jami 13,4 trln so'm mablag' ajratilishi ko'zda tutilgan. Jumladan:

– aholiga arzon narxlarda tabiiy gaz yetkazib berish bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun – 5,9 trln so'm;

– issiqlik ta'minoti korxonalarining cheklangan tariflardan ko'rilgan zararlarni kompensatsiya qilish uchun – 3,8 trln so'm;

– jamoat transporti korxonalarida cheklangan tariflardan kelib chiqqan zararlarni qoplash uchun – 3,7 trln so'm mablag' yo'naltirilishi belgilangan.


25-diagramma. Energo resurslar va jamoat transportida aholini tashish xarajatlarining bir qismini qoplash xarajatlari, trln so'm



Iqtisodiyot xarajatlari

Davlat budjetidan 2026-yilda iqtisodiyotga ajratilishi rejalashtirilayotgan xarajatlar 54,6 trln so'mni, YIMga nisbatan 2,8 foizni tashkil etib, jami xarajatlarning 13,6 foizini tashkil etadi.

26-diagramma. Iqtisodiyot sohasi yirik xarajatlari, trln so'm



Suv xo'jaligi sohasi

2026-yilda **suv xo'jaligi sohasi** tashkilotlarini saqlash va dasturlarini amalga oshirish uchun **10,4 trln so'm**, shundan 6,4 trln so'm (2025-yilda 6,8 trln so'm) mablag' nasos stansiyalari tomonidan iste'mol qilinadigan elektr energiyasi xarajatlarini qoplash uchun yo'naltiriladi.

27-jadval. Suv xo'jaligi sohasidagi asosiy davlat dasturlari va tadbirlar, mlrd so'm

	Ijro	Kutilma	Prognoz	Mo'ljal	
	2024	2025	2026	2027	2028
Nasos stansiyalarining elektr energiyasi xarajatlarini qoplash	6 665	6 800	6 400	6 500	6 400
Paxta xom-ashyosini yetishtiruvchilar tomonidan tomchilatib va diskret sug'orish tizimini joriy etish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun xarajatlar	208	436	400	500	600
Nasos stansiyalarida energiya tejovchi uskunalarni o'rnatish	57	71	65	65	65
Suv xo'jaligi sohasini raqamlashtirish tadbirlari xarajatlari	-	48	125	125	125

28-jadval. Suv xo'jaligi sohasi tashkilotlarining asosiy ko'rsatkichlari

	Ijro	Kutilma	Prognoz
	2024	2025	2026
Jami tashkilotlar, birlik	144	137	137
shu jumladan:			
“Amudaryo” va “Sirdaryo” suv havzalari birlashmalari	10	10	10
Davlatlararo suv xo'jaligini muvofiqlashtirish komissiyasining ilmiy-axborot markazi	1	1	1
Hududiy suv xo'jaligi tashkilotlari	59	56	56
Magistral kanallar boshqarmalari	7	7	7
Mashina kanallarini ishlatish boshqarmalari	3	3	3
Farg'ona vodiysi kanallaridan foydalanish boshqarmasi	2	2	2
Nasos stansiyalari va energetika boshqarmalari	15	15	15
Tuyamo'yin gidrouzelini ishlatish boshqarmasi	1	1	1
Meliorativ ekspeditsiyalar	13	13	13
Suv yo'llari texnik uchastkasi davlat muassasasi	3	3	3
Suv xo'jaligi obyektlari xavfsizligini va suvdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi va uning hududiy boshqarmalari	14	14	14
Suv xo'jaligi loyihalarini amalga oshirish departamenti	1	1	1
Suv xo'jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi	1	1	1
Markaziy dispetcherlik, kommunikatsiya va kadastr xizmati	1	1	1
Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti	1	1	1
Hududiy Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot institutlari	5	7	7
Suv xo'jaligida islohotlar markazi	1	1	1
shtat birliklari soni (ming kishi)	24,8	24,8	24,8
ishchi-xodimning o'rtacha bir oylik ish haqi miqdori (ming so'm)	2 889,9	4 045,9	4 045,9

29-jadval. Yirik elektr energiya iste'mol qiluvchi tashkilotlarning asosiy ko'rsatkichlari

	Ijro	Kutilma	Prognoz
	2024	2025	2026
Tashkilotlar soni, birlik	18	18	18
obyektlarini saqlash xarajatlari trln so'm	8,0	8,1	8,1
shundan, IV guruh xarajatlari	7,5	7,3	7,3
yetkazib berilgan suv miqdori (mlrd/m3)	53,8	53,7	54,5
nasos stansiyalari soni	1 698	1 698	1 698
nasos agregatlari soni, shu jumladan:	5 204	5 204	5 204
ta'mirlangan nasos agregatlari	2 092	2 318	2 318
yangisiga almashtirilgan elektrodvigatellari	154	166	149
yangisiga almashtirilgan nasoslar	156	157	156
Ishlovchi xodimlar soni, (ming kishi)	13,1	12,9	12,9

Qishloq xo'jaligi sohasi

2026-yilda **qishloq xo'jaligini** davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarini moliyalashtirish ishlari davom ettirilib, ushbu sohada asosan quyidagi dastur va tadbirlar uchun mablag' ajratish ko'zda tutilmoqda.

30-jadval. Qishloq xo'jaligi sohasi tashkilotlari asosiy ko'rsatkichlari

	Ijro 2024	Kutilma 2025	Prognoz 2026
Jami tashkilotlar soni, birlik	709	709	709
<i>shu jumladan:</i>			
Qishloq xo'jaligi vazirligi	1	1	1
Hududiy boshqarmalar	14	14	14
Tuman bo'limlari	164	164	164
Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini sinash	1	1	1
Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi	1	1	1
Hududiy boshqarmalar	14	14	14
Tuman bo'limlari	164	164	164
Davlat chegarasi va transportdagi davlat veterinariya nazorati boshqarmasi	1	1	1
Veterinariya dori vositalari va ozuqabop qo'shimchalari sifati va muomalasi nazorati bo'yicha davlat ilmiy markazi	1	1	1
Respublika hayvonlar kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi davlat markazi	1	1	1
Hududiy boshqarmalar	13	13	13
Tuman bo'limlari	133	133	133
Hayvonlarni identifikatsiya qilish, ro'yxatga olish va kuzatish markazi	1	1	1
O'simliklar karantini va himoyasi agentligi	1	1	1
Hududiy boshqarmalar	14	14	14
Tuman bo'limlari	156	156	156
Chigirtka va tut parvonasiga qarshi kurash xizmatlari	13	13	13
Respublika agrokimyoviy tahlil markazi	1	1	1
"Biosifat" respublika markazi	1	1	1
Agrosanoatni rivojlantirish agentligi	1	1	1
Hududiy boshqarmalar	13	13	13
Tashkilotlarda jami shtat birliklari soni (ming kishi)	16	16	16,1

31-jadval. Qishloq xo'jaligi sohasidagi asosiy davlat dasturlari va tadbirlar, mlrd so'm

	Ijro 2024	Kutilma 2025	Prognoz 2026	Mo'ljal 2027	Mo'ljal 2028
Agrosanoatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga transfert	40	150	150	150	150
Fermer xo'jaliklarining nasos agregatlari iste'mol qiladigan elektr energiyasi xarajatini qoplash uchun subsidiyalar	113	170	300	330	363
Uy hayvonlarini vaktsinatsiya qilish uchun xarajatlar	140	160	160	160	160
Qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilarining hosilni sug'urtalash xarajatlari 50 foizini subsidiyalash xarajatlari	-	35	100	100	100
Suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy tish uchun ajratiladigan tijorat krediti foiz xarajatlari 14 foizdan oshgan qismini qoplab berish uchun	-	-	100	100	100

Aholi punktlarini obodonlashtirish

2026-yilda **obodonlashtirish sohasi** tashkilotlari **232 tani** tashkil etishi va ularda **68 mingdan** ortiq shtat birliklari faoliyat yuritishi hamda sohaning joriy xarajatlari uchun **5,6 trln so'm** ajratilishi ko'zda tutilgan.

Shu jumladan, obodonlashtirish sohasi tashkilotlarining 2026-yilgi ish haqi va unga ajratmalar uchun **3,6 trln so'mga** yaqin mablag' ajratilishi rejalashtirilmoqda.

32-jadval. Obodonlashtirish tashkilotlarining asosiy ko'rsatkichlari

	Ijro 2024	Kutilma 2025	Prognoz 2026
Obodonlashtirish tashkilotlari soni, birlik	231	232	232
Shtat birliklari soni (ming kishi)	65,7	68,2	68,2
Ishchi-xodimning o'rtacha bir oylik ish haqi miqdori, 3-razryad misolida (ming so'm)	2 927,7	3 185,0	3 503,5


2026-yilda:

– Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, va obodonlashtirish boshqarmalari moddiy texnikasini mustahkamlash xarajatlari – **175 mlrd so'm**;

– respublika hududida qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishga **150 mlrd so'm** ajratiladi.

Tashabbusli budget


Mamlakatimizda 2021–2025-yillar davomida Tashabbusli budget uchun Davlat budgetidan **20,6 trln so'm** mablag' yo'naltirildi. Mazkur mablag'lar doirasida mahallalarda **20 mingdan** ortiq loyihalar amalga oshirildi.



Ovoz berish bosqichida so'nggi 2-3 mavsum natijalariga ko'ra o'rtacha 10 mln fuqaroning yoki mamlakat aholisining **30-35 foizning** ishtiroki qayd etildi.



Mahallalar ishtiroki to'liq qamrab olindi, o'tgan davr mobaynida umumiy mahallalarning **65 foizidan ortiq** qismi kamida bir marotaba Tashabbusli budjet jarayonlarida g'olib bo'ldi. G'olib mahallalarning yillik ulushi **30 foizdan** ortiqni tashkil etmoqda.



O'z navbatida, g'olib mahallalar orasida **“og'ir toifa”ga** kiritilgan mahallalarning ulushi yildan-yilga oshib bormoqda. Bugungi kunga kelib, mazkur mahallalarda **2 mingga** yaqin loyihalar amalga oshirildi.



Bu, o‘z navbatida, jarayonni **muntazam ravishda takomillashtirib borish** orqali fuqarolar uchun yanada qulayliklar yaratish zarurligini talab etadi.

Bunda, **jahon amaliyoti** hamda **ilg‘or mamlakatlar tajribasidan** kelib chiqib, yangi amaliyot va imkoniyatlarni joriy etish bo‘yicha ko‘riladigan amaliy choralar Budjetnomaning 6.6-kichik bo‘limida keltirilgan.

Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari

2026-yilda **Davlat hokimiyati, boshqaruvi, adliya, prokuratura, sud** va fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlarini saqlash xarajatlariga **21,4 trln so‘m** hamda NNT va fuqarolik jamiyatning boshqa institutlarini qo‘llab-quvvatlash xarajatlariga **1,5 trln so‘m** yo‘naltirilishi prognoz qilingan.

Bunda, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarini saqlash xarajatlarini rejalashtirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 4-oktabrdagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining faoliyatiga raqamlashtirishni keng joriy etish hisobiga boshqaruv shtat birliklari sonini maqbullashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–178-son Farmoni talablari inobatga olingan.

Davlat investitsiyalari

2026-yilda ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasiga jami davlat investitsiyalari Davlat budjeti, DXSH va jalb qilinadigan XMilar mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan loyihalarni inobatga olgan holda 37,9 trln so'mni tashkil etishi prognoz qilingan.

33-jadval. Jami ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasiga davlat investitsiyalari, mlrd so'm


	2025 yil (kutilma)				2026 yil			
	Jami	shundan:			Jami	shundan:		
		Budjet	XMI	DXSH		Budjet	XMI	DXSH
	37 757	20 695	15 958	1 104	37 886	18 500	18 013	1 373
Ijtimoiy sohalar	11 271	8 016	2 339	916	9 720	6 176	2 896	647
Umumta'lim maktablari	4 057	4 036		21	3 377	3 050	300	27
Ijod va ixtisoslashgan maktablar	484	403	81		90		90	
MTTlar	1 512	1 456	45	11	956	900	50	6
Tibbiy muassasalar	3 700	1 530	2 132	37	4 248	1 750	2 367	131
Oliy ta'lim muassasalari	1 018	224		794	500	150		350
Sport	251	221		30	151	130		21
Madaniyat	113	90		23	268	156		112
Ilm-fan va innovatsiya	137	56	81		130	40	90	
Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari	6 338	2 315	4 024		6 366	1 900	4 466	
Suv ta'minoti va kanalizatsiya	5 410	1 743	3 667		5 270	1 200	4 070	
Issiqlik ta'minoti	927	571	356		1 096	700	396	
Yo'l-transport infratuzilmasi	6 924	2 640	4 284		7 555	2 800	4 755	
Avtomobil yo'llari	5 496	2 505	2 991		6 020	2 700	3 320	
Temir yo'l transporti va metro	1 469	176	1 293		1 536	100	1 436	
Irrigatsiya va melioratsiya	4 160	1 652	2 458	49	4 301	1 570	2 729	2
Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalari infratuzilmasini yaxshilash bilan bog'liq xarajatlar	1 556	1 556			1 800	1 800		
Turizm obyektlari atrofidagi yer maydonlari, suv va yo'l infratuzilmalarini yaxshilash	595	595			500	500		
"Yangi O'zbekiston" massivlarida barpo etiladigan infratuzilma obyektlari uchun	771	771			400	400		
Boshqa yo'nalishlar	6 005	3 013	2 853	139	7 085	3 194	3 167	724

Izoh: Davlat budjeti hisobidan investitsiya dasturining 2025-yilgi kutilmasida mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining topshiriqlariga asosan hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish uchun ko'zda tutilgan xarajatlar va boshqa manbalar hisobidan ajratilgan mablag'lar inobatga olingan.

34-jadval. Davlat budjetidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi, *trln so'm*

	Ijro	Kutilma	Prognoz	Mo'ljal	
	2024	2025	2026	2027	2028
Jami	19,7	20,7	18,5	22,1	25,1
Ijtimoiy soha, shu jumladan:	7,8	8	6,2	6,6	7,5
Umumta'lim maktablari	3,8	4	3,1	3,5	4,1
MTTlar	1	1,5	0,9	1,3	1,5
Tibbiy va tibbiy-ijtimoiy muassasalar	1,4	1,5	1,8	1,3	1,5
Oliy ta'lim muassasalari	0,7	0,2	0,2	0,1	0,1
Jismoniy tarbiya va sport	0,5	0,2	0,1	0,2	0,2
Madaniyat va san'at	0,1	0,1	0,2	0,1	0,1
Ilm-fan va innovatsiya	0,08	0,06	0,04	0,06	0,06
Muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari	1,6	2,3	1,9	2,3	2,8
Suv ta'minoti va kanalizatsiya	1,3	1,7	1,2	1,8	2,2
Issiqlik ta'minoti	0,3	0,6	0,7	0,5	0,5
Yo'l-transport infratuzilmasini yaxshilash bilan bog'liq xarajatlar	3	2,6	2,8	4,1	5,5
Irrigatsiya va melioratsiya obyektlarini qurish-ta'mirlash ishlari uchun	2	1,7	1,6	1,7	1,7
Erkin iqtisodiy va kichik sanoat zonalarini infratuzilmasini yaxshilash bilan bog'liq xarajatlar	1	1,6	1,8	4,6	4,9
Turizm obyektlari atrofidagi yer maydonlari, suv va yo'l infratuzilmalarini yaxshilash	0,3	0,6	0,5	0,5	0,5
"Yangi O'zbekiston" massivlarida barpo etiladigan infratuzilma obyektlari uchun	0,7	0,8	0,4	0,5	0,6
Boshqa yo'nalishlar	3,2	3	3,2	1,7	1,6

27-diagramma. Ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi xarajatlarning Davlat budjeti xarajatlaridagi va YIMdagi ulushi, *foizda*



3.2.2. Xarajatlarning iqtisodiy tasnif bo'yicha prognozlari

Iqtisodiy tasnif bo'yicha Davlat budjeti xarajatlarining asosiy qismini **ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari** tashkil etib, ushbu xarajatlar jami Davlat budjeti xarajatlarining 2026-yilda 42,2 foizini tashkil etishi yoki YIMga nisbatan 8,7 foizni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.


35-jadval. Xarajatlarning iqtisodiy tasnif bo'yicha yoyilmasi, trln so'm

		Ijro	Parametr	Prognoz	Mo'ljal	
		2024	2025	2026	2027	2028
	Jami xarajatlar	310,9	344,8	402,4	460,7	527,9
	<i>shundan:</i>					
1	Ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari	131,2	154,3	172,8	196	221,4
2	Stipendiyalar	1,7	2	2,2	2,3	2,5
3	Infratuzilmani rivojlantirish mablag'lari, shundan:	27,7	28,2	38,8	48,1	53,7
3.1	Markazlashgan investitsiya xarajatlari	19,7	16,2	18,5	22,1	25,1
3.2	"Tashabbusli budjet" mablag'lari	5,1	6	6	6,5	7
3.3	"Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturi hamda "Yangi O'zbekiston" qiyofasidagi tuman (shahar)lar va mahallalarni rivojlantirish xarajatlari	0,5	3,2	4,9	6,5	8
3.4	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va topshiriqlariga asosan qayta taqsimlanadigan mablag'lar	2,3	2	1,5	2	2,5
3.5	Ichki yo'llarni saqlash xarajatlari		0,8	0,9	1	1,1
4	Tovar va xizmatlar bo'yicha xarajatlar	25,3	26,4	29	31,9	35,1
4.1	Xizmat safarlari xarajatlari	0,3	0,4	0,4	0,4	0,4
4.2	Kommunal to'lovlar, shundan:	8,7	10,3	10,6	11,7	12,9
	elektroenergiya	7,4	8,4	8,5	9,3	10,3
	tabiiy gaz	0,4	0,6	0,7	0,7	0,8
	issiq suv va issiqlik energiyasi	0,5	0,7	0,9	1,0	1,2
	sovuq suv va kanalizatsiya	0,3	0,5	0,4	0,5	0,5
	chiqindi	0,1	0,1	0,1	0,1	0,1
4.3	Saqlash va joriy ta'mirlash	1,2	1,7	1,1	1,1	1,1
4.4	Tovar-moddiy zaxiralariga xarajatlar, shu jumladan:	9,7	13,5	14,7	16,1	17,9
	oziq-ovqat mahsulotlari	3,7	6,1	7,2	7,9	8,7
	dori-darmonlar va tibbiy vositalar	3,3	4,2	4,7	5,1	5,6
	yonilg'i va YOMM	0,8	1,7	1,9	2,1	2,3
5	Asosiy vositalar bo'yicha xarajatlar	5,1	5,3	5,3	5,3	5,3
6	Foiz to'lovlari	14,5	21,1	24,6	30,6	35,5
7	Subsidiyalar	25,9	28,3	28,3	31,3	33,7
8	DMJ va boshqa jamg'armalarga budjetdan transfertlar	34,8	39,5	33,3	30,7	29,4
9	Nafaqalar, moddiy yordam va aholiga boshqa imtiyozli to'lovlar	15,5	17,3	17,0	19,1	21,8


Izoh: 2024-yilda ichki yo'llarni saqlash xarajatlari "Tashabbusli budjet" mablag'lari tarkibida inobatga olingan.

Jumladan, 2026-yilda ish haqi va ijtimoiy soliq xarajatlari uchun 172,8 trln so'm yoki 2025-yilgi tasdiqlangan rejaga nisbatan 18,5 trln so'mga ko'p mablag' ajratilishi ko'zda tutilgan. Shundan ijtimoiy sohaning ish haqi xarajatlari 107 trln so'mni yoki jami ish haqi xarajatlarining 61,9 foizini tashkil qiladi.

28-diagramma. Iqtisodiy tasnif bo'yicha 2026-yilgi xarajatlar ulushi, *jami xarajatga nisbatan foizda*



29-diagramma. Ish haqi xarajatlarining YIMdagi va jami xarajatlardagi ulushi, *foizda*



36-jadval. Ish haqi, pensiya va nafaqalar miqdori qo'shimcha oshirilishining budgetga ta'siri

	Oshuvchi miqdor	Budgetga qo'shimcha xarajat* (yillik), mlrd so'm
Budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi	+1 foiz	1 697
Pensiya	+1 foiz	832
Ijtimoiy nafaqalar (moddiy yordam va bolalar nafaqasi)	oilalar sonining qo'shimcha 10 foizga oshishi	572


“*” – 2026-yilgi prognoz ko'rsatkichlar misolida.

3.2.3. Davlat dasturlari uchun ajratiladigan mablag'lar prognozlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Hukumati qarorlariga muvofiq qabul qilingan **Davlat dasturlari va tadbirlarni** amalga oshirish uchun Davlat budjetidan 2026-yilda jami **50,2 trln so'm** mablag' ajratilishi ko'zda tutilgan.

Ushbu mablag'lar iqtisodiyot, ijtimoiy soha, transport-kommunikatsiya, texnik-muhandislik, energetika obyektlarini qamrab olgan infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlash imkonini beradi.

30-diagramma. Budjet subsidiyalari



2026-yilda budjetdan ajratiladigan subsidiyalar to'g'risida ma'lumot Budjetnomaning 5-ilovasida, davlat dasturlari va tadbirlar uchun ajratiladigan mablag'lar 6-ilovasida keltirilgan.

3.2.4. Xarajatlarning BRMM bo'yicha tahlili

Milliy barqaror rivojlanish maqsadlarida nazarda tutilgan ko'rsatkichlarning sifatli bajarilishi, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishilishini ta'minlash maqsadida Davlat budjeti xarajatlari BRMMning 16 ta maqsadi kesimida tahlil qilindi.

2026-yilda Davlat budjeti jami xarajatlarining 74,7 foizi BRMMni moliyalashtirish uchun yo'naltirilishi prognoz qilinmoqda.

31-diagramma. Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlarni amalga oshirish uchun davlat budjeti xarajatlari


Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlar	2026		2027		2028	
	mlrd so'm	Xarajat-lardagi ulushi, foizda	mlrd so'm	Xarajat-lardagi ulushi, foizda	mlrd so'm	Xarajat-lardagi ulushi, foizda
Jami	300 453,2	74,7	351 802,2	76,4	404 920,7	76,7
 1-maqsad. Barcha joylarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish	41 793,7	10,4	46 481,0	10,1	49 924,6	9,5
 2-maqsad. Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish	2 376,9	0,6	2 588,1	0,6	2 945,1	0,6
 3-maqsad. Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga ko'maklashish	47 573,5	11,8	50 730,0	11,0	63 455,5	12,0
 4-maqsad. Umumqamrovli va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash hamda barchaga butun umri davomida ta'lim olish imkoniyatini rag'batlantirish	94 816,2	23,6	114 815,3	24,9	133 698,1	25,3
 5-maqsad. Gender tenglikni ta'minlash va barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish	588,2	0,1	648,4	0,1	711,1	0,1
 6-maqsad. Barcha uchun suv resurslari va sanitariyaning mavjudligi hamda ulardan oqilona foydalanishni ta'minlash	12 802,9	3,2	14 632,6	3,2	17 210,1	3,3
 7-maqsad. Arzon, ishonchli, barqaror va zamonaviy energiya manbalaridan barcha uchun umumfoydalanish imkoniyatini ta'minlash	155,49	0,04	71,40	0,02	76,81	0,01

31-diagramma. Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlarni amalga oshirish uchun davlat budjeti xarajatlari (davomi)

Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlar		2026		2027		2028	
		mlrd soʻm	Xarajat-lardagi ulushi, foizda	mlrd soʻm	Xarajat-lardagi ulushi, foizda	mlrd soʻm	Xarajat-lardagi ulushi, foizda
	8-maqсад. Samarali bandlikni oshirish hamda erkaklar va xotin-qizlarni munosib ish bilan taʼminlash asosida barqaror va umumqamrovli iqtisodiy oʻsishga koʻmaklashish	2 431,5	0,6	3 387,3	0,7	3 509,8	0,7
	9-maqсад. Barqaror infratuzilmani yaratish, umumqamrovli va barqaror sanoatlashuv va innovatsiyalarga koʻmaklashish	27 600,9	6,9	33 309,8	7,2	38 370,7	7,3
	10-maqсад. Mamlakat ichida tengsizlikni uning barcha koʻrinishlarida qisqartirish	941,19	0,2	1 127,17	0,2	1 217,26	0,2
	11-maqсад. Shaharlar va aholi yashash punktlarining ochiqligi, xavfsizligi va ekologik barqarorligini taʼminlash	30 545,8	7,6	36 023,8	7,8	40 156,1	7,6
	12-maqсад. Isteʼmol va ishlab chiqarishning oqilona modellariga oʻtishni taʼminlash	42,38	0,01	46,37	0,01	50,55	0,01
	13-maqсад. Iqlim oʻzgarishi va uning oqibatlariga qarshi kurash boʻyicha tezkor choralarni qabul qilish	892,6	0,2	859,6	0,2	865,7	0,2
	15-maqсад. Quruqlik ekotizimlarini himoyalash va tiklash, ulardan oqilona foydalanishga koʻmaklashish, oʻrmonlardan oqilona foydalanish, choʻllanishga qarshi kurashish, yerlarning yemirilishini toʻxtatish va ortga qaytarish, bioxilma-xillikning yoʻqolib ketish jarayonini toʻxtatish	1 355,5	0,3	1 495,4	0,3	1 570,6	0,3
	16-maqсад. Barqaror rivojlanish maqsadlari yoʻlida tinchliksevar va ochiq jamiyatlar barpo etilishiga koʻmaklashish, barcha uchun odil sudlov imkoniyatidan foydalanishni taʼminlash va barcha darajalarda samarali, hisobdor va keng ishtirokka asoslangan muassasalarni tashkil etish	8 102,1	2,0	8 729,5	1,9	9 396,0	1,8
	17-maqсад. Barqaror rivojlanish maqsadlarida Global sheriklik doirasida amalga oshirish vositalarini mustahkamlash va ishlarni faollashtirish	28 434,5	7,1	36 856,6	8,0	41 762,7	7,9

Izoh: O'zbekiston Respublikasi hududi okean yoki dengiz bilan chegaradosh bo'lmaganligi bois, 14-maqсад "Okean, dengiz va dengiz resurslarini saqlash va oqilona foydalanish" tasniflanmagan.

32-diagramma. Barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsadlarni amalga oshirish xarajatlarining YIMga va Davlat budgeti xarajatlariga nisbatan ulushi, *foizda*



3.2.5. Xarajatlarning atrof-muhitga ta'siri bo'yicha tahlili

Iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish va uning oqibatlariga moslashtirish bo'yicha baholash hamda atrof-muhit masalalari bilan bog'liq boshqa ta'sirlarni inobatga olish maqsadida 2024-yildan boshlab Davlat budgeti xarajatlari "yashil" budgetlashtirish tamoyillari asosida tasniflanmoqda.

Xarajatlarni "yashil" budgetlashtirish tamoyillari asosida tasniflashda, birinchi navbatda, iqlim o'zgarishi va atrof-muhitga ijobiy yoki salbiy ta'sirga ega tadbirlar quyidagi **3 ta guruhga** (atrof-muhit maqsadlari) ajratiladi hamda ushbu guruhlarning har biri "ijobiy" va "salbiy" ta'siri bo'yicha tahlil qilinadi:

- 1) Iqlim o'zgarishi **ta'sirini yumshatish** tadbirlari;
- 2) Iqlim o'zgarishi **oqibatlariga moslashish** tadbirlari;
- 3) **Atrof-muhit masalalari bilan** bog'liq boshqa ta'sirlar.

Xarajatlarni "yashil" budgetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda har bir budget satri yuqorida keltirilgan 3 ta atrof-muhit maqsadlariga ta'sir ko'rsatishi nuqtayi nazaridan baholansa, ikkinchi bosqichda baholangan har bir budget satri quyidagi 4 ta toifalar bo'yicha guruhlanadi:

“A” toifa – atrof-muhit maqsadlarining kamida bittasiga ijobiy ta’sir ko’rsatadigan va salbiy ta’sirga ega bo’lmagan xarajatlar;

“B” toifa – atrof-muhit maqsadlariga ijobiy va salbiy ta’sirlarning kombinatsiyasiga ega bo’lgan xarajatlar;

“C” toifa – atrof-muhit maqsadlaridan kamida bittasiga salbiy ta’sir ko’rsatadigan va ijobiy ta’sirga ega bo’lmagan xarajatlar;

“D” toifa – atrof-muhit maqsadlarining barchasiga neytral ta’sir ko’rsatadigan xarajatlar.

37-jadval. Davlat budjeti xarajatlarining “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash natijalari, *trln so’m*

Toifalar	2024-yil ijro	2025-yil parametr	2026-yil prognoz	2027-yil mo’ljall	2028-yil mo’ljall
Jami	310,9	344,8	402,4	460,7	527,9
“A” toifa	27,5	36,3	42,0	52,0	57,4
<i>ulushi, foizda</i>	<i>8,8</i>	<i>10,5</i>	<i>10,4</i>	<i>11,3</i>	<i>10,9</i>
“B” toifa	9,7	9,1	10,0	11,4	12,2
<i>ulushi, foizda</i>	<i>3,1</i>	<i>2,6</i>	<i>2,5</i>	<i>2,5</i>	<i>2,3</i>
“S” toifa	0,5	0,1	0,06	0,06	0,07
<i>ulushi, foizda</i>	<i>0,1</i>	<i>0,02</i>	<i>0,01</i>	<i>0,01</i>	<i>0,01</i>
“D” toifa	273,3	299,3	350,4	397,2	458,3
<i>ulushi, foizda</i>	<i>87,9</i>	<i>86,8</i>	<i>87,1</i>	<i>86,2</i>	<i>86,8</i>

Davlat budjeti xarajatlarining 2026-yilgi prognozi **402,4 trln so’m** bo’lib, xarajatlarni “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida **tasniflash natijalariga** ko’ra:

“A” toifa bo’yicha, ya’ni atrof-muhit maqsadlaridan kamida bittasiga ijobiy ta’sir ko’rsatadigan va salbiy ta’sirga ega emas xarajatlar miqdori 42 trln so’m bo’lib, jami xarajatlardagi ulushi 10,4 foizni tashkil etadi.

Ushbu toifada suv xo’jaligi tashkilotlarini saqlash va suv bilan ta’minlashga oid tadbirlar xarajatlari (*suv tadbirlari iqlim o’zgarishi sharoitida muhim o’rin tutadi*), hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va obodonlashtirish bo’yicha xarajatlar (*hududlarda infratuzilmalarni rivojlantirilishi, obodonlashtirish iqlim o’zgarishiga moslashtirish tadbirlari hisoblanadi*), o’rmon xo’jaligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o’zgarishi vazirligini saqlash xarajatlari, jamoat transporti bo’yicha xarajatlar va boshqa atrof-muhit maqsadlariga ijobiy ta’sir ko’rsatadigan xarajatlar inobatga olingan.

38-jadval. Atrof-muhitga ijobiy ta'sirga ega xarajatlar, mlrd so'm

	2024	2025	2026	2027	2028
Jami	27 509,6	36 288,6	41 981,0	52 037,9	57 413,1
<i>shu jumladan,</i>					
Suv xo'jaligi tashkilotlarini saqlash va suv bilan ta'minlashga oid tadbirlar xarajatlari	8 550,1	9 332,9	9 093,2	10 418,8	11 513,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi Transport vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahri transport boshqarmalarining maxsus jamg'armalari	772,9	2 200	2 585,3	2 500	2 500
Metropolitan xarajatlari	419,2	683,2	926,2	764,7	769,7
Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash obyektlarini ta'mirlash va tiklash xarajatlari	319,4	421,8	421,8	421,8	421,8
Davlat o'rmon xo'jaliklarini saqlash xarajatlari	249,2	273,7	293,8	318,5	344,3
Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining hududiy bo'linmalarini saqlash xarajatlari	245,6	251,6	259,9	310,8	321,9
O'simliklar karantini va himoyasi agentligi hamda uning hududiy bo'linmalarini saqlash xarajatlari	233,9	248,7	271,1	298,5	327,2
Hayvonlarning o'ta xavfli yuqumli kasalliklarining oldini olish xarajatlari	140	160	160	227,6	247
Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish xarajatlari	251,6	150	170	187,5	187,5
O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish agentligi tizimiga kiruvchi boshqa tashkilotlarni saqlash xarajatlari	71,5	66,4	71,9	78,5	85,5

“V” toifa bo'yicha, ya'ni atrof-muhit maqsadlariga ijobiy va salbiy ta'sirlarning kombinatsiyasiga ega bo'lgan xarajatlar miqdori 10 trln so'm bo'lib, jami xarajatlardagi ulushi 2,5 foizni tashkil etadi.

Ushbu toifada issiqlik ta'minoti tizimi tashkilotlari xarajatlari (*tashkilot tomonidan issiqlik ishlab chiqarishda ko'mir, mazut yoqilg'ilaridan foydalanilishi iqlim o'zgarishi, ekologiyaga salbiy ta'sir ko'rsatsa-da, arzonlashtirilgan issiqlik ta'minoti ko'mir, o'tin kabi muqobil yoqilg'i sarfini kamaytiradi*), geologiya-qidiruv ishlari xarajatlari (*faoliyat atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatsada, kam uglerodli faoliyatlar uchun zarur bo'lgan minerallarni aniqlaydi*), veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo'mitasi va hududiy bo'linmalari xarajatlari (*veterinariya xizmati hayvonlarni iqlim o'zgarishi ta'siriga moslashtirishga yordam ko'rsatsa-da, chorvachilik faoliyati iqlim o'zgarishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi*) ko'zda tutilgan.

“C” toifa bo'yicha, ya'ni atrof-muhit maqsadlaridan kamida bittasiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan va ijobiy ta'sirga ega emas xarajatlar miqdori 0,06 trln so'mni tashkil etadi.

Bu toifaga issiqxona gazlari emissiyalari oshishiga olib keluvchi, suv sarfini oshiruvchi, atrof-muhitni ifloslantiruvchi tadbirlar, biologik xilma-xillik va ekotizimga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi tadbirlar kiradi.

“D” toifa bo'yicha, ya'ni atrof-muhit maqsadlarining barchasiga neytral ta'sir ko'rsatadigan xarajatlar miqdori 350,4 trln so'm bo'lib, jami xarajatlardagi ulushi 87,1 foizni tashkil etadi.

Ushbu toifada iqlim o'zgarishi va atrof-muhit maqsadlariga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydigan, tashkilotlarni saqlash xarajatlari, jumladan, budjet tashkilotlarining **ish haqi**, joriy va saqlash xarajatlari kiritilgan.

Xorijiy ekspertlar yordamida shakllantirilgan qo'llanmaga ko'ra, bu turdagi xarajatlarning atrof-muhitga ta'sirini baholash imkoniyati mavjud emasligini inobatga olib, **“neytral yoki ta'sirga ega emas” mazmunida baholangan.**

Shu bilan birga, qator xorijiy davlatlarda ham ushbu ko'rsatkich budjet xarajatlarning salmoqli qismini tashkil etadi. Xususan, **Fransiyaning 2024-yil yakunlari** bo'yicha e'lon qilgan hisobotiga ko'ra, jami budjet xarajatlarning **“neytral ta'sirga ega” sifatida baholangan qismi 76 foizni tashkil etgan.**

3.3. Mahalliy budgetlar daromadlari va xarajatlarining prognozlari

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksiga asosan, Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budgetlari balanslashtirilgan daromadlar va xarajatlarga ega bo'lishi lozimligi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi budgeti, viloyatlar va Toshkent shahri mahalliy budgetlarining taqchilligiga yo'l qo'yilmasligi belgilangan.

Mahalliy budgetlar xarajatlarining tegishli daromadlar prognozlaridan oshgan qismini qoplash respublika budgetidan ajratiladigan transfertlar ajratish orqali amalga oshiriladi.

39-jadval. Mahalliy budget parametrlarining 2026-yil uchun prognozlari, trln so'm

		Daromadlar*	Transfert**	Xarajatlar***
	Jami	76	19,7	95,6
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	3,8	2,5	6,3
2.	Andijon viloyati	5,4	2,2	7,6
3.	Buxoro viloyati	5,1	1,0	6,1
4.	Jizzax viloyati	2,9	1,3	4,2
5.	Qashqadaryo viloyati	5,9	1,3	7,2
6.	Navoiy viloyati	4,1	0,1	4,2
7.	Namangan viloyati	4,7	2,3	7,0
8.	Samarqand viloyati	7,2	1,7	8,9
9.	Surxondaryo viloyati	3,9	2,2	6,1
10.	Sirdaryo viloyati	2,3	0,7	3,0
11.	Toshkent viloyati	7,4	0,3	7,7
12.	Farg'ona viloyati	6,9	2,3	9,2
13.	Xorazm viloyati	3,7	1,5	5,3
14.	Toshkent shahri	12,6	0,3	12,9

* – Tamaki mahsulotlari (import qilingan mahsulotlardan tashqari) uchun aksiz solig'i bo'yicha transfertlarni inobatga olmagan holda.

** – Tamaki mahsulotlari (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) uchun aksiz solig'i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag'lar bilan birga.

*** – Mahalliy budgetlar hisobidan so'ndiriladigan davlat qarziga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq xarajatlarni hamda Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasiga ajratiladigan transfertlarni inobatga olgan holda.

Mahalliy budgetlar barqarorligini ta'minlash va ularning mustaqilligini oshirish uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

1. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy mustaqilligini oshirish maqsadida **QQSdan** tushgan tushumlarning **Toshkent shahri mahalliy budgetiga 5 foizi** va **qolgan hududlar** mahalliy budgetlariga **20 foizi** o'tkaziladi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq yirik soliqlar to'lovchilardan tashqari).

Bunda mahalliy budgetlarga o'tkazilgan qismidan kamida 50 foizi tuman (shahar)lar budgetlariga o'tkaziladi (daromadlari xarajatlaridan ko'p bo'lgan tuman (shahar)lar bundan mustasno).

2. Oliy ta'lim muassasalari huzuridagi **akademik litseylarni** saqlash hamda **maktabgacha ta'lim tashkilotlari, umumta'lim hamda ixtisoslashtirilgan maktablari obyektlarini loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va mukammal ta'mirlash** xarajatlari Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlar viloyat budjetlari va Toshkent shahri shahar budjetidan moliyalashtirishga o'tkaziladi.

Respublika budjetidan Qoraqalpog'iston Respublikasi respublika budjetiga, viloyatlar viloyat budjetlariga va Toshkent shahri shahar budjetiga 2026-yilda 19,7 trln so'm (*shundan, aksiz solig'i tushumlari hisobidan 3,6 trln so'm*) tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar o'tkazilib berilishi prognoz qilingan.

3.4. Davlat maqsadli jamg'armalari va Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi daromadlari va xarajatlarining prognozlari

I. 2026-yilda DMJ daromadlari (*budjetga o'tkaziladigan transfertlarsiz*) **78,2 trln so'mni**, xarajatlari (*budjetdan o'tkaziladigan 73,6 trln so'm va budjetga o'tkaziladigan 13,2 trln so'm transfertlarsiz*) **73,9 trln so'mni** tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Ma'lumot uchun: 2025-yilda DMJ daromadlari (budjetga o'tkaziladigan transfertlarsiz) 67,4 trln so'mni, xarajatlari (budjetdan o'tkaziladigan 57,6 trln so'm va budjetga o'tkaziladigan 11,1 trln so'm transfertlarsiz) 64,3 trln so'mni tashkil etishi kutilmoqda.

2026-yilda DMJ daromadlari budjetdan ajratiladigan transfertlar bilan birga 165 trln so'm yoki konsolidatsiyalashgan budjet daromadlarining 32,0 foizini, xarajatlari Davlat budjetiga o'tkaziladigan transfertlar bilan birga 160,7 trln so'm yoki konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlarining 28,3 foizini tashkil etishi prognoz qilingan.

2027-yilda DMJ daromadlari va xarajatlari konsolidatsiyalashgan budjetning tegishincha 30,5 foizi va 27,4 foizini tashkil etishi hamda 2028-yilda tegishincha 29,7 foizi va 26,3 foizini tashkil etishi mo'ljal qilingan.

2026-yilda DMJ tomonidan davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun ajratiladigan budjet ssudalari va kredit mablag'lari 0,8 trln so'm hamda oldingi yillarda ajratilgan mablag'larning 0,6 trln so'm miqdorida qaytarilishini inobatga olgan holda davlat dasturlarini moliyalashtirish uchun budjet ssudalari va kredit liniyalari saldosi **0,2 trln so'm** miqdorida prognoz qilinmoqda.


DMJ budjetlarining loyihalari 2026-yil boshiga kutilayotgan 16,7 trln so'mlik qoldiq mablag'larini inobatga olgan holda ishlab chiqildi.

DMJga o'zlariga yuklatilgan davlat funksiyalarini to'liq amalga oshirishlari uchun Davlat budjetidan **73,6 trln so'm** transfertlar ajratilishi ko'zda tutilgan.

DMJ daromadlari, xarajatlari va ularga Davlat budjetidan ajratiladigan transfertlar miqdorlarining 2026–2028-yillar uchun prognozlari Budjetnomaning **4-ilovasida** keltirilgan.

DMJ budjetlari 2026-yil oxiriga 20 trln so'mlik qoldiq bilan ijro etilishi prognoz qilinmoqda.

33-diagramma. DMJ va TTJ budjetlarining prognozlari, trln so'm



Izoh: 2026-yildan boshlab DMJ tarkibiga Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi, Farmatsevtika tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg'armasi, Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi hamda Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi kiritilmoqda.

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari **Pensiya jamg'armasining** 2026-yil boshiga qoldiq mablag'lari 3,9 trln so'm, daromadlari **64,7 trln so'm**, xarajatlari **86,1 trln so'm** miqdorida prognoz qilinmoqda.


Jamg'arma taqchilligini qoplash hamda pensiya va nafaqa oluvchilar oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida moliyalashtirish uchun respublika budjetidan keyingi yilda **23 trln so'm** miqdorida transfert ajratilishi ko'zda tutilgan.

Jamg'armaning 2026-yil oxiriga qoldiq mablag'lari 5,5 trln so'm miqdorida prognoz qilingan.

Buning natijasida jamg'arma mablag'lari hisobidan 2026-yilda jami 4 mln 426 mingdan ortiq fuqaroning pensiyalari o'z vaqtida moliyalashtirilishi ta'minlanadi.

40-jadval. Pensiya jamg'armasining asosiy ko'rsatkichlari

	Ijro		Kutilma	Prognoz	Mo'ljal	
	2023	2024	2025	2026	2027	2028
Daromadlar, trln so'm	39,8	47,1	57,9	64,7	75	87,8
<i>YIMdagi ulushi</i>	<i>3,3%</i>	<i>3,2%</i>	<i>3,4%</i>	<i>3,2%</i>	<i>3,3%</i>	<i>3,4%</i>
<i>shundan: Ijtimoiy soliq tushumlari</i>	<i>38,6</i>	<i>45,5</i>	<i>55,5</i>	<i>62,7</i>	<i>72,8</i>	<i>85,5</i>
Davlat budjetidan transfertlar, trln so'm	13,8	16,3	20,2	23	20	18
Xarajatlar, trln so'm	53,6	64	76,6	86,1	95,1	104,8
<i>YIMdagi ulushi</i>	<i>4,4%</i>	<i>4,4%</i>	<i>4,5%</i>	<i>4,3%</i>	<i>4,2%</i>	<i>4,0%</i>
Pensiya oluvchilar soni (ming nafar)	3 930	4 105	4 271	4 426	4 592	4 760
<i>Jami aholi sonidagi ulushi</i>	<i>10,8%</i>	<i>11,0%</i>	<i>11,3%</i>	<i>11,5%</i>	<i>11,7%</i>	<i>11,9%</i>
Yangi pensiya tayinlanuvchilar soni (ming nafar)	292	306	305	310	315	321
Pensiya to'lovining o'rtacha miqdori (ming so'm)	1 234,5	1 431,6	1 576,5	1 686,8	1 804,9	1 931,2

34-diagramma. Pensiya jamg'armasi daromadlari va xarajatlari, trln so'm

2. 2026-yilda Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi tushumlari 231,5 mlrd so'mni tashkil qilishi prognoz qilinmoqda. Jamg'armaning asosiy tushum manbasi 170 mlrd so'm miqdoridagi ijtimoiy soliq tushumlari hisoblanadi.

Jamg'armaga kelgusi yilda aholi bandligini ta'minlash, aholini mehnat faoliyatiga jalb qilish uchun qulay sharoitlarni yaratishda davlat organlarining ish samaradorligini oshirish, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish bo'yicha dasturlarni maqsadli moliyalashtirishga respublika budjetidan **150 mlrd so'm** miqdoridagi maqsadli transfertlar ajratilishi rejalashtirilmoqda.

Jamg'arma xarajatlari **381,5 mlrd so'mni** tashkil etib, xarajatlar asosan aholi bandligiga ko'maklashish markazlarida ish qidirayotgan va ishsiz maqomiga ega shaxs sifatida ro'yxatdan o'tgan shaxslarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, ishsizlik bo'yicha nafaqalar, ishsizlarga kompensatsiyalar, stipendiyalar, moddiy yordam va boshqa to'lovlarni to'lash, subsidiyalarni to'lash va boshqalarga yo'naltiriladi.

3. “El-yurt umidi” jamg’armasiga 2026-yilda respublika budjetidan **700 mlrd so’m** transfert ajratilishi *(2025-yil oxirigacha 500 mlrd so’m ajratilishi kutilmoqda)* rejalashtirilmoqda.

Jamg’arma xarajatlari **700 mlrd so’m** miqdorida prognoz qilinayotgan bo’lib, quyidagilarga sarflanishi ko’zda tutilmoqda:

- 1 470 nafar jamg’arma stipendiatlarini xorijdagi nufuzli ta’lim muassasalarida ta’lim olishini va stajirovkadan o’tishini tashkil etishga 685,2 mlrd so’m;

- xorijiy olim va mutaxassislarni, shu jumladan, vatandoshlarimizni respublikada mehnat faoliyatini amalga oshirishga jalb etishga 2,7 mlrd so’m;

- jamg’armani saqlash bilan bog’liq xarajatlarga 12,2 mlrd so’m.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo’yicha respublika maqsadli jamg’armasiga respublika budjetidan 800 mlrd so’m transfert ajratilishi *(2025-yil oxirigacha 700 mlrd so’m ajratilishi kutilmoqda)* rejalashtirilgan.

Jamg’arma mablag’lari to’lig’i bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan dasturlar, topshiriqlar asosida jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplashga yo’naltiriladi.

5. 2026-yilda Tibbiyotni rivojlantirish DMJning yil boshiga kutilayotgan qoldiq mablag’lari 6,3 mlrd so’m va daromadlari 50 mlrd so’m miqdorida prognoz qilinmoqda.

Shuningdek, jamg’armaga respublika budjetidan **708 mlrd so’m** miqdoridagi transfert ajratilishi ko’zda tutilgan.

Jamg’arma xarajatlari yil boshiga qoldiq mablag’lar va kutilayotgan daromadlari bilan birga **764,3 mlrd so’mni** tashkil etishi prognoz qilingan.

Bunda, “Spinal mushak atrofiyasi” tashxisi qo’yilgan bemor bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko’rsatish va dori vositalarini bepul yetkazib berish xarajatlari uchun 220 mlrd so’m rejalashtirilmoqda.

6. 2026-yilda Davlat tibbiy sug’urtasi jamg’armasining yil boshiga qoldiq mablag’lari 54,2 mlrd so’mni va daromadlari 5,8 mlrd so’mni tashkil etishi prognoz qilinmoqda.

Jamg’armaga Davlat budjetidan ajratiladigan transfertlar miqdori **35,6 trln so’mni** tashkil etishi prognoz qilingan. Jumladan:

- O‘zbekiston Respublikasining respublika budjetidan 1,7 trln so’m;

– Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetining, viloyatlar hamda Toshkent shahri mahalliy budjetlaridan 33,9 trln so‘m.

2026-yildan boshlab davlat tibbiy sug‘urtasi tizimi mexanizmlari respublikaning barcha hududlarida tatbiq etiladi.

Shundan kelib chiqib, jamg‘arma xarajatlari budjet transfertlariga mos ravishda **35,6 trln so‘mni** tashkil etishi prognoz qilingan bo‘lib, ushbu mablag‘lar, asosan, davlat tomonidan kafolatlangan tibbiy yordam doirasida tibbiy xizmatlarni davlat va xususiy tibbiyot tashkilotlaridan xarid qilish uchun hamda jamg‘armani saqlash uchun yo‘naltiriladi.


II. 2026-yilda O‘zbekiston Respublikasi TTJ tushumlari va xarajatlari balanslashgan holda 24,3 trln so‘m miqdorida prognoz qilinmoqda.

3.5. Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari daromadlari va xarajatlarining tahlili


2026-yilda barcha budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari daromadlari va xarajatlari mos ravishda 44 trln so'm miqdorida prognoz qilingan.

Konsolidatsiyalashgan budjet xarajatlari samaradorligini oshirish va budjetdan tashqari mablag'larni ishlatishda respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining hisobdorligi va mas'uliyatini oshirish maqsadida respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining budjetdan tashqari jamg'armalari hisobidan xizmat avtomobillari (maxsus avtotransport vositalari bundan mustasno), qimmatbaho yumshoq mebellar va ofis jihozlarini xarid qilish jarayoni tartibga solib boriladi.


35-diagramma. Jami budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari, trln so'm



36-diagramma. 2026-yilda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalari mablag'lari manbalari, mlrd so'm



37-diagramma. Budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari mablag'larining konsolidatsiyalashgan budget va YIMdagi ulushi, *foizda*



IV. Davlat qarzi prognozlari va maqsadli ko'rsatkichlari

4.1. Davlat qarzining joriy holati


Davlat qarzi qoldig'i 2025-yilning 1-iyul holatiga **43,4 mlrd AQSH** dollarini (*shundan, davlat tashqi qarzi – 36,4 mlrd AQSH doll., davlat ichki qarzi – 7 mlrd AQSH doll.*) yoki YIMga nisbatan **34,2** foizni tashkil etdi.

XVJ tomonidan 2025-yil iyun oyida e'lon qilingan IV modda hisobotida O'zbekiston Respublikasining davlat qarziga xizmat ko'rsatish salohiyati yuqori darajada, davlat qarzi bilan bog'liq xatarlar past darajada baholangan.

41-jadval. Davlat qarzi bo'yicha ma'lumotlar¹¹, mln AQSH doll.

		2023-yil	2024-yil	2025-yil 1-iyul holatiga
	Jami davlat qarzi	34 927	40 215	43 376
	YIMga nisbatan foizda	34,4	35,0	34,2
I	Tashqi qarz	29 639	33 726	36 414
	YIMga nisbatan foizda	29,2	29,3	28,7
1.1.	Qat'iy belgilangan foiz stavkada	15 801	17 943	20 395
	O'zgaruvchan foiz stavkada	13 636	15 645	15 874
	Foizsiz	201	138	144
1.2.	Milliy valyutada denominatsiya qilingan	547	561	1 047
	Chet el valyutasida denominatsiya qilingan	29 092	33 165	35 367
1.3.	Qisqa muddatli	100	0	0
	Bir yil ichida to'liq so'ndiriladigan uzoq muddatli	786	125	235
	Bir yildan ortiq muddatda so'ndiriladigan uzoq muddatli	28 752	33 601	36 179
II	Ichki qarz	5 288	6 489	6 962
	YIMga nisbatan foizda	5,2	5,6	5,5
2.1.	Qat'iy belgilangan foiz stavkada	3 674	5 122	5 575
	O'zgaruvchan foiz stavkada	259	122	93
	Foizsiz	1 355	1 245	1 293
2.2.	Milliy valyutada denominatsiya qilingan	1 860	3 072	4 061
	Chet el valyutasida denominatsiya qilingan	3 428	3 417	2 901
2.3.	Qisqa muddatli	170	1 164	1 033
	Bir yil ichida to'liq so'ndiriladigan uzoq muddatli	1 351	1 481	1 857
	Bir yildan ortiq muddatda so'ndiriladigan uzoq muddatli	3 767	3 844	4 072



¹¹ <https://www.imv.uz/static/umumiy-jadval>

38-diagramma. Davlat qarzi portfeli valyuta tarkibi, *foizda*

Davlat tashqi qarzi. Davlat tashqi qarzi qoldig'i 2025-yil 1-iyulda yil boshiga nisbatan 2 687,5 mln AQSH dollariga ko'payib, **36,4 mlrd** AQSH dollarini yoki YIMga nisbatan **28,7 foizni** tashkil etgan. Shundan:

O'zbekiston Respublikasi nomidan jalb qilingan tashqi qarz – **31,2 mlrd** AQSH dollarini yoki davlat tashqi qarzining 85,7 foizini;

O'zbekiston Respublikasining **kafolati ostida** jalb qilingan tashqi qarz – **5,2 mlrd** AQSH dollarini yoki davlat tashqi qarzining 14,3 foizini tashkil etadi.

39-diagramma. Davlat tashqi qarzi iqtisodiyot tarmoqlari kesimida, *foizda***40-diagramma.** Davlat tashqi qarzining kreditorlar kesimida taqsimlanishi, *foizda*

Davlat ichki qarzi. Davlat ichki qarzi qoldig'i 2025-yilning 1-iyul holatiga **7 mlrd AQSH dollarini** (2025-yil boshida 6,5 mlrd. AQSH dollari) yoki YIMga nisbatan **5,5 foizni** tashkil etgan. Shundan:


- Davlat g'aznachilik obligatsiyalari – 45,1 trln so'm;
- Davlat kafolatlagan va ichki majburiyatlar bo'yicha Davlat budjetidan qaytariladigan qarz – 3,4 mlrd AQSH dollarini tashkil etadi.

Davlat qarzining asosiy qismi, ya'ni **93 foizi bir yildan ortiq muddatda so'ndiriladigan uzoq muddatli** hisoblanadi.

4.2. Davlat qarzining prognoz ko'rsatkichlari

O'rta muddatli istiqbol uchun makroiqtisodiy prognozlar, tarmoqlarni rivojlantirish dasturlari va strategiyalarida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga asoslangan ko'p ssenariyli tahlillarga ko'ra, **davlat qarzi YIMga nisbatan 2025-2028-yillarda 35 foiz atrofida shakllanishi** prognoz qilinmoqda.

41-diagramma. O'zbekiston Respublikasi davlat qarzi dinamikasi¹²



¹² Davlat qarzi bo'yicha statistik ma'lumotlar xalqaro moliya tashkilotlari va tijorat banklari taqdim etadigan ma'lumotlar asosida aniqlashtirib boriladi.

V. Fiskal tavakkalchiliklar bahosi

Ushbu bo'limda joriy yilgi Fiskal strategiyada e'lon qilingan makroiqtisodiy va budget ko'rsatkichlarining asosiy maqsadli ko'rsatkichlarga erishishda xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan xatarlar ta'sirining hamda DXSH loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davlatning fiskal majburiyatlari va davlat korxonalarining moliyaviy holatining yangilangan sharhi keltirilgan.

5.1. Makroiqtisodiy va fiskal xatarlar

2026-yilda mamlakatimizda iqtisodiy o'sish sur'atlari **6,6 foizdan** kam bo'lmagan darajada saqlanib qolinishi kutilayotgan bo'lsada, jahon iqtisodiyotida noaniqliklarning oshib borishi, O'zbekistonning asosiy savdo hamkor mamlakatlarida iqtisodiy o'sish sur'atlarining sekinlashishi, global savdoning fragmentatsiyalashuvi, almashinuv kurslaridagi tebranishlar va keskin iqlim o'zgarishi holatlari kabi xatarlar belgilangan prognozlarga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mazkur xatarlar XVJ va JB kabi xalqaro tashkilotlarning global iqtisodiyot istiqbollari tahliliga bag'ishlangan so'nggi hisobotlarida ham qayd etilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, asosiy savdo hamkorlarda iqtisodiy o'sishning sekinlashishi, almashinuv kursidagi tebranishlar bilan bog'liq xatarlarning iqtisodiyotimizga ta'siri baholandi.



1. Global iqtisodiy noaniqliklar va asosiy savdo hamkor mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning sekinlashishi

XVJning 2025-yil oktabr oyidagi hisobotiga ko'ra, **global iqtisodiy noaniqliklar indeksi** geosiyosiy ziddiyatlar hamda jahon savdo tizimidagi o'zgarishlar sharoitida tarixiy maksimumni qayd etmoqda.

Global noaniqlikning saqlanib qolishi, jahon moliyaviy bozorda yuqori foiz stavkalarining uzoqroq saqlanib qolishiga, xomashyo tovarlari narxlarining volatilligi oshishiga olib kelishi mumkin.

Shuningdek, XVJ prognozlariga ko'ra global iqtisodiyot o'sishi **3 foiz** atrofida saqlanib qolayotgan bo'lsada, mamlakatimizning asosiy savdo hamkorlarida o'rtacha iqtisodiy o'sish sur'atlari¹³ 2023-2025-yillarda **4,8 foizdan** 2026-2028-yillarda **3,8 foizgacha** sekinlashishi prognoz qilinmoqda.

¹³ Hisob-kitoblarda asosiy savdo hamkor mamlakatlar sifatida Xitoy, Rossiya, Turkiya, Qozog'iston va Qirg'iziston olingan bo'lib, ushbu mamlakatlar jami tovarlar (oltinsiz) eksportimizdagi ulushi 55 foizni tashkil etadi.

42-diagramma. Global noaniqlik indeksi¹⁴**43-diagramma.** Asosiy savdo hamkor mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi va o'rtacha o'sish sur'ati

Hisob-kitoblarga ko'ra, asosiy savdo hamkor mamlakatlarda o'rtacha o'sish sur'atining **1** foizga sekinlashishi, mamlakatimiz eksportining asosiy ssenariyga nisbatan **2-3 foiz** bandga, iqtisodiy o'sish sur'atlarining **0,5 foiz** bandgacha pasaytirishi mumkin.


¹⁴ XVJ hisoboti (oktabr 2025) ososida hisob-kitob qilingan

2. Almashinuv kursidagi tebranishlar


Joriy yilning mart oyidan boshlab dollar indeksi (DXY) pasayish tendensiyasiga o'tib, sentabr oyida so'nggi 3 yillikdagi o'z minimumiga erishdi.

Biroq, noyabr oyining boshidan dollar indeksi ko'tarilishi tendensiyasiga o'tgan bo'lsa, S&P 500, NASDAQ kabi xalqaro moliya bozor indekslar o'z tarixiy maksimumini qayd etmoqda.

44-diagramma. AQSH dollari indeksi (DXY)¹⁵



45-diagramma. Xalqaro moliyaviy bozor indekslar



Global moliyaviy bozorning mazkur tendensiyasi kelgusida dollar indeksining mustahkamlanishiga hamda asosiy hamkorlarimiz milliy valyutalarining qadrsizlanishiga olib kelish ehtimoli mavjud.

Xususan, Rossiya Markaziy bankining so'nggi so'rovnoma natijalariga ko'ra, 2026-yilda Rossiya rubli AQSH dollariga nisbatan **11,3** foizga, 2027-yilda **6** foizga, 2028-yilda **3,7** foizga qadrsizlanishini prognoz qilinmoqda¹⁶.

¹⁵ investing.com ma'lumotlari asosida

¹⁶ Rossiya Markaziy bankining 2025-yil oktabr oyida so'rovnoma natijalari asosida




Hisob-kitoblarga ko'ra asosiy savdo hamkor mamlakatlar milliy valyutalarining dollarga nisbatan bir vaqtning o'zida **10** foizga qadrsizlanishi, mamlakatimizdan eksportining **1-1,5** foiz bandga, mazkur mamlakatdan pul o'tkazmalari hajmini **3-3,5** foiz bandga, iqtisodiy o'sish sur'atining **0,5** foiz bandgacha qisqarishiga olib kelishi mumkin.

46-diagramma. Asosiy savdo hamkor mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sekinlashishining ta'siri

Eksport, mlrd AQSH doll.

Pul o'tkazmalari, mlrd AQSH doll.

YIM o'sish sur'ati, foiz






Izoh: Asosiy savdo hamkor mamlakatlarda iqtisodiy o'sishning 1 foizga sekinlashishining mamlakatimizning ayrim iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri

47-diagramma. Asosiy savdo hamkor mamlakatlari milliy valyutalari qadrsizlanishining ta'siri

Eksport, mlrd AQSH doll

Pul o'tkazmalari, mlrd AQSH doll

YIM o'sish sur'ati, foiz



Izoh: Asosiy savdo hamkor mamlakatlar valyutalari 10 foizga qadrsizlanishining mamlakatimizning ayrim iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri

5.2. Davlat ishtirokidagi korxonalarining moliyaviy holati

Davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy holati tahlili

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 9-martdagi "Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan tashqi qarzlarni jalb qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 107-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomga muvofiq 26 ta yirik davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari tahlil qilindi.



42-jadval. Moliyaviy ko'rsatkichlari tahlil qilingan 26 ta yirik davlat korxonalari ro'yxati

1	"O'zbektelekom" AJ	14	"O'zbekiston metallurgiya kombinati" AJ
2	"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ	15	"Uzbekistan airports" AJ
3	"O'zbekneftgaz" AJ	16	"O'zkimyosanoat" AJ
4	"Olmaliq kon-metallurgiya kombinati" AJ	17	"Uzbekgidroenergo" AJ
5	"Issiqlik elektr stansiyalari" AJ	18	"Navoiyuran" DK
6	"O'zavtosanoat" AJ	19	"Toshkent metropoliteni" UK
7	"O'zbekiston temir yo'llari" AJ	20	"O'zbekko'mir" AJ
8	"O'ztransgaz" AJ	21	"Toshshahartransxizmat" AJ
9	"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ	22	"Angren issiqlik elektr stansiyasi" AJ
10	"Uzbekistan airways" AJ	23	"Yangi Angren issiqlik elektr stansiyasi" AJ
11	"O'zsuvta'minot" AJ	24	"O'zaeronavigatsiya markazi" DUK
12	"Hududgazta'minot" AJ	25	"Maxsustrans ishlab chiqarish boshqarmasi" DUK
13	"O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ	26	"O'zbekiston pochta" AJ

43-jadval. Korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari

	2021	2022	2023	2024
Jami aktivlar, <i>trln so'm</i>	484,1	572	622,8	653,6
Jami majburiyatlar, <i>trln so'm</i>	233,7	312,3	338,4	350,6
O'z mablag'lari, <i>trln so'm</i>	250,5	259,7	284,4	303
Sof foyda, <i>trln so'm</i>	22,2	23,7	31,5	49,4
Jami tashqi qarz qoldig'i (mlrd AQSH doll.), <i>shundan:</i>	11,3	12,7	12,7	14,1
Davlat kafolati ostida jalb qilingan qarz qoldig'i (mlrd AQSH doll.)	4,7	5,1	4,8	3,6

2024-yil yakuni bo'yicha 26 ta davlat ishtirokidagi korxonalarning moliyaviy ko'rsatkichlari o'sish tendensiyasini ko'rsatdi. Jumladan, jami aktivlar 2024-yilda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5 foizga, jami majburiyatlar 3,6 foizga hamda o'z mablag'lari manbalari 6,6 foizga ko'paydi.

48-diagramma. Korxonalarning moliyaviy holati**49-diagramma.** Davlat korxonalarining tashqi qarzi va ularga taqdim etilgan davlat kafolati, mlrd AQSH doll

2024-yilda korxonalarning tashqi qarz qoldig'i ortgan bo'lsa-da, ularga beriladigan davlat kafolatlari keskin kamaygan. Jalb etilgan tashqi qarz miqdorlari korxonalarning samaradorligini oshirish maqsadida mavjud loyihalarni modernizatsiya qilish, yangi loyihalarni amalga oshirish hamda texnologiyalar jalb qilish maqsadida ajratilgan.

Tashqi qarzga beriladigan davlat kafolati 2023-yilda jami tashqi qarzning 37,8 foizini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich ijobiy o'zgarish bilan 2024-yilda 25,5 foiz ulushni tashkil qildi.

2024-yilning yakuni bo'yicha, 26 ta davlat ishtirokidagi korxonalarning likvidlilik hamda to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari yaxshilandi. Shuningdek, korxonalarning daromadlilik qobiliyati ko'rsatkichlarida sezilarli darajada o'sish kuzatildi.

2024-yil yakunlari bo'yicha 26 ta yirik davlat korxonalarining o'rtacha likvidlilik ko'rsatkichlari 4 yil mobaynida ijobiy o'zgargan. Jumladan, joriy likvidlilik hamda tez likvidlilik darajalari bu yilga kelib "past xatar" darajasini tashkil etdi.


Shuningdek, joriy hamda tez likvidlilik ko'rsatkichlari 2023-yilgacha korxonalarning balansidagi joriy aktiv va majburiyatlari orasidagi tafovut o'zgarmay saqlanib qolgani oqibatida "o'rta xatar" darajasida toifalanib kelayotgan edi. Biroq, 2024-yilga kelib joriy aktivlarning ko'payishi va joriy majburiyatlarning kamayishi natijasida bu tafovut sezilarli darajada yaxshilandi va korxonalarning likvidlilik ko'rsatkichlarining ijobiy o'zgarishiga sabab bo'ldi.

44-jadval. Davlat ishtirokidagi korxonalarning fiskal xatar ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot

	2021	2022	2023	2024
Likvidlilik				
Joriy likvidlik darajasi (nisbat)	1,42	1,36	1,46	1,54
Yuqori likvidlik darajasi (nisbat)	1,07	0,97	1	1,03
Kunlik debitor qarzar aylanmasi (kun)	38,9	49,2	34,6	34,5
To'lov qobiliyati				
Majburiyatlarning kapitalga nisbati	0,93	1,2	1,19	1,15
Majburiyatlarning aktivlarga nisbati	0,48	0,55	0,54	0,54
Daromadlilik				
Sof foyda marjasi, foizda	10	9,2	8,4	11,4
Operatsion foyda marjasi, foizda	22,8	17,5	16,5	21
Aktivlarning rentabelligi, foizda	4,6	4,1	5,1	7,6
Kapitalning rentabelligi, foizda	8,9	9,1	11,1	16,3

Izoh: Davlat ishtirokidagi korxonalar taqdim etgan ma'lumotlar asosida tayyorlandi.

50-diagramma. Likvidlilik ko'rsatkichlari



A. Joriy likvidlilik ko'rsatkichi:

- hisoblanishi: $\frac{\text{joriy aktivlar}}{\text{joriy majburiyatlar}}$
- past xatar darajasi – 1,5 dan yuqori*


B. Tez likvidlilik ko'rsatkichi:

- hisoblanishi: $\frac{\text{joriy aktivlar} - \text{moddiy zaxiralar}}{\text{joriy majburiyatlar}}$
- past xatar darajasi - 1,0 dan yuqori*

C. Joriy aktivlar va majburiyatlar o'zgarish tendensiyasi (trln so'm).

* Vazirlar Mahkamasining "Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan tashqi qarzlarni jalb qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 107-sonli qaroriga asosan

51-diagramma. To'lov qobiliyati ko'rsatkichlari



A. Majburiyatlarning aktivlarga nisbati:

- hisoblanishi: $\frac{\text{jami majburiyatlar}}{\text{jami aktivlar}}$
- o'rta xatar darajasi – 0,50 va 0,75 oralig'i*

B. Majburiyatlarning kapitalga nisbati

- hisoblanishi: $\frac{\text{jami majburiyatlar}}{\text{jami o'z mablag'lari}}$
- o'rta xatar darajasi – 1 va 1,5 oralig'i*

C. Jami aktivlar va passivlar o'zgarish tendensiyasi (trln so'm)

* Vazirlar Mahkamasining "Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan tashqi qarzlarni jalb qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 107-sonli qaroriga asosan

Korxonalarning to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari joriy yil natijalariga ko'ra "o'rta xatar" darajasini saqlab qoldi. Jumladan, majburiyatlarning aktivlarga nisbati o'zgarishsiz 0,54 nisbatni hamda majburiyatlarning kapitalga nisbati o'tgan yilning shu davri bilan solishtirganda yaxshilanib, 1,15 nisbatni qayd etdi. Bundan kelib chiqadiki korxonalarning majburiyatlari va aktivlari proporsional ravishda o'zgargan va o'z mablag'lari summasining ortishi natijasida majburiyatlar hamda kapital orasidagi farq kamaygan.

So'nggi 3 yillikda majburiyatlarning kapitalga nisbati ko'rsatkichi "o'rta xatar" darajasida saqlanib qolmoqda. Majburiyatlarning aktivlarga nisbati ko'rsatkichi ham xuddi shunday tendensiyani saqlagan. 2023–2024-yillarda korxonalarning majburiyatlari uning aktivlari va o'z mablag'lari bilan birgalikda proporsional o'zgargan.


Tahlillarga ko'ra, 26 ta davlat ishtirokidagi korxonalarning so'nggi 4 yillikdagi o'rtacha daromadlik ko'rsatkichlarida energetika islohotlarining natijasida "past xatar" darajasi saqlanib kelmoqda.

Korxonalarning sof foyda marjasi so'nggi 4 yilda "past xatar" darajasida saqlandi. Xususan, bu ko'rsatkich 2024-yilda oldingi yilga qaraganda 8,4 foizdan 11,4 foizgacha o'sib, 4 yil davomidagi eng yuqori darajaga yetdi.

Operatsion foyda marjasi ham bu yillar davomida "past xatar" darajasida saqlandi. Jumladan, 2024-yilda bu ko'rsatkich 16,5 foizdan 21 foizga ko'tarilgan hamda ushbu natija bilan korxonalarning samarali ishlab chiqarish jarayonlari va xarajatlarni optimallashtirishga erishganini ko'rsatadi.


Shuningdek, bu yuqori foyda marjalari kompaniyaning bozor raqobatida kuchli pozitsiyani egallayotganini tasdiqlaydi.

52-diagramma. Daromadlik ko'rsatkichlari




A. Sof foyda marjasi:

- hisoblanishi: $\frac{\text{sof foyda (zarar)}}{\text{jami daromadlar}}$
- past xatar darajasi – 8 dan yuqori*




B. Operatsion foyda marjasi:

- hisoblanishi: $\frac{\text{operatsion foyda (zarar)}}{\text{jami daromadlar}}$
- past xatar darajasi: 10 dan yuqori*



C. Aktivlarning rentabelligi:

- hisoblanishi: $\frac{\text{sof foyda (zarar)}}{\text{jami aktivlar}}$
- past xatar darajasi – 4 dan yuqori*



D. Kapitalning rentabelligi:

- hisoblanishi: $\frac{\text{sof foyda (zarar)}}{\text{jami o'z mablag'lari}}$
- past xatar darajasi: 8 dan yuqori*

* Vazirlar Mahkamasining "Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan tashqi qarzlarni jalb qilish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 107-sonli qaroriga asosan

Shu bilan birga, davlat ishtirokidagi korxonalarning o'rtacha rentabellik ko'rsatkichlari 2024-yilgacha, ijobiy o'zgarishlar bilan, "past xatar" darajasida saqlandi. Xususan, aktivlar va kapitalning rentabellik darajasi 2024-yilda o'tgan yilgiga qaraganda 1,5 barobar o'sdi. Korxonalar joriy yilda har bir aktiv miqdoridan 7,6 foiz, har bir kapital miqdoridan 16,3 foiz foyda ko'rdi.

Xalqaro kredit reytingga ega davlat ishtirokidagi korxonalar

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasining kredit reytingi davlatning nisbatan past darajadagi davlat qarzi, yuqori iqtisodiy o'sish sur'ati va iqtisodiyotni liberallashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar natijasida "FITCH" va "S&P" kredit agentliklari tomonidan (barqaror) kutilmali "BB-", "Moody's" kredit agentligi tomonidan esa (barqaror) kutilmali "Ba3" reyting darajasida baholangan.

Davlat ishtirokidagi 26 ta korxonaning 10 tasi ushbu xalqaro kredit reyting tashkilotlari tomonidan baholangan. 2025-yil 1-aprel holatiga ko'ra, ularning aksariyati (barqaror) "BB-" uzoq muddatli kredit reyting natijasiga ko'ra toifalandi.

45-jadval. Xalqaro kredit reytingiga ega davlat ishtirokidagi korxonalar, 2025-yil 1-aprel holatiga

	"Fitch"	"S&P"	"Moody's"
O'zbekiston Respublikasi	BB- (Barqaror)	BB- (Barqaror)	Ba3 (Barqaror)
Davlat korxonalari			
"Navoiy KMK" AJ	BB- (Barqaror)	BB- (Barqaror)	
"Olmaliq KMK" AJ	BB- (Barqaror)	B+ (Barqaror)	-
"Hududiy elektr tarmoqlari" AJ	BB- (Barqaror)	-	-
"Issiqlik elektr stansiyalari" AJ	BB- (Barqaror)	-	-
"O'zbekgidroenergo" AJ	BB- (Barqaror)	-	-
"UzAuto Motors" AJ	BB- (Barqaror)	B+ (Ijobiy)	-
"O'zbekneftgaz" AJ	BB- (Barqaror)	B+ (Barqaror)	-
"Navoiuran" DK		BB- (Barqaror)	

FITCH kredit reytingi agentligining 2024-yil oktabrdagi xulosasiga ko'ra, "Navoiy KMK" AJning mustaqil kredit profili "bb" reytingidan "BB+"ga o'sdi.

Bu ko'rsatkich kompaniyaning davlat kafolatisiz moliyaviy holatini mustahkam deb baholaganini bildiradi. Bunday ijobiy o'zgarishga kompaniya o'zining qarz to'lash muddatini uzaytirgani, moliyalashtirish manbalari diversifikatsiya qilinganligi, jahon bo'yicha to'rtinchi yirik oltin ishlab chiqaruvchiga aylangani, ishlab chiqarish xarajatlari past, foyda marjalari yuqori va moliyaviy leveraj juda past darajada saqlangani sabab bo'ldi.

Jamiyatning uzoq muddatli kredit reytingi (barqaror) "BB-" natijada o'zgarishsiz qoldi.

Xalqaro kredit reyting agentliklari tomonidan e'lon qilingan eng so'nggi hisobotlarga ko'ra, qolgan korxonalarning kredit reyting natijalari va kutilmalari o'zgarishsiz qoldi.

5.3. DXSH loyihalarining tahlili

DXSH tizimining rivojlanishi

2025-yil 1-yanvar holatiga, DXSH tamoyilida amalga oshirilayotgan 365,1 trln so'm miqdoridagi loyihalar portfelining 93,1 foizi energetika sohasiga (339,8 trln so'm) to'g'ri kelsa, kommunal xizmatlar 4,6 foizni (16,9 trln so'm), boshqa sohalarning har biri esa 1 foizdan kamroq ulushga ega.

46-jadval. DXSH loyihalarining sohalar kesimidagi tahlili

	Loyihalar soni, birlik	Qiymati, mlrd so'm	Ulushi, foizda
Jami	1 134	365 079	100
Energetika	68	339 848	93,1
Ekologiya	67	1 262	0,3
Ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimini modernizatsiya qilish	175	1 184	0,3
Kommunal	1	16 856	4,6
Sog'liqni saqlash	57	640	0,2
Suv xo'jaligi	514	401	0,1
Ta'lim	144	2 887	0,8
Transport	2	1 017	0,3
Boshqalar	106	986	0,3

Amalga oshirilgan tahlillar DXSH tamoyilidagi loyihalar sohalari kesimida turlicha taqsimlanganini ko'rsatadi. DXSH loyihalari soni bo'yicha eng yuqori ulush suv xo'jaligiga tegishli bo'lib, bu sohada 514 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash doirasida 175 ta loyiha isitish tizimlarini modernizatsiya qilishga qaratilgan.

Shuningdek, ta'lim sohasida 144 ta, energetikada 68 ta, ekologiya yo'nalishida esa 67 ta loyiha amalga oshirilayotgani qayd etilgan. Bundan tashqari, soliq, madaniyat, agrosanoat, qurilish, huquqni muhofaza qilish, sport, hunarmandchilik va bandlik kabi sohalarda jami 106 ta DXSH loyihalari ro'yxatga olingan. Bu esa DXSH modelining faqat yirik infratuzilma obyektlariga emas, balki turli ijtimoiy va iqtisodiy sohalarga ham faol tatbiq etilayotganidan dalolat beradi.

Davlatning DXSH loyihalari doirasidagi fiskal majburiyatlari

Amalga oshirilayotgan DXSH loyihalarining fiskal jihatdan maqbulligini baholash, xususan, DXSH loyihalari bilan bog'liq davlatning to'g'ridan-to'g'ri va shartli majburiyatlarining summasi, amalga oshirilgan va kutilayotgan to'lovlar bo'yicha ma'lumotlarni aks ettirib borish tartibi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 23-oktabrdagi "Davlat-xususiy sheriklik loyihalaridan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan davlatning fiskal majburiyatlarini boshqarish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 558-sonli qaroriga muvofiq amalga oshirib kelinmoqda.

47-jadval. 2026-2028-yillarda DXSH loyihalari doirasida davlat budjetidan amalga oshiriladigan to'lovlar bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari, *trln so'm*


	Loyiha soni	Qiymati	Prognoz		
			2026	2027	2028
Jami	1 066	25,2	10,1	12,2	13,8
Kommunal	1	16,9	3,8	4,5	4,5
Ijtimoiy soha obyektlarining tizimlari	175	1,2	0,8	0,9	1,0
Sog'liqni saqlash	57	0,6	0,1	0,1	0,1
Suv xo'jaligi	514	0,4	0,5	0,5	0,5
Ta'lim*	144	2,9	4,9	6,2	7,7
Transport	2	1	-	-	-
Soliq	2	0,2	-	-	-
Boshqalar	171	2	-	-	-

* – Mazkur jadvalda maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan loyihalar uchun faqat budjet to'lovlari inobatga olingan (loyihalar soni va qiymati aks ettirilmagan)

Hisob-kitoblarga ko'ra, **2026-yil uchun** barcha loyihalar bo'yicha budjetdan ajratiladigan jami to'lovlar **10,1** trln so'mga baholanmoqda. Bunda, budjetdan amalga oshiriladigan to'lovlarning asosiy qismi kommunal sohasiga (3,8 trln so'm) va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga ajratiladigan mablag'lar (4,7 trln so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Shu bilan birga, baholashlarga ko'ra, o'rta muddatli davrda amalga oshirilayotgan DXSH tamoyilidagi loyihalar doirasidagi **davlat ishtirokidagi korxonalarning to'lov majburiyatlari** 2026-yilda 18,4 trln so'mni, 2027-yilda 26,4 trln so'mni va 2028-yilda esa 33,3 trln so'mni tashkil etishi prognoz qilinmoqda. Majburiyatlarning oshishi yangi elektr stansiyalarining ishga tushishi bilan bog'liq.

53-diagramma. DXSH loyihalari bo'yicha to'lovlarning YIMga nisbati



48-jadval. DXSH loyihalari doirasida davlat ishtirokidagi korxonalarining to'lovlari bo'yicha ma'lumot, *trln so'm*

	Loyiha soni	Qiymati	Ijro	Prognoz		
			2024-yil	2026 yil	2027 yil	2028 yil
Energetika sohasi	68	339,8	5,4	18,4	26,4	33,3

DXSH loyihalari doirasidagi fiskal majburiyatlarning makroiqtisodiy o'zgarishlarga nisbatan sezuvchanligi tahlili


DXSH loyihalaridan yuzaga keladigan fiskal majburiyatlar ehtimoliy moliyaviy-iqtisodiy xatarlarga sezuvchan bo'lib, asosan valyuta kursining o'zgarishi, inflyatsiya sur'atining kutilgan prognozlardan chetlashuvi va boshqa makroiqtisodiy omillar ta'sirida Davlat budjeti hamda davlat ishtirokidagi korxonalar oldida qo'shimcha majburiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Bunday xatarlar reallashgan taqdirda, davlat tomonidan kafolatlangan yoki bitimlar orqali zimmasiga olingan to'lov majburiyatlari oshishi mumkin. Masalan, milliy valyuta kursining qadrsizlanishi davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan xorijiy valyutada denominatsiyalangan tariflar bo'yicha milliy valyutada amalga oshiriladigan to'lovlarning ortishiga sabab bo'ladi. Shu bilan birga, inflyatsiya darajasi kutilmalardan yuqori bo'lganda loyiha xarajatlari oshib, davlat budjetidan qoplanadigan qismi (masalan, ekspluatatsion xarajatlarni qoplash uchun ajratilayotgan subsidiyalar) ham ortishi mumkin.

Shunga ko'ra, DXSH loyihalari doirasidagi davlat budjeti va davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlarga inflyatsiya darajasidagi o'zgarishlar va valyuta kursidagi tebranishlarning ta'siri tahlil qilindi.

Jumladan, DXSH loyihalari bo'yicha davlat budjetidan amalga oshiriladigan to'lovlarning 2026-2028-yillar uchun prognoz ko'rsatkichlariga inflyatsiya sur'atining 2 xil ssenariydagi o'zgarishlarini ta'sir ettirish orqali, inflyatsion o'zgarishlarning budjet to'lovlariga ta'siri baholandi.


54-diagramma. Inflyatsiya darajasidagi o'zgarishlarning DXSH loyihalari bo'yicha davlat budjetidan ajratiladigan to'lovlar hajmiga ta'siri, *trln so'm*



2026–2028-yillarda DXSH loyihalari bo'yicha to'lov majburiyatlari inflyatsiya darajasiga sezuvchan bo'lib, inflyatsiya prognozlarga nisbatan 1 va 2 foiz bandga oshgan holatlarda mos ravishda fiskal majburiyatlar ham bazaviy ssenariyga nisbatan yuqoriroq darajada shakllanmoqda. Masalan, 2027-yilda bazaviy ssenariy bo'yicha budjet to'lovlari 12,2 trln so'mni tashkil etadigan bo'lsa, 2-ssenariyda 12,4 trln so'mgacha oshishi mumkin.


Shu bilan birga, 2026–2028-yillarda DXSH loyihalaridan kelib chiqadigan to'lov majburiyatlarining davlat budjeti daromadlari prognoziga nisbati ham ushbu inflyatsiya ssenariylari asosida baholandi. Bazaviy ssenariyda ushbu nisbat 1,93 foizdan 2,03 foizgacha oshishi kutilmoqda. Inflyatsiyaning prognozlardan chetlashuvini nazarda tutuvchi ssenariylarda esa ushbu nisbat biroz ortishi mumkin. Masalan, 2028-yilda 2-ssenariy bo'yicha bu ko'rsatkich 2,07 foizga yetishi prognoz qilinmoqda.

55-diagramma. DXSH loyihalari bo'yicha Davlat budjetidan ajratiladigan to'lovlarning Davlat budjeti daromadlariga nisbati, *foizda*



Bazaviy ssenariyda fiskal majburiyatlar YIMga nisbatan barqaror darajada saqlanib, 2026-yilda 0,5 foiz, 2027-yilda 0,54 foiz va 2028-yilda 0,53 foizni tashkil etmoqda. Birinchi ssenariy bo'yicha davlat budjetidan ajratiladigan to'lovlarning YIMga nisbatan ulushi biroz ortib, 2028-yilda 0,54 foizga yetishi mumkinligi hamda 2-ssenariy bo'yicha to'lov majburiyatlari 2027-yilda YIMga nisbatan 0,55 foiz darajasida bo'lishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

56-diagramma. DXSH loyihalari bo'yicha Davlat budjetidan ajratiladigan to'lovlarning YIMga nisbati, foizda




DXSH loyihalari portfelining asosiy qismini energetika loyihalari tashkil etishi nuqtayi nazaridan, ushbu sohada amalga oshirilayotgan DXSH tamoyilidagi loyihalarda davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlarning 2026-2028-yillar uchun prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha ham yuqoridagi yondashuv asosidagi sezuvchanlik tahlillari amalga oshirildi.


Sezuvchanlik tahlili valyuta kursining bazaviy ssenariysi va alternativ ssenariylar bo'yicha 3 foiz (1-ssenariy) hamda 9 foizga (2-ssenariy) milliy valyuta kursining prognoz ko'rsatkichlariga nisbatan chetlashishiga asoslangan.

Milliy valyuta kursining qadrsizlanishi DXSH asosidagi energetika loyihalari bo'yicha davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar hajmini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, 2028-yilda milliy valyuta kursining prognoz ko'rsatkichlaridan 9 foizga chetlashganda, **davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan amalga oshirilishi kutilayotgan to'lovlar 36,3 trln so'mga yetishi mumkin** (bazaviy ssenariyga nisbatan 3 trln so'mga ko'p).

57-diagramma. Milliy valyuta kursining AQSH dollariga nisbatan qadrsizlanishining davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan DXSH loyihalari bo'yicha amalga oshiriladigan to'lovlar hajmiga ta'siri, trln so'm



58-diagramma. Davlat ishtirokidagi korxonalar tomonidan DXSH loyihalari bo'yicha amalga oshiriladigan to'lovlar YIMga nisbati, *foizda*



DXSH tamoyilidagi energetika loyihalari bo'yicha to'lovlarning YIMga nisbati bazaviy ssenariy bo'yicha 2026-yilda 0,93 foizni tashkil etishi va 2028-yilga kelib, 1,28 foizga yetishi prognoz qilinmoqda. Alternativ ssenariylar esa 2028-yilda DXSH loyihalari bo'yicha to'lovlar YIMga nisbati 1,4 foizgacha (2-ssenariy) oshishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

VI. Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish

Davlat moliyasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish hamda natijadorlikka asoslangan budjet tizimini joriy etish ishlarini jadallashtirish, shuningdek, sohadagi islohotlarni tizimlashtirgan holda davom ettirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son qarori bilan “2025–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi” tasdiqlandi.

Davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasida quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilab olindi:

1) Budjet intizomini ta‘minlash mexanizmlarini kuchaytirish;

– makroiqtisodiy prognozlar sifatini muntazam baholab borish asosida prognozlash modellari va vositalari takomillashtiriladi;

– fiskal xatarlar muntazam ravishda baholanib, natijalari chop qilib boriladi;

– davlat qarzini boshqarish bo‘yicha o‘rta-muddatli strategiya chop etilib, har yili yangilab boriladi hamda fiskal strategiya bilan birga tasdiqlanadi;

– budjetlararo transfertlar miqdorlarini aniqlash tartibi va ularni ajratish hamda mahalliy budjetlar balanslilikini ta‘minlash mexanizmlari takomillashtiriladi.

2) O‘rta muddatli budjetlashtirishda strategik ustuvorlikni ta‘minlash;

– o‘rta muddatli budjet strategik rejalashtirish tamoyili asosida ishlab chiqilishi hamda milliy va sohalar strategiyasi bilan soliq-budjet siyosatining ustuvor yo‘nalishlari o‘zaro muvofiq bo‘lishiga erishiladi;

– yil davomida budjetga kiritiladigan o‘zgartirishlarni samarali boshqarishga erishiladi.

3) Davlat xarajatlari va investitsiyalarining samaradorligi va natijadorligini oshirish;

– barcha vazirlik va idoralar budjet dasturlarini ishlab chiqish ko‘nikmalariga ega bo‘lib, budjet mablag‘larining natijadorligi oshiriladi;

– investitsion loyihalar taklifi ishlab chiqilganda, ularning saqlash va ekspluatatsiya xarajatlari yagona uslubiyot asosida baholanib, tegishli tartibda o‘rta muddatli budjet loyihasida inobatga olinishi ta‘minlanadi.

4) Budjetning samarali ijrosini ta‘minlash;

- soliq va bojxona ma'murchiligi yaxshilanishi orqali yashirin iqtisodiyotning ulushi qisqarishiga erishiladi. Shuningdek, budjet daromadlarining mamlakatimiz iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan mos ravishda ko'payishi ta'minlanadi;

- kelgusi yil konsolidatsiyalashgan budjet uchun pul oqimlari prognozlarining choraklik, kelgusi chorakning oyma-oy va kelgusi oyning haftalik taqsimotlarini tuzish amaliyoti joriy qilinadi;

- asosiy budjet hisobotlari Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimida avtomatik tarzda shakllanishi ta'minlanadi;

- davlat organlari va tashkilotlarida xatarlarni boshqarishga yo'naltirilgan samarali ichki nazorat tizimi yo'lga qo'yiladi. Ichki nazorat va ichki auditning huquqiy asoslari takomillashtiriladi, ichki audit xizmatlari xodimlarining salohiyatini oshirgan holda, yangi audit turlari joriy etiladi;

- davlat xaridlarini amalga oshirish jarayonida budjet mablag'laridan foydalanish bo'yicha samaradorlik oshiriladi.

5) Fiskal axborot sifati va hisobdorlikni yanada oshirish.

- davlat sektorida budjet hisobining xalqaro standartlari asosida ishlab chiqilgan milliy budjet hisobi standartlari amaliyotga joriy qilinadi;

- budjet hujjatlaridagi tahliliy ma'lumotlar xalqaro ilg'or tajribalarga muvofiq kengaytiriladi;

- davlat budjeti ijrosi jarayonida unga kiritiladigan o'zgartirish va qo'shimchalar tartibga solinib, ularning miqdorini kamaytirish ko'zda tutiladi.

2025–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasining ijrosini samarali va o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida vazirlikning tegishli buyrug'i qabul qilinib, vazirlik doirasida strategiyani amalga oshirish bo'yicha ishchi guruh tashkil etildi.

2025–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasi ijrosi bo'yicha hisobotlar har yilgi Fiskal strategiya va Budjetnomada aks ettirib boriladi.

6.1. Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish amaliyotiga o'tish

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida 2030-yilgacha “Natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish” (dasturiy budjetlashtirish) amaliyotiga to'liq o'tish belgilangan.

Shu bilan birga, 2025–2030-yillarda davlat moliyasini boshqarish tizimini takomillashtirish strategiyasida budjet mablag'lari samaradorligiga erishish uchun natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimini joriy etish ustuvor vazifa qilib belgilandi.

Shundan kelib chiqib, budjetni shakllantirishda natijaga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimi qamrovi bosqichma-bosqich kengaytirilib, 2030-yilga qadar to'liq dasturiy budjetlashtirish mexanizmiga o'tiladi. Bunda davlat xarajatlari samaradorligi va natijadorligini ta'minlash va baholash tartib-qoidalari kuchaytiriladi hamda jarayonning shaffofligi oshiriladi.

Budjet dasturlarini ishlab chiqish uslubiyoti va ular bilan bog'liq samaradorlik ko'rsatkichlari hamda hisobdorlik takomillashtiriladi. Shuningdek, mazkur yo'nalishda band bo'lgan vazirlik, idoralar va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari mutaxassis xodimlarining salohiyatini oshirish bo'yicha doimiy treninglar o'tkazish yo'lga qo'yiladi.

Dasturiy budjetlashtirish tizimiga o'tishning dastlabki bosqichida vazirlik va idoralarning budjet mablag'laridan foydalanishi bilan bog'liq maqsadli indikatorlari tasdiqlanib, ularning ijrosi to'g'risidagi hisobotlar Oliy Majlis palatalarida muhokama qilib kelinmoqda.

2026-2028-yillarda Dasturiy budjetlashtirish tizimiga o'tish bo'yicha amalga oshiriladigan istiqboldagi rejalar:

✓ Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Suv xo'jaligi vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Davlat aktivlarini boshqarish agentliklarining **2026-2028-yillar uchun budjet va budjetdan tashqari mablag'larini budjet dasturlari kesimida ishlab chiqish;**

✓ qolgan birinchi darajali budjet mablag'lari taqsimlovchilarning 2026–2028-yillar uchun budjet mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq **maqsadli indikatorlarini O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli qarori bilan tasdiqlash.** Bunda yuqorida qayd etilgan **8 ta pilot vazirlik va idoralarning eng muhim maqsadli indikatorlari budjet dasturlari kesimida tasdiqlanadi;**

✓ Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Transport vazirligi, Madaniyat vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Adliya vazirligi, Milliy statistika qo'mitalarining o'rta muddatga mo'ljallangan strategiyalari qabul qilinganligi munosabati bilan 2027-yil uchun Davlat budjeti loyihasini shakllantirishda ularning budjet va budjetdan tashqari mablag'larini budjet dasturlari kesimida ishlab chiqish;

✓ 2028-yildan boshlab vazirlik va idoralarning **investitsion xarajatlarini budjet dasturlari tarkibiga kiritgan holda tasdiqlash choralari**ni ko'rish;

✓ vazirlik va idoralarning mas'ul mutaxassislarini muntazam ravishda budjet dasturlarini ishlab chiqish, ijrosini monitoring qilish bo'yicha doimiy **o'quv seminarlarini tashkil qilish va institutsional salohiyatini oshirib borish**;

✓ xalqaro konsultantlar bilan birgalikda sinov natijalaridan kelib chiqib vazirlik va idoralarning budjet dasturlarini ishlab chiqish, tasdiqlash, monitoring qilish va hisobotini shakllantirish bo'yicha **amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirib borish va dasturiy tasniflashni joriy etish**;

✓ vazirlik va idoralarning budjet dasturlarini shakllantirish, tasdiqlash, ro'yxatga olish va ularning ijrosi **to'g'risidagi hisobotlarni raqamlashtirish hamda keng jamoatchilikka ochiqqligini ta'minlash tizimini ishga tushirish**;

✓ 2028-yilda sinov tariqasida 2 ta tuman misolida **mahalliy budjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarning** budjet dasturlarini ishlab chiqish;

✓ Budjet kodeksiga vazirlik va idoralarning **budjet dasturi tushunchalarini aks ettirish yuzasidan o'zgartirish kiritish bo'yicha taklif tayyorlash**.

2026-yil uchun Davlat budjeti loyihasida yuqorida qayd etilgan 8 ta vazirlik va idoraning 2026–2028-yillar uchun budjet va budjetdan tashqari mablag'lari budjet dasturlari kesimida ishlab chiqiladi.

Mazkur vazirlik va idoralarning budjet dasturlari hamda quyi dasturlari ro'yxati va ular uchun talab etiladigan mablag'lar miqdori **7-iloraga** muvofiq taqdim etiladi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasida dasturiy budjetlashtirish tizimini joriy etishda budjet mablag'larini taqsimlovchilarning budjet dasturlarini ishlab chiqish, monitoringini yuritish va ularning samaradorligini baholash tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq budjet dasturlari vazirlik va idoralar tomonidan ishlab chiqiladi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

Shuningdek, qolgan birinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchilarning navbatdagi 2026–2028-yillarga mo'ljallangan amaldagi tadbirlari hamda rivojlantirish dasturlariga talab etiladigan mablag'lar miqdori va maqsadli indikatorlari mazkur Budgetnomaning **8-ilovasiga** muvofiq shakllantirildi.

Vazirlik va idoralarga dasturiy budgetlashtirish tizimini joriy etish natijasida:

har-bir budget dasturida maqsadli indikatorlar belgilanadi hamda ushbu indikatorlar vazirlikning **strategiya va konsepsiyalariga muvofiq** kelgusi **uch yil** uchun ishlab chiqiladi;

budget dasturlarini moliyalashtirish manbasi etib **respublika budgeti, budgetdan tashqari jamg'armalar, DMJ va grant mablag'lari** belgilanadi;

maqsadli indikatorlarning ijrosi ichki audit xizmatlari tomonidan **baholab boriladi**;

Davlat budgetidan ajratilgan **mablag'larning samaradorligi va natijadorligi yuzasidan** vazirlik va idoralarning **Parlament oldidagi hisobdorligi oshiriladi**;

budget loyihasini tuzishda va uni qabul qilishda budget mablag'larini taqsimlovchilarning **moliyaviy mustaqilligi oshiriladi**;

vazirlik va idoralarning budget xarajatlari to'liq budget dasturlari bilan qamrab olinadi.

6.2. “Davlat moliyasi statistikasi-2014” xalqaro standartiga o'tish

O'zbekiston Respublikasi budjet tizimi budjetlari hisobotlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, jumladan XVJning Davlat moliyasi statistikasi qo'llanmasi (DMSQ-2014) talablariga uyg'unlashtirish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirildi. Jumladan:

Budjet tasnifini qo'llash bo'yicha Yo'riqnoma (ro'yxat raqami 2146, 2010-yil 11-oktabr) milliy budjet tasnifini davlat moliyasi tasnifining xalqaro standartlari bilan uyg'unlashtirish orqali takomillashtirildi;

XVJ axborot tizimlarida taqdim etib kelinadigan fiskal statistika hisobotlari ko'lamini kengaytirilib, unda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag'lari ijrosi va davlat dasturlariga ajratilgan tashqi qarz mablag'lari aks ettirildi;

XVJ texnik ko'magida davlat ulushi 50 foiz va undan yuqori bo'lgan korxonalar tahlil qilinib, bozor sharoitida faoliyat olib bormayotgan korxonalarni davlat boshqaruvi sektoriga qo'shish bo'yicha dastlabki ro'yxat shakllantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-fevraldagi PQ-75-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 8-apreldagi 210-son qaroriga muvofiq, XVJ axborot tizimlarida mamlakatning asosiy makroiqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarini aks ettirishni ta'minlash maqsadida joriy yilning dekabr oyiga qadar XVJning Ma'lumotlarni tarqatishning maxsus tizimi (MTMT)ga o'tish vazifasi belgilangan.

Mazkur tizimga o'tish uchun mas'ul tashkilotlar, jumladan, Milliy statistika qo'mitasi, Markaziy bank hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligi statistika ma'lumotlarini XVJning tegishli qo'llanmalariga muvofiqlashtirilgan holda oylik va choraklik hisobotlarni XVJga taqdim etib borishi lozim.

Bunda, Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat moliyasi statistikasi va Davlat sektori qarzi statistikasini ishlab chiqish, XVJga taqdim etish va takomillashtirish uchun mas'ul hisoblanadi.

Shunga asosan, JB mablag'lari hisobidan budjet ma'lumotlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish orqali XVJ DMSQ-2014 metama'lumotlarini shakllantirishga to'liq o'tishni amalga oshirish maqsadida **“Davlat moliyasi statistikasini takomillashtirish”** loyihasi ikki bosqichda amalga oshirilmoqda. Jumladan:

1-bosqichda quyidagilar amalga oshirildi:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda tegishli vazirlik va idoralar mutaxassislariga Davlat moliyasi statistikasi talablari bo'yicha trening va seminarlar o'tkazildi;

amaldagi budget tasnifi qayta ko'rib chiqilib, Davlat moliyasi statistikasi talablari bilan uyg'unlashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi;

Davlat moliyasi statistikasi sohasini takomillashtirish maqsadida "yo'l xaritasi" ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar taqdim etildi.

2-bosqichda XVJning MTMTga o'tish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirilmoqda:

davlat sektori qamrovini oshirish va Davlat moliyasi statistikasi ma'lumotlarini kengaytirish maqsadida Davlat ulushi mavjud korxonalarni sektorlash orqali ularni Davlat moliyasi statistikasi ma'lumotlari bilan qamrab olish;

davlat sektorining barcha moliyaviy aktivlari va majburiyatlarini qamrab oluvchi moliyaviy balansni tuzish va XVJning hisobotlarida aks ettirish;

XVJning Davlat moliyasi statistikasi yo'riqnomasi talablariga muvofiq Davlat sektori balansini shakllantirish:

– Davlat moliyasi statistikasi hisobotlarini shakllantirishni avtomatlashtirish bo'yicha ishlarni yakunlash;

– Davlat moliyasi statistikasi hisobotlarini ishlab chiqishni nazarda tutuvchi texnik yo'riqnomani ishlab chiqishi kutilmoqda.

Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi natijasida O'zbekiston Respublikasining xalqaro hamjamiyat uchun yagona fiskal statistika hisobotlarini ko'rish, foydalanish va boshqa mamlakatlarning iqtisodiy salohiyatini taqqoslash imkoniyatiga erishiladi.

6.3. Budjet xarajatlarini BRMMga uyg'unlashtirish

Bugungi kunda BMTTD bilan hamkorlikda Davlat budjeti xarajatlarining BRMMga muvofiqligi asosida tasniflash bo'yicha uslubiy qo'llanma ishlab chiqilmoqda. Unga ko'ra xarajatlarni BRMM asosida tasniflash 2 bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilmoqda:

- birinchi bosqich – yaqin istiqbolda, budjet tizimi budjetlari vazifalar jihatidan tasnifining kichik bo'limi darajasidagi har bir budjet qatorini BRMMga hissasi bo'yicha baholab chiqish;

- ikkinchi bosqich – uzoq istiqbolda, dasturiy budjetlashtirish tizimi joriy etilishi jarayonida amalga oshirilib, budjet dasturlarini tahlil qilish hamda BRMM maqsad va vazifalari bilan bog'lash orqali amalga oshiriladi.

Xarajatlarni BRMM asosida tasniflash birinchi bosqichda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan, ikkinchi bosqichda esa tarmoq vazirlik va idoralari tomonidan budjet dasturlarini shakllantirish vaqtida amalga oshiriladi. Xarajatlarni BRMM asosida tasniflashning birinchi bosqichida budjet satrlari BRMMga qo'shgan hissasi bo'yicha baholansa, ikkinchi bosqichda budjet dasturlari BRMMning vazifa va ko'rsatkichlariga hissasi bo'yicha baholanadi.

Xarajatlarning BRMM bo'yicha tahlili mazkur Budjetnomaning 3.2.4-kichik bo'limida keltirilgan.

6.4. “Yashil budjet” tamoyillarini bosqichma-bosqich joriy etish

Davlat budjeti xarajatlarining 2026-yilgi loyihasi “yashil” budjetlashtirish bo'yicha tasniflanadi hamda yashil tasniflash jarayonini “DMBAT-2”da avtomatlashgan holda amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

Xalqaro tashkilotlar ekspertlari bilan hamkorlikda dasturiy budjetlashtirish tizimi joriy etiladigan vazirlik va idoralarda “yashil” budjetlashtirish bo'yicha maqsadli ko'rsatkichlar ishlab chiqilmoqda.

BMTTD bilan hamkorlikda “O'zbekistonda yashil budjetlashtirishni joriy etish konsepsiyasi” ishlab chiqilmoqda.

Bunda 2030-yilgacha milliy xususiyatlarni hisobga olgan holda “yashil” budjetlashtirishga yondashuvni shakllantirish uchun amalga oshiriladigan islohotlar nazarda tutiladi. Shuningdek, qisqa muddatli (2025-2026-yillar), o'rta muddatli (2027-2028-yillar) va uzoq muddatli (2029-2030-yillar) istiqbolda 6 yo'nalishda “yashil” budjetlashtirish sohasida amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan islohotlar “yo'l xaritasi” belgilanmoqda.

Iqlim o'zgarishi siyosatiga yordam beradigan kelajakda amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi vazifalar rejalashtirilmoqda:

– xarajatlarni BRMM asosida tasniflash jarayonida yashil tasniflash natijalarini inobatga olib, xarajatlarni “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash uslubiyoti va mexanizmini takomillashtirish;

– 2026-yil uchun budjet loyihasida xarajatlarni “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash;

– xarajatlarni “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflashda budjet xarajatlarining vazifalar jihatidan tasnifidan foydalanilishi natijalarini DMBATga integratsiya qilish;

– dasturiy budjetlashtirish to'liq joriy etilganidan so'ng xarajatlarni “yashil” budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflashni DMBATga integratsiya qilish;

– “yashil” va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq budjet muhokamalari va budjet nazoratiga imkon beruvchi tizimni joriy etish;

– dasturiy budjetlashtirish islohotlari doirasida iqlim bilan bog'liq Davlat budjeti xarajatlari ijrosi to'g'risida hisobot berish mexanizmlari va tartiblarini ishlab chiqish;

– iqlim o'zgarishi bilan bog'liq va “yashil” budjetlashtirish bo'yicha institutsional salohiyatni rivojlantirish.

6.5. Gender tengligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar.

BMTning 2030-yilgacha kun tartibiga asosan belgilangan BRMning 5-maqsadi gender tengligiga bag'ishlangan bo'lib, O'zbekistonda gender tengligi maqsadlarini barcha sohalarga uyg'unlashtirish, shu qatorda davlat moliyasini boshqarish tizimiga ham bosqichma-bosqich joriy etish ishlari boshlangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi "2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida" SQ-297-IV-sonli qarorida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti loyihasini ishlab chiqish jarayonida gender jihatlarni hisobga olgan holda, ularni gender ekspertizasidan o'tkazish, "Genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish"ni rejalashtirish hamda uni budjet jarayonlariga bosqichma-bosqich joriy etish belgilangan.

Bu borada OTB, "BMT-Ayollar" tuzilmasi va Yevropa Ittifoqi bilan hamkorlik ishlari amalga oshirilmoqda. Hamkorlikda, Davlat budjeti xarajatlarini yashil budjetlashtirish tamoyillari asosida tasniflash hamda genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish bo'yicha uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqildi hamda vazirlikning 2024-yil 4-noyabrdagi 23-200-son buyrug'i bilan tasdiqlandi.

Mazkur uslubiy qo'llanmada Genderga yo'naltirilgan budjetlashtirishni O'zbekistonda joriy etishning konseptual asoslari belgilangan bo'lib, O'zbekistonda genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish 2 bosqichda joriy etilishi rejalashtirilgan: (i) amaldagi budjet tizimiga joriy etish; (ii) dasturiy budjetlashtirishda joriy etish.

Genderga yo'naltirilgan budjetlashtirishni amaldagi budjet tizimiga joriy etish bo'yicha Davlat budjeti mablag'larining erkaklar va xotin-qizlarga qanday ta'sir ko'rsatishini alohida tahlil qilish maqsadida joriy yildan boshlab UzASBO-2 dasturiy majmuasida budjet tashkilotlarining genderga aloqador ko'rsatkichlarini shakllantirish imkoniyatini yaratish ishlari boshlangan.

Bu, o'z navbatida, Davlat budjeti mablag'larining erkaklar va xotin-qizlarga ta'siri bo'yicha tahlil o'tkazish imkoniyatini, budjet sohasidagi gender tengsizliklarni aniqlashga imkon beradi.

Shuningdek, har chorak yakunlari bilan xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash maqsadlariga yo'naltirilgan Davlat budjeti mablag'lari tahlil qilinib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga ma'lumot kiritib borilmoqda.

49-jadval. Xotin-qizlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadlari uchun ajratilgan mablag'lar

	2025 yil 9 oylik ijro		2025-yil kutilayotgan ijro (mlrd so'm)
	Xotin-qizlar soni (ming kishi)	Moliyalashtirilgan mablag'lar (mlrd so'm)	
Jami	2 420,4	51 916,9	75 278,4
Budjet tashkilotlarida ishlovchi ayollarning ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlari uchun	1 311,3	47 095,1	67 957,7
Budjet tashkilotlarida ishlovchi ayollarning homiladorlik nafaqasi uchun ajratilgan mablag'lar	116,0	1 086,4	1 000
Xususiy sektorda ishlovchi ayollarning homiladorlik nafaqasi to'lovlari uchun	9,4	21,8	40
Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasidan ishsiz va ish qidirayotgan xotin-qizlarni kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun	102,5	182,0	267,7
Ipoteka kreditlari bo'yicha xotin-qizlarga to'lab berilgan boshlang'ich badal to'lovlari uchun	6,2	184,8	254,6
Bola tug'ilganda to'lanadigan bir martalik to'lov (suyunchi puli) uchun	179,5	149,4	240,8
Kam ta'minlangan oilalarga bolalar nafaqasi va moddiy yordam to'lovlari uchun (oilalar)	695,5	3 197,4	5 517,6

O'zbekistonda genderga yo'naltirilgan budjetlashtirishning joriy etilishi natijasida Davlat budjeti mablag'larining erkaklar va xotin-qizlar uchun adolatli taqsimlanishiga hamda davlat moliyasini boshqarishda shaffoflik, hisobdorlik va samaradorlikni oshirishga erishiladi.

Mazkur sohadagi islohotlarni kelgusi yillarda ham davom ettirish va amaldagi uslubiy qo'llanmalarni takomillashtirib borish rejalashtirilgan.

Shuningdek, genderga yo'naltirilgan budjetlashtirishni bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha qo'yidagi tadbirlar rejalashtirilgan:

- genderga yo'naltirilgan budjetlashtirishni amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tegishli yo'l xaritasini ishlab chiqish;

- genderga yo'naltirilgan budjetlashtirishni dasturiy budjetlashtirishga joriy etish bo'yicha xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda sinov tariqasida dasturiy budjetlashtirish joriy etiladigan pilot vazirliklarda gender tengligiga doir namunaviy maqsadli ko'rsatkichlarini ishlab chiqish;

– vazirlik va idoralar tomonidan genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish bo'yicha tegishli tahliliy ma'lumotlarni Iqtisodiyot va moliya vazirligiga davriy taqdim etib borish mexanizmini ishlab chiqish;

– genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish tizimini budjet jarayoniga to'liq tatbiq etish uchun budjet sirkulyariga qo'shimchalarni ishlab chiqish;

– xorijiy ekspertlar bilan hamkorlikda genderga yo'naltirilgan budjetlashtirish uslubiyoti yuzasidan vazirlik va idoralar uchun amaliy seminarlar o'tkazish.

6.6. Budjetni shakllantirishda fuqarolar ishtirokini yanada oshirish

2026-yilda fuqarolar budjeti yo‘nalishida amalga oshiriladigan asosiy islohotlar:

a) Deputat tashabbuslari uchun moliyalashtirish tizimini joriy etish. Bunda **har bir deputat saylov okrugida** aholining kundalik hayoti uchun muhim, ammo **g‘olib bo‘lmagan ikki loyihani** tanlab, ularni Davlat budjeti hisobidan amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayon “Ochiq budjet” portali orqali jamoatchilikka ochiq va shaffof tarzda yuritiladi.

*Bu yangilik orqali deputatlar aholi ehtiyojlariga eng yaqin bo‘lgan, lekin ovoz berishda **g‘olib chiqmagan dolzarb loyihalarni** amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Natijada saylovchilarning ishonchi oshadi, deputatlar bilan aholi o‘rtasidagi muloqot kuchayadi.*

b) “Ochiq budjet” portalining funksionalini kengaytirish. Bunda deputat tashabbusi asosida moliyalashtiriladigan loyihalar uchun **alohida sahifa tashkil etiladi**, barcha loyihalarning jamoatchilik uchun ochiq ro‘yxati yuritiladi.

Deputat tashabbusi bilan moliyalashtiriladigan barcha loyihalar yagona axborot maydonida joylashtirilishi orqali jarayon to‘liq ochiq va shaffof bo‘ladi. Bu aholiga qaysi deputat qanday loyiha amalga oshirganini ko‘rish imkoniyatini beradi va jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi.

“DEPUTATLAR TASHABBUSI” amaliyotini joriy etish

2026 yildan boshlab:



Oliy Majlis **Qonunchilik palatasining** deputatlariga **har mavsum bittadan** loyihani qo‘shimcha ravishda g‘olib qilish imkoniyati beriladi



ovoz berish yakunida **g‘olib bo‘la olmagan loyihalar orasidan** o‘ziga tegishli okrugdan bitta loyihani tanlab moliyalashtiradi



g‘olib loyihalar “Ochiq budjet” portalida alohida **“deputatlar tashabbusi”** sifatida aks etadi



har yili har bir deputat uchun **3,3 mlrd so‘m** ajratiladi

d) Aholi va davlat o'rtasida **sheriklik asosida** moliyalashtirish amaliyotini joriy qilish. Bunda 2026-yildan boshlab, aholi tomonidan loyiha qiymatining **kamida 50 foizi** ixtiyoriy tarzda moliyalashtirilgan taqdirda, qolgan qismi Davlat budjeti hisobidan qoplanadi.

Loyihalarning yarmi aholi hissasi bilan moliyalashtirilganda, odamlar o'z mablag'lari bilan ishtirok etib, natijaga bo'lgan qiziqish va mas'uliyatni kuchaytiradi. Davlat esa aholi tashabbusini qo'llab-quvvatlash orqali hamjihatlik va sheriklik muhitini yaratadi. Bu mexanizm kraudfanding tamoyillariga yaqin bo'lib, samaradorlikni oshiradi.

2026 yildan boshlab:

ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni aholi va davlat o'rtasida **sherikchilik asosida** moliyalashtirish joriy etish

aholi **ixtiyoriy ravishda** loyiha qiymatining **50 foiz** qismini moliyalashtirsa loyiha **avtomatik ravishda g'olib deb topiladi** va **qolgan 50 foizi** respublika byudjetidan ajratish

"eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla"larga sherikchilik asosida loyihalarni moliyalashtirishda aholi tomonidan loyihaning **25 foizini** moliyalashtirish yetarli bo'lishini belgilash



"eng yaxshi soliq to'lovchi mahalla"larni **aniqlash me'zonlari** bir oy muddatda Soliq qo'mitasi tomonidan Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda ishlab chiqiladi



ushbu mahallalar uchun tashabbusli byudjet doirasida ketma-ket ikki marotaba g'olib bo'lganda **"Tanaffus" qo'llanmaydi**

e) Parlament nazoratini kuchaytirish. Bunda tashabbusli budjet jarayonlarini muvofiqlashtirish va loyihalarning ijrosini nazorat qilish uchun maxsus parlament komissiyasi tashkil etiladi, bu esa jarayonning ochiqligi va samaradorligini ta'minlaydi.

Maxsus parlament komissiyasining tashkil etilishi tashabbusli budjet jarayonlarida qonunchilik palatasi nazoratini mustahkamlaydi. Bu loyihalarning amalga oshirilishida kechikishlar, mablag'larning maqsadsiz sarflanishi kabi muammolarning oldini oladi.

6.7. Davlat sektorida ichki nazorat va ichki auditni takomillashtirish

Erishilgan natijalar

Soʻnggi yillarda davlat ichki nazorat va ichki audit tizimini takomillashtirish orqali budjet tizimi budjetlari xarajatlarining samaradorligini oshirish, budjet qonunchiligi buzilishi profilaktikasini kuchaytirish hamda masofaviy auditning kengayishiga katta eʼtibor qaratilmoqda.

Olib borilayotgan islohotlar natijasida 2024-yilda PEFA (Davlat moliyasini boshqarishni Davlat xarajatlari va moliyaviy hisobdorlik mezonlari asosida baholash) mezonlari boʻyicha baholashda “ichki audit” komponenti B+ (yaxshi) darajasida baholandi.

Bugungi kunga qadar davlat organlari va tashkilotlarida ichki nazorat va xavflarni boshqarish hamda ichki audit xizmatlari faoliyatiga oid 10 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mazkur hujjatlar bilan ichki audit milliy standartlari, ichki audit xizmatlarining vazifa va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, hisobdorligi, ularning faoliyatini baholash hamda ichki auditorlarni sertifikatlash, malakasini oshirish va samaradorligini baholash tartiblari belgilandi.

Shu bilan birga davlat organlari va tashkilotlarida samarali ichki nazorat va xavflarni boshqarish tizimlarini joriy etish maqsadida “2025 – 2027-yillarda respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida ichki nazorat tizimini yanada takomillashtirish konsepsiyasi” hamda Moliyaviy va boshqa xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish tartibi toʻgʻrisida nizom va Xavflarni boshqarish qoʻmitasi toʻgʻrisida namunaviy nizom Hukumat qarorlari bilan tasdiqlandi.

Hozirda tegishli qonunchilik hujjatlari bilan 61 ta davlat organlari va tashkilotlarida, shu jumladan, Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklarida ichki audit xizmatlari tashkil etildi.

Birinchi darajali budjet mablagʻlarini taqsimlovchilarning budjet mablagʻlaridan foydalanish bilan bogʻliq maqsadli indikatorlarini ichki audit xizmatlari tomonidan baholash amaliyoti yoʻlga qoʻyildi.

Ichki audit xizmatlari xodimlari malakasini sertifikatlashni tashkil etish va ularning malakasini oshirish tizimi yoʻlga qoʻyilishi natijasida bugungi kunga qadar 860 dan ortiq talabgor malaka imtihonini muvaffaqiyatli topshirib, ichki audit milliy sertifikatiga ega boʻldi.

Bundan tashqari, 2024-yilda xavf tahlili asosida 15 ta vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari tanlab olinib, ularda ichki audit faoliyatini sohaga oid qonunchilik hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash hamda faoliyatni takomillashtirib borish maqsadida baholash amalga oshirildi.

Baholash davomida vazirlik va idoralarda ichki audit xizmatlari faoliyatini tashkil etish, tegishli ichki hujjatlarni qabul qilish, ichki audit tadbirlarini xavf tahlili asosida o'tkazish bo'yicha uslubiy hamda amaliy yordam ko'rsatildi. Shuningdek, baholash natijalari yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga yarim yillik va yillik hisobotlar taqdim etildi.

Davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit faoliyati bilan jamoatchilikni tanishtirib borish, tegishli ma'lumotlarni ochiqlash maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-saytida maxsus "Davlat ichki auditi" bo'limi ochildi. Unda ichki audit faoliyatiga oid qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, qo'llanmalar, ichki audit malaka sertifikatini reyestri, ichki audit faoliyatini baholash hamda xalqaro hamkorlikka oid ma'lumotlar joylashtirilib borilmoqda.

Shu bilan birga, davlat sektorida ichki nazorat va ichki audit tizimini rivojlantirish bo'yicha **2026 - 2028-yillarda quyidagi ishlarni amalga oshirish rejalashtirilmoqda:**

- davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit sohasiga oid munosabatlarni taptibga solish, amaldagi normativ-huquqiy normalarni mustahkamlash, birlashtirish va tizimlashtirish maqsadida Davlat ichki nazorati va ichki audit to'g'risidagi qonun loyihasini ishlab chiqish;

- davlat organlari va tashkilotlarida ichki nazoratni tashkil etishning huquqiy va tashkiliy asoslarini belgilovchi "Ichki nazoratni tashkil etish qo'llanmasi" loyihasini ishlab chiqish va belgilangan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritish;

- amaldagi ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlash va malakasini oshirish tizimini xalqaro standartlar asosida qayta ko'rib chiqish va takomillashtirish;

- ichki audit faoliyatini raqamlashtirish, faoliyatga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish maqsadida "Ichki audit xizmati faoliyatini raqamlashtirish konsepsiyasi" va uni amalga oshirish "Yo'l xaritasi" loyihasini ishlab chiqish;

- ichki audit faoliyati yo'lga qo'yilmagan davlat organlari va tashkilotlarida ichki audit faoliyatini autsorsing asosida amalga oshirish tartibini belgilash;

– davlat organlari va tashkilotlarining ichki audit xizmatlari faoliyatini tartibga soluvchi qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatini ichki audit xizmatlari xodimlariga yetkazish maqsadida, xalqaro va milliy darajadagi seminarlar, davra suhbatlari hamda treninglar tashkil etish.

6.8. Natijaga asoslangan moliyalashtirish (PforR) dasturiga o'tish islohotlari

Davlat dasturlari natijadorligini ta'minlash va samaradorligini oshirish, moliyaviy intizomni kuchaytirish hamda islohotlarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash maqsadida XMlarning **Natijaga asoslangan moliyalashtirish** (PforR – Program for Results) instrumentidan foydalangan holda moliyalashtirishga bosqichma-bosqich o'tish choralari ko'riladi.

Bunda (i) umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish; (ii) birlamchi tibbiy xizmat ko'rsatish tizimini isloh qilish; (iii) yo'l infratuzilmasini yaxshilash; (iv) irrigatsiya tizimini yaxshilash; (v) hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish; (vi) mamlakatning turizm salohiyatini oshirish sohalariga ajratiladigan mablag'lar PforR instrumentidan foydalangan holda moliyalashtirishga ustuvorlik beriladi.

PforR – JB tomonidan davlat dasturlarini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladigan moliyalashtirish mexanizmi hisoblanadi. Uning asosiy xususiyati shundaki, mablag'lar faqat belgilangan va aniq natijalarga erishish uchun ajratiladi.

Bu yondashuv moliyalashtirishni bevosita natijadorlik va samaradorlik bilan bog'laydi hamda an'anaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirish (Investment Project Financing) va rivojlanish siyosatini moliyalashtirish (Development Policy Financing) instrumentlaridan farq qiladi.

XMlarning natijaga asoslangan moliyalashtirish dasturlari yordamida davlat resurslari maqsadli yo'naltiriladi, dastur natijalari esa doimiy monitoring va baholash orqali nazorat qilinadi. Bu esa islohotlarni amalga oshirishda hisobdorlik va shaffoflikni oshiradi.

XMlarning natijaga asoslangan moliyalashtirish instrumentini qo'llashdagi asosiy talablardan biri moliyalashtiriladigan dastur Hukumatning amaldagi strategiyasiga mos bo'lishi va aniq natijalarga bog'langan ko'rsatkichlarga ega bo'lishi kerak. Shu bilan birga, dastur texnik jihatdan amalga oshiriladigan darajada tayyorlangan bo'lishi va mamlakatning rivojlanish maqsadlariga muvofiq bo'lishi talab etiladi.

Asosiy tushunchalar

Benchmark obligatsiyalari – bozorda yuqori likvidlikka ega va foiz stavkalari uchun etalon (me'yor) vazifasini bajaradigan g'aznachilik obligatsiyalari.

Birlamchi dilerlik – davlat qimmatli qog'ozlarini joylashtirish va ularning ikkilamchi bozorda aylanishini ta'minlovchi maxsus moliyaviy institutlar tizimi.

BRM (Barqaror rivojlanish maqsadlari) – Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan kambag'allik, tengsizlik, sog'liq va atrof-muhit bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish hamda farovonlikni ta'minlashga qaratilgan choralari.

Budjet xarajatlarining samaradorlik indikatorlari – budjet xarajatlari hisobidan hamda rivojlantirish dasturlarida belgilangan maqsadlarga erishiladigan sifat va miqdor ko'rsatkichlarini baholashda foydalaniladigan ko'rsatkich.

Ichki nazorat – xo'jalik operatsiyalarini amalga oshirishning qonuniyligini, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligini, aktivlarning but saqlanishini ta'minlash, talon-toraj qilish hollari va xatolarning oldini olish hamda aniqlash maqsadida tashkil etilgan chora-tadbirlar tizimi.

Dasturiy budjetlashtirish – istiqbolli davlat dasturlarini hisobga olgan holda, strategik maqsadlar asosida ishlab chiqiladigan dasturlarni amalga oshirish natijalari bilan davlat xarajatlarini taqsimlash jarayonining bog'liqligini ta'minlovchi budjetni shakllantirish, ijro etish va ijrosini nazorat qilish metodologiyasi.

Davlatning to'g'ridan-to'g'ri majburiyati – davlat sherigi tomonidan DXSH bitimida belgilangan hamda miqdorlari, shartlari va muddatlari aniq bo'lgan, to'lanishi lozim to'lovlar bo'lib, ularning tarkibiga bir martalik avans ko'rinishida, shartnoma muddati amal qilishi davomida to'lanadigan doimiy to'lovlar, kelishilgan natijalarga erishilganligi uchun to'lanadigan to'lovlar, muayyan xizmatdan foydalanish darajasidan kelib chiqib, to'lanadigan to'lovlar yoki subsidiyalari kiradi.

Davlat budjetining birlamchi taqchilligi/profitsiti – muayyan davr uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti xarajatlaridan davlat qarzigacha xizmat ko'rsatish bo'yicha foiz to'lovlarni chiqarib tashlagan holda hisoblanadigan Davlat budjeti taqchilligi/profitsiti.

Ijtimoiy himoya yagona reyestri – ijtimoiy himoyani amalga oshirish uchun inson omilisiz oilaning (fuqaro) ijtimoiy himoyaga muhtojligini o'zi aniqlaydigan, ijtimoiy himoyani amalga oshiradigan va uni nazorat qiladigan, xarajatlar hisobini yuritadigan avtomatlashgan axborot tizimidir.

Umumiy fiskal balans — O'zbekiston Respublikasining konsolidatsiyalashgan budjetini hamda davlat dasturlarini amalga oshirish uchun chetdan jalb qilingan va O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti hisobidan qoplanadigan qarz mablag'lari evaziga amalga oshiriladigan xarajatlarni o'z ichiga olgan jamlanma balans;

Ichki audit – vazirlik va idoralarda budget intizomini mustahkamlash, budget to'g'risidagi qonunchilik buzilishi holatlarining oldini olish, budget tizimi budgetlari hamda qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalardan foydalanish samaradorligini baholashga qaratilgan mustaqil faoliyat.

Konsolidatsiyalashgan budget – budget tizimi budgetlarining barcha tushumlari va xarajatlarini hisobga olish va tahlil qilish maqsadida shakllantiriladigan budget. Konsolidatsiyalashgan budget tarkibiga Davlat budgeti, DMJ budgetlari, budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg'armalari va O'zbekiston Respublikasi TTJ mablag'lari kiradi.

Kambag'al oilalar reyestri – aholining ehtiyojmand qatlamlarini aniqlash va ularga davlat yordamini samarali yetkazish maqsadida tashkil etilgan axborot moduli.

Natijaga yo'naltirilgan budget – moliyalashtirish tuzilmasi va hajmlarining budget mablag'lari oluvchilarning faoliyati natijalari bilan bog'liq bo'lgan budgetni rejalashtirish tizimi

Gender tenglikka yo'naltirilgan budgetlashtirish – fiskal siyosat va davlat moliyaviy boshqaruvi instrumentlaridan foydalangan holda, gender tenglikni ta'minlashga hamda jamiyatda xotin-qizlar manfaatlariga xizmat qiluvchi budgetlashtirish jarayoni.

“Yashil” budgetlashtirish – budget xarajatlarini iqlim o'zgarishlariga qarshi choralarga yo'naltirishni nazarda tutuvchi budget jarayoni.

Fiskal qoidalar – davlat moliyasi holatini, ya'ni davlat qarzi, taqchilligi, davlat xarajatlari va daromadlarini tavsiflovchi miqdoriy maqsadli mo'ljallar va fiskal indikatorlar orqali ifodalanadigan soliq-budget siyosatining uzoq muddatli cheklovlari.

Fiskal siyosat – davlatning soliq solish va budget xarajatlari sohasidagi iqtisodiyotni tartibga solish maqsadida olib boradigan siyosati.

“Yashil” audit – vazirlik va idoralarga budgetdan “yashil maqsadlar” uchun ajratilgan mablag'lardan manzilli foydalanilishini baholash tizimi.

YADMB (“Yashil” davlat moliyaviy boshqaruvi) – davlat moliyasini boshqarish jarayonlari va tizimlarini (ayniqsa, budget jarayoni) iqlim o'zgarishlariga qarshi kurashish choralari bilan uyg'unlashtiruvchi tizim.

“Yashil” iqtisodiyot – atrof-muhitga zarar yetkazmagan holda barqaror rivojlanishni ta'minlovchi iqtisodiyot.

“Yashil” tasniflash – budget xarajatlarining atrof-muhitga ijobiy, salbiy yoki neytral jihatdan ta'sirini tasniflash jarayoni

PIMA (Public investment management assesment) – Davlat investitsiya boshqaruvi samaradorligini baholash tizimi.

O'zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

		2023-yil amalda	2024-yil amalda	2025-yil kutilma	2026-yil prognoz	2027-yil mo'ljal	2028-yil mo'ljal
1	YIM, mlrd so'm	1 204 485	1 454 574	1 721 197	1 976 270	2 256 254	2 575 809
	<i>YIMning real o'sishi, o'tgan yilga nisbatan foizda</i>	<i>6,3</i>	<i>6,5</i>	<i>7,0</i>	<i>6,6</i>	<i>6,8</i>	<i>6,9</i>
	<i>YIM deflyatori, foizda</i>	<i>13,8</i>	<i>13,3</i>	<i>10,6</i>	<i>7,7</i>	<i>6,9</i>	<i>6,8</i>
2	Eksport, mln AQSH doll.	24 869	27 270	32 385	36 615	41 805	47 915
	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>26,0</i>	<i>9,7</i>	<i>18,8</i>	<i>13,1</i>	<i>14,2</i>	<i>14,6</i>
	Import, mln AQSH doll.	38 659	39 968	44 045	47 400	51 100	54 950
	<i>o'sish sur'ati, foizda</i>	<i>25,6</i>	<i>3,4</i>	<i>10,2</i>	<i>7,6</i>	<i>7,8</i>	<i>7,5</i>
3	Tashqi savdo balansi, mln AQSH doll.	-13 790	-12 698	-11 660	-10 785	-9 294	-7 035
	<i>YIMga nisbatan, foizda</i>	<i>-13,4</i>	<i>-11,0</i>	<i>-8,6</i>	<i>-6,9</i>	<i>-5,4</i>	<i>-3,7</i>
4	Sanoat, mlrd so'm	658 992	880 199	1 044 206	1 190 904	1 348 413	1 527 527
	<i>o'tgan yilga nisbatan, foizda</i>	<i>6,3</i>	<i>6,5</i>	<i>6,7</i>	<i>6,4</i>	<i>6,7</i>	<i>6,9</i>
5	Qurilish, mlrd so'm	202 819	263 679	316 925	374 398	433 241	498 781
	<i>o'tgan yilga nisbatan, foizda</i>	<i>7,0</i>	<i>8,8</i>	<i>12,7</i>	<i>10,2</i>	<i>8,3</i>	<i>8,0</i>
6	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari, mlrd so'm	426 030	462 839	521 888	580 607	645 415	716 245
	<i>o'tgan yilga nisbatan, foizda</i>	<i>4,1</i>	<i>3,1</i>	<i>4,1</i>	<i>4,2</i>	<i>4,3</i>	<i>4,3</i>
7	Bozor xizmatlari, mlrd so'm	649 806	827 660	1 042 036	1 289 898	1 583 365	1 941 707
	<i>o'tgan yilga nisbatan, foizda</i>	<i>14,1</i>	<i>14,2</i>	<i>13,3-15,4</i>	<i>14,5</i>	<i>14,3</i>	<i>14,4</i>
8	Inflyatsiya, o'tgan yil yakuniga nisbatan, foizda	8,8	9,8	7,8-7,9	7,0	5-6	5,0

2-ilova

Davlat budjeti daromadlari*

mlrd so'm

	2024-yil ijro		2025-yil kutilma*		2026-yil prognoz	
	summa	YIMga nisbatan, foizda	summa	YIMga nisbatan, foizda	summa	YIMga nisbatan, foizda
YIM	1 454 574		1 721 197		1 976 270	
Jami Davlat budjeti daromadlari	274 424	18,9	345 225	20,1	368 918	18,7
1. Bevosita soliqlar – jami	90 877	6,2	112 875	6,6	116 305	5,9
1.1 Foyda solig'i	52 664	3,6	68 299	4,0	64 513	3,3
1.2 Aylanmadan olinadigan soliq	2 829	0,2	3 188	0,2	2 827	0,1
1.3 Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	35 384	2,4	41 389	2,4	48 965	2,5
2. Bilvosita soliqlar – jami	88 342	6,1	106 929	6,2	124 601	6,3
2.1 QQS	59 281	4,1	74 161	4,3	88 859	4,5
2.2 Aksiz solig'i	19 060	1,3	21 315	1,2	22 818	1,2
2.3 Bojxona boji	10 001	0,7	11 453	0,7	12 924	0,7
3. Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	36 363	2,5	43 872	2,5	45 777	2,3
3.1 Mol-mulk solig'i	6 805	0,5	7 927	0,5	8 999	0,5
3.2 Yer solig'i	8 216	0,6	9 709	0,6	10 936	0,6
3.3 Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq	20 170	1,4	25 399	1,5	24 689	1,2
3.4 Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 173	0,1	837	0,0	1 153	0,1
4. Boshqa daromadlar va soliq bo'lmagan tushumlar	58 842	4,0	81 550	4,7	82 235	4,2

* 2025 yilda tushumlar miqdori iqtisodiy faollikni oshishi bilan bir qatorda, oltin narxining prognozga nisbatan keskin o'sishi bilan izohlanadi; 2026 yil uchun oltin narxi konservativ yondashuv bilan olingan va bu budjet daromadlarida o'z aksini topgan.

Davlat budjeti xarajatlari

mld so'm

	2024-yil ijro		2025-yil kutilma		2026-yil prognoz		2027-yil mo'ljal*		2028-yil mo'ljal*	
	summa	Jamiga nisbatan, foizda	summa	Jamiga nisbatan, foizda	summa	Jamiga nisbatan, foizda	summa	Jamiga nisbatan, foizda	summa	Jamiga nisbatan, foizda
Jami Davlat budjeti xarajatlari	310 927,4	100,0	388 898,2	100,0	402 437,0	100,0	460 652,7	100,0	527 934,0	100,0
shundan, Markazlashqan investitsiya xarajatlari	19 736,4	6,3	20 694,6	5,3	18 500,0	4,6	22 066	4,8	25 089	4,8
1. Ijtimoiy soha xarajatlari	174 350,5	56,1	205 750,3	52,9	220 004,7	54,7	256 241	55,6	293 932	55,7
shu jumladan:										
1.1 Ta'lim	77 198,9	24,8	92 220,9	23,7	100 307,1	24,9	121 676	26,4	141 238	26,8
1.2 Sog'liqni saqlash	37 600,1	12,1	43 882,4	11,3	48 873,5	12,1	55 639	12,1	63 741	12,1
1.3 Madaniyat	3 256,2	1,0	4 339,9	1,1	4 397,7	1,1	4 926	1,1	5 196	1,0
1.4 Sport	3 660,6	1,2	4 002,1	1,0	3 716,4	0,9	4 040	0,9	4 337	0,8
1.5 Fan	2 056,1	0,7	2 182,9	0,6	2 425,6	0,6	2 772	0,6	3 003	0,6
1.6 Nafaqalar, moddiy yordam va kompensatsiya to'lovlari	15 317,9	4,9	16 756,2	4,3	17 005,9	4,2	19 057	4,1	21 755	4,1
1.7 Aholiga past tariflar qo'llanilishi hisobiga energetika va transport korxonalariga yetkazilgan zararni qoplash xarajatlari	15 258,1	4,9	15 587,0	4,0	13 396,8	3,3	13 298	2,9	13 103	2,5
1.8 Aholi bandligi va farovonligini oshirish bilan bog'liq xarajatlar	1 680,6	0,5	2 708,8	0,7	2 427,0	0,6	3 846	0,8	3 856	0,7
1.9 Pensiya jamg'armasiga transfertlar	16 270,6	5,2	20 246,0	5,2	23 000,0	5,7	20 000	4,3	18 000	3,4
1.10 Ipoteka krediti asosida sotib olinadigan uy-joylar uchun subsidiyalari	1 409,9	0,5	2 505,5	0,6	2 701,5	0,7	2 972	0,6	3 269	0,6
2. Iqtisodiyot xarajatlari	40 656,2	13,1	57 854,4	14,9	54 559,6	13,6	60 226	13,1	69 142	13,1
shu jumladan:		0,0		0,0		0,0		0,0		0,0
2.1 Suv xo'jaligi ekspluatatsiyasi xarajatlari	9 381,6	3,0	9 956,0	2,6	10 374,3	2,6	11 173	2,4	12 393	2,3
2.2 Aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish hamda uy-joy kommunal xizmatlari bilan bog'liq xarajatlar	5 059,3	1,6	5 973,3	1,5	5 573,8	1,4	6 105	1,3	7 025	1,3
2.3 Tashabbusli budjet	5 100,4	1,6	6 706,5	1,7	6 000,0	1,5	6 500	1,4	7 000	1,3
2.4 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlariga asosan hududlarni va tarmoqlarni rivojlantirish uchun xarajatlar	2 314,1	0,7	3 300,0	0,8	1 500,0	0,4	2 000	0,4	2 500	0,5
2.5 "Kambag'allikdan farovonlik sari" dasturini amalga oshirish uchun rejalashtirilgan mablag'lar	500,0	0,16	4 770,0	1,2	1 000,0	0,2	1 500	0,3	2 000	0,4
2.6 "Yangi O'zbekiston" qiyofasidagi tuman (shahar)lar va mahallalarni rivojlantirish uchun rejalashtirilgan mablag'lar					3 900,0	1,0	5 000	1,1	6 000	1,1
3. Davlat boshqaruvi, adliya, prokuratura va sud organlarini saqlash xarajatlari	20 182,6	6,5	21 121,1	5,4	21 422,0	5,3	23 566	5,1	26 653	5,0
4. O'zini o'zi boshqarish organlarini saqlash hamda Davlat tomonidan NNT va fuqarolik jamiyatning boshqa inistitutlarini qo'llab-quvvatlash xarajatlari	1 270,9	0,4	1 377,7	0,4	1 530,8	0,4	1 530	0,3	1 539	0,3
5. Zaxira jamg'armalari	2 779,9	0,9	3 030,1	0,8	2 097,3	0,5	2 268	0,5	2 495	0,5
6. Jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash bo'yicha markazlashtirilgan jamg'armaga transfertlar	600,0	0,19	740,0	0,19	800,0	0,20	750	0,16	800	0,15
7. Davlat qarziga xizmat ko'rsatishning foiz xarajatlari	14 537,4	4,7	20 022,8	5,1	24 551,1	6,1	30 583	6,6	35 480	6,7
8. Boshqa xarajatlar	56 550,0	18,2	79 001,7	20,3	77 471,5	19,3	85 488	18,6	97 893	18,5

* 2027-2028-yillar uchun Davlat budjeti parametrlarini shakllantirishda aniqlik kiritiladi.

Davlat maqsadli jamg'armalari budjetlarining 2026-2028-yillar uchun daromadlari va xarajatlari

mlrd so'm

T/r	Jamg'armalar	Yil boshi (oxiri)ga qoldiq	2026-yil uchun prognoz				Yil boshi (oxiri)ga qoldiq	2027-yil uchun mo'ljal*				Yil boshi (oxiri)ga qoldiq	2028-yil uchun mo'ljal*				Yil boshi (oxiri)ga qoldiq
			Daromad	Davlat budjetidan transfert	Xarajat	Depozit va ssudalar		Daromad	Davlat budjetidan transfert	Xarajat	Depozit va ssudalar		Daromad	Davlat budjetidan transfert	Xarajat	Depozit va ssudalar	
JAMI — Davlat maqsadli jamg'armalari		16 659,7	91 368,0	73 586,5	160 708,6	188,8	20 716,7	102 990,2	75 717,7	176 680,0	24,5	22 720,0	117 988,2	78 837,4	192 739,2	-88,5	26 894,9
1	"El-yurt umidi" jamg'armasi			700,0	700,0				850,0	850,0				950,0	950,0		
2	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo'yicha respublika maqsadli jamg'armasi			800,0	800,0				750,0	750,0				800,0	800,0		
3	budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi	3 943,0	64 692,7	23 000,0	86 093,2		5 542,5	74 996,4	20 000,0	95 109,5		5 429,4	87 849,8	18 000,0	104 806,9		6 472,3
4	Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi	7,9	231,5	150,0	381,5		7,9	266,5	170,0	436,5		7,9	307,8	180,0	487,8		7,9
5	Migratsiya jamg'armasi	88,4	108,5	50,0	218,0	25,0	3,9	114,7	100,0	218,0	-20,0	20,6	124,6	100,0	218,0	-5,0	32,2
6	Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg'armasi	125,6	3 440,0		3 507,0		58,6	2 343,1		2 401,8		0,0	2 577,1		2 577,1		0,0
7	Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi		320,0	100,0	420,0			350,0		345,6		4,4	360,0		334,2		30,2
8	Davlat qarzig'a xizmat ko'rsatish bo'yicha kafolat jamg'armasi	1 375,4	2 268,5		1 279,9		2 364,0	1 983,3		1 406,0		2 941,3	2 142,3		1 421,0		3 662,6
9	budjetdan tashqari Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiylashtirish jamg'armasi	257,8	15 015,0		15 015,0		257,8	17 285,0		17 285,0		257,8	18 255,0		18 255,0		257,8
10	Davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi	54,2	5,8	35 646,5	35 647,5		58,9	7,0	38 912,5	38 913,5		64,9	8,0	42 803,7	42 804,7		71,9
11	Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasi**	8 362,2	600,0	2 000,0	830,0		10 132,2	700,0	2 000,0	950,0		11 882,2	850,0	2 000,0	1 100,0		13 632,2
12	Avtomobil yo'llarini rivojlantirish maqsadli jamg'armasi	339,6		6 732,0	6 732,0		339,6		7 185,2	7 185,2		339,6		7 903,7	7 903,7		339,6
13	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	14,0		1 200,0	1 200,0		14,0		1 300,0	1 300,0		14,0		1 400,0	1 400,0		14,0
14	Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	41,5	108,5	650,0	800,0		0,0	114,5	900,0	1 014,5		0,0	120,9	1 000,0	1 120,9		0,0
15	Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi	1 410,2	1 847,7		1 988,2		1 269,7	1 762,8		2 182,6		849,9	1 907,0		1 664,3		1 092,6
16	Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi	6,3	50,0	708,0	764,3		0,0	50,0	700,0	750,0		0,0	50,0	750,0	800,0		0,0
17	Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasi	5,8	199,5	150,0	138,0	155,2	62,1	229,3	150,0	151,8	77,8	211,9	264,8	150,0	167,0	12,5	447,2
18	Agrosanoatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi		111,5	150,0	289,0	-27,5		111,5	150,0	278,4	-16,9		111,5	150,0	286,8	-25,3	
19	Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi	548,4	151,4		18,8	132,6	548,4	158,6		19,8	90,5	596,7	147,0		21,3	51,8	670,6
20	Farmatsevtika tarmog'ini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg'armasi	53,4	254,8		254,8		53,4	255,7		229,3		79,8	279,8		250,5		109,1
21	Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi		1 853,7	1 500,0	3 353,7		0,0	2 159,8	2 500,0	4 640,0		19,8	2 520,4	2 600,0	5 104,0		36,1
22	Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	25,9	108,9	50,0	277,7	-96,4	3,6	102,1	50,0	262,6	-106,9	0,0	112,2	50,0	266,0	-122,5	18,7

* 2027-2028-yillar uchun Davlat budjeti parametrlarini shakllantirishda aniqlik kiritiladi.

** Ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasining tijorat banklari depozitlariga joylashtiriladigan mablag'lari jamg'armaning qoldiq mablag'larida inobatga olingan.

Davlat budjetidan ajratiladigan subsidiyalar miqdorlari

mlrd so'm

		2025-yil kutilma	2026-yil prognoz
Jami		30 413,2	28 256,6
1	Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalariga Davlat budjetidan subsidiyalar	3 809,6	4 668,6
2	Magistratura bosqichida o'qiyotgan barcha xotin-qizlarning kontrakt to'lovlarini budjet hisobidan qoplab berish xarajatlari	125,0	125,0
3	DXSH va davlat oliy ta'lim tashkilotlarining buyurtmalari asosida talabalar turar joyini barpo etish bo'yicha loyihalar uchun subsidiyalar	300,0	100,0
4	Talabalarining oylik ijara to'lovi xarajatlarining bir qismini kompensatsiya qilish uchun mablag'lar	189,8	208,8
5	Talabalar turar joyini barpo etgan xususiy sheriklarga yashagan har bir talaba uchun kompensatsiya to'lovlari uchun subsidiya	40,0	50,0
6	"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarga amaliyot o'tagan vaqtida bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida har oylik subsidiyalar	2,0	0,5
7	Nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash uchun hamda muhtoj shaxslarni protez-ortopediya moslamalari va reabilitatsiya qilishning texnik vositalari bilan ta'minlash xarajatlari	160,0	260,0
8	Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishni kengaytirish va yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash tadbirlari uchun xarajatlar	250,0	290,0
9	"Zakovat" intellektual klubi NNT faoliyatini moliyalashtirish xarajatlari	50,0	50,0
10	Milliy seriallar ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun respublika miqyosida faoliyat yurituvchi telekanallarga ajratiladigan subsidiya	12,0	12,0
11	Kredit foiz xarajatlarini kompensatsiya qilish jamg'armasi xarajatlari	327,0	500,0
12	"UzVC" milliy venchur fondini rivojlantirish	50,0	50,0
13	Yoshlarning startap loyihalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida eng ilg'or texnologiyalarni olib kelib, 100 ta mahalliy startaplarni xalqaro miqyosda jozibador biznesga aylantirish va buning uchun		50,0
14	"Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi ishtirokchilarini moliyaviy va konsultativ qo'llab-quvvatlash		200,0
15	Savdoga ko'maklashish jamg'armasiga ajratiladigan mablag'lar	504,7	450,0
16	Ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish)ni va eksportni oshirish, tadbirkorlarga ko'maklashish, muammolarni hal qilish va tegishli sohani rivojlantirishga qaratilgan tadbirkorlik uyushmalarining faoliyat dasturlarini moliyalashtirish uchun har		100,0
17	Yengil sanoatni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	20,0	30,0
18	Jizzax va Namangan viloyati tumanlarida mahallalarda aholi daromadi va bandligini oshirish hamda yangi ish o'rinlari yaratilishini ta'minlash maqsadida "yetakchi" tadbirkorlarga davlat grantini berish uchun mablag'lar	5,0	10,0
19	Qishloq xo'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tadbirlarini moliyalashtirish uchun ajratilgan mablag'lar	4 523,5	2 011,7
20	Agrosanoatni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasiga transfertlar	150,0	150,0
21	Qishloq xo'jaligi korxonalari, shu jumladan, chorvachilik xo'jaliklari, fermer va dehqon xo'jaliklari sug'orish uchun foydalaniladigan nasos agregatlarini muqobil energiya manbalari bilan ta'minlash		60,0
22	Fermer xo'jaliklari tomonidan iste'mol qilinadigan elektr energiyasi qiymatini qoplash uchun subsidiyalar	170,0	300,0
23	Qishloq xo'jaligida suv tejoyvchi texnologiyalarni joriy etish uchun subsidiyalar	708,4	650,0
24	Paxta maydonlarini sug'orish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari hamda ko'chma generatorlar kabi uskunalarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplab berish uchun subsidiyalar	10,0	3,5
25	Suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish uchun ajratiladigan tijorat krediti foiz xarajatlarining 14 foizdan oshgan qismini qoplab berish		100,0
26	Xorijiy davlatlardan import qilingan nasldor qoramol, qo'y va echkilar, shuningdek mahalliy ishlab chiqaruvchilardan xarid qilingan bir kunlik jo'jalarni sotib olish xarajatlarini hamda Mo'g'ulistondan naslli qo'y va echkilar import qilishda havo transporti xarajatlarining bir qismini qoplab berish uchun subsidiyalar	125,0	150,0

		2025-yil kutilma	2026-yil prognoz
27	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilarga kartoshka, piyoz va poliz ekinlari hosilini sug'urtalash xarajatlarini bir qismini qoplash uchun subsidiya mablag'lari	35,0	100,0
28	Dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini shakllantirish	50,0	50,0
29	Kartoshka yetishtiruvchilar tomonidan yer maydonlarini sug'orishda foydalaniladigan nasos agregatlarini muqobil energiya manbalari bilan ta'minlash maqsadida quyosh panellarini o'rnatish xarajatlarining bir qismini, shuningdek, o'z balansidagi nasos agregatlari sarflaydigan elektr energiyasi xarajatlarining bir qismini qoplab berish xarajatlari		10,0
30	Kartoshkaning "in-vitro" o'simliklari va mikrotuganaklaridan 10 million dona mini-tuganaklarni yetishtirish xarajatlarini moliyalashtirish uchun		19,8
31	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishda biologik himoya usulini qo'llash xarajatlarining bir qismini qoplash		10,0
32	Agrokompleks loyihasini moliyalashtirish uchun "Uzagrostar xolding" kompaniyasiga ajratilgan mablag'lar	200,0	75,0
33	Xorazm viloyatining sholi yetishtiruvchi subyektlariga lazerli qurilmaga ega yer tekislagich agregatlar bilan yer tekislash xarajatlari va yangi urug' seyaklari hamda ko'chatlab ekish uskunalari uchun subsidiya	9,2	14,2
34	Boshqoli don ekin maydonlarini sug'orish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari hamda ko'chma generatorlar kabi uskunalarini sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash	5,0	10,0
35	Qoraqalpog'iston Respublikasida suv ta'minoti darajasi past bo'lgan hududlarda chorva mollarini sug'orish uchun shaxtali va tik quduqlar hamda suv tortish uchun nasos stansiyalarini yangidan qurish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar		2,0
36	Tut parvonasiga qarshi kurash tadbirlari uchun xarajatlar	21,0	21,0
37	Aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturlarini moliyalashtirish uchun subsidiyalar	2 505,5	2 701,5
38	Aholiga past narxda yetkazilgan tabiiy gaz bo'yicha ko'rilgan zararni qoplash uchun mablag'lar	7 000,0	5 900,0
39	Energiya samaradorligini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	100	700
40	Issiqlik ta'minoti korxonalarining aholiga tariflarni past narxlarda ushlab turish natijasida ko'rgan zararini qoplash xarajatlari	4 845,7	3 804,5
41	Geologiya-qidiruv ishlari xarajatlari	820,0	750,0
42	Temir yo'l orqali mahalliy yo'nalishlarda yo'lovchilarni tashish xizmatlarini ko'rsatishdan ko'rilgan zararlarni kompensatsiya qilish xarajatlari	721,0	700,0
43	Avtobusda yo'lovchilar tashishni brutto-shartnoma asosida moliyalashtirish uchun mablag'lar	1 640,0	1 885,3
44	"Toshkent metropoliteni"da yo'lovchilar tashishni subsidiyalash	494,0	544,4
45	Shahar atrofi, shaharlararo hamda viloyat ichki avtobus yo'nalishlariga subsidiyalar	38,4	35,0
46	Mahalliy yo'nalishlardagi aviaqatnovlar uchun chiptalar narxining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar	31,2	100,0
47	Farg'ona shahridan So'x tumaniga kichik aviatsiya transporti qatnovi bo'yicha ko'rilgan zararlarni qoplash uchun xarajatlar	1,7	1,7
48	Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida istiqomat qilayotgan pensiya va nafaqa oluvchilar, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun temir yo'l va aviayo'lovchilar chiptalarini imtiyozli tariflar bo'yicha sotishdan ko'rilgan zararni qoplash xarajatlari	52,5	42,2
49	Jismoniy shaxslarga tegishli obyektlarda o'rnatilgan quyosh panellarida ishlab chiqarilgan va o'z iste'molidan ortirib yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasini sotib olish uchun subsidiya	215,0	100,0
50	Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	96,0	100,0

Davlat dasturlari va tadbirlar uchun ajratiladigan mablag'lar

mlrd so'm

		2025-yil kutirma	2026-yil prognoz
	Davlat dasturlari va tadbirlar bo'yicha jami xarajatlar, shundan:	16 690,8	21 976,5
I	Ta'lim bo'yicha jami	5 823,1	8 385,8
	Maktabgacha va maktab ta'limi sohasi bo'yicha	2 927,1	4 693,0
1	Birinchi sinf o'quvchilariga o'quv qurollari sotib olish xarajatlari	143,5	160,3
2	Umumiy ta'lim maktablari uchun yangi kompyuter sinflarini xarid qilish xarajatlari	200,0	250,0
3	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimidagi muassasalarni sport jihozlari bilan ta'minlash uchun xarajatlar	62,1	74,7
4	Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri jamg'armasi mablag'larini shakllantirish	120,0	120,0
5	Ta'lim sohasidagi islohotlarga ko'maklashish jamg'armasi mablag'lari	250,0	250,0
6	1500 ta xorijiy o'qituvchilarni jalb qilish xarajatlari	210,0	700,0
7	Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida darsliklarni yangilash bilan bog'liq xarajatlar	1 300,0	1 985,0
8	"Toza qo'llar" dasturini amalga oshirish xarajatlari	311,4	220,7
9	Umumta'lim maktablarida to'garaklarni tashkil etish va ularga "Kambag'al oilalar reestri"ga kiritilgan oilalar farzandlarini jalb qilish uchun mablag'lar	100,0	100,0
10	Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni uy-joy bilan ta'minlash	140,1	140,1
11	"Yil o'qituvchisi" ko'rik tanlovi g'oliblarini taqdirlash uchun ajratilgan mablag'lar		137,2
12	2026-yilda O'zbekistonda 58-Xalqaro kimyo olimpiadasini (ICHO-2026) tashkil etish xarajatlari		30,0
13	"Kelajak" markazlarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari		70,0
14	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini didaktik materiallar bilan ta'minlash	40,0	185,0
15	Maktablarni interaktiv doskalar bilan ta'minlash xarajatlari		100,0
16	Bolalar uchun mo'ljallangan milliy kontentlar yaratish uchun xarajatlar		120,0
17	Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga planshetlar harid qilish xarajatlari	50,0	50,0
	Oliy va o'rta ta'lim sohasi bo'yicha	2 896,0	3 692,8
18	Ta'lim krediti uchun Davlat budjetidan tijorat banklariga maqsadli resurslar ajratish uchun mablag'lar	2 532,2	2 000,0
19	Professional ta'limni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish uchun mablag'lar		1 300,0
20	Xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish xarajatlari	50,0	50,0
21	Seysmologiya, inshootlarning seysmik mustahkamligini va seysmik xavfsizlikni ta'minlash sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi	35,0	50,0
22	Kasb-hunar ta'limi muassasalarini o'quv-adabiyot, jurnal diplom va guvohnomalar bilan ta'minlash uchun xarajatlar	25,9	25,9
23	Talabalarni rag'batlantirish jamg'armasi mablag'lari	90,5	90,5
24	Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazining xalqaro adabiyotlarni tarjima qilish xarajatlari	45,6	45,6
25	Nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash uchun davlat granti asosida kadrlarni tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar	116,8	130,8
II	Fan (ilmiy-tadqiqot muassasalar) sohasi bo'yicha	2 430,3	2 743,7
26	Doktoranturaga ajratilayotgan kvotalar sonini oshirish xarajatlari	1 333,4	1 393,7
27	Innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	558,1	650,0
28	"El-yurt umidi" jamg'armasi mablag'larini shakllantirish	538,8	700,0
III	Sog'liqni saqlash sohasi bo'yicha	2 387,1	4 586,6
29	Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasi	600,0	708,0
	<i>"spinal mushak atrofiyasi" tashxisi qo'yilgan bemor bolalarga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatish va dori vositalarini bepul yetkazib berish uchun xarajatlar</i>	<i>200,0</i>	<i>208,0</i>
	<i>iqtdorli va malakali tibbiyot mutaxassislarini qo'llab-quvvatlash hamda ularni tibbiyot muassasalariga jalb qilish uchun xarajatlar</i>	<i>50,0</i>	<i>50,0</i>

		2025-yil kutilma	2026-yil prognoz
	<i>sog'liqni saqlash tizimidagi davlat tibbiyot muassasalariga kompyuterlar, planshetlar, multimedia va tarmoq qurilmalari, dasturiy ta'minotlarni xarid qilish hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish uchun xarajatlar</i>	50,0	50,0
	<i>Tibbiyotni rivojlantirish davlat maqsadli jamg'armasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni amalga oshirish uchun ajratiladigan mablag'lar</i>	300,0	300,0
	<i>Tibbiyot xodimlarini qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan mablag'lar</i>		100,0
30	Onalar va chaqaloqlar salomatligini muhofaza qilish hamda aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash	125,5	150,0
31	Bolalarni vaktsinatsiya qilish bilan bog'liq xarajatlar	242,0	245,0
32	Nefrologiya va gemodializ yordami ko'rsatish uchun xarajatlar	280,6	265,9
33	Bolalarni hamda tug'ish yoshidagi, homilador va bola emizuvchi ayollarni profilaktik maxsus preparatlar bilan bepul ta'minlashga doir xarajatlar	60,5	42,8
34	Onkologiya yordamini takomillashtirish va onkologiya xizmatini yanada rivojlantirish bilan bog'liq xarajatlar	168,2	250,0
35	Onkologik, gematologik va immunologik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy yordam ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari uchun xarajatlar	135,0	350,0
36	Allergik va ikkilamchi immunitet tanqisligi kasalliklariga chalingan "Ijtimoiy himoya yagona reestri"da bo'lgan bemorlarga ingalyatsion glyukokortikosteroid dori vositalarini bepul tarqatish xarajatlari	18,9	25,4
37	Gematologiya va transfuziologiya xizmatlarini rivojlantirish hamda onkogematologik va davolash qiyin bo'lgan kasalliklarga chalingan shaxslarni yanada qo'llab-quvvatlash xarajatlari		170,0
38	Sog'liqni saqlash sohasidagi tibbiy tashkilotlar tomonidan xarid qilinadigan dori-darmon vositalari uchun QQSni qoplash xarajatlari		319,0
39	Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik tarqalishiga qarshi kurashish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlarni moliyalashtirish xarajatlari	31,2	50,0
40	2023-2026-yillarda ftiziatriya va pulmonologiya xizmatini yanada rivojlantirish xarajatlari	39,2	45,0
41	Aholining ruhiy salomatligini muhofaza qilish xizmatini rivojlantirish xarajatlari	26,1	35,0
42	Xar yili 2500 ta okklyuder xarid qilish xarajatlari	13,9	20,0
43	Nogironligi bo'lgan shaxslarga ko'rsatilayotgan tibbiy-ijtimoiy xizmatlar sifatini yanada yaxshilash bo'yicha chora-tadbirlarni moliyalashtirish uchun xarajatlar	15,1	15,0
44	Kam uchraydigan (orfan) va boshqa irsiy-genetik kasalliklarga chalingan bolalarga tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish xarajatlari		75,3
45	Neyrosensor karlik yoki zaif eshitadigan bolalarda koxlear implantantlardan foydalangan holda operatsiyalar o'tkazish	60,3	60,0
46	Endokrin kasalliklarning oldini olish, erta tashxislash va davolash chora-tadbirlarini moliyalashtirish uchun xarajatlar	74,9	129,9
47	Onalar va bolalar, reproduktiv yoshdagi ayollar salomatligini ta'minlash uchun zarur dori va tibbiyot vositalari ("K" vitamin, surfaktant va boshqalar) bilan qo'shimcha ta'minlash xarajatlari	19,2	40,0
48	Buyrak va jigar transplantatsiyasi jarrohlik amaliyoti o'tkazilgan bemorlarni dori vositalari bilan ta'minlash xarajatlari	128,6	130,0
49	2024-2025-yillarda LOR xizmatini rivojlantirish xarajatlari	101,2	4,6
50	Virusli hepatitning "S" va "V" turlarini erta tashxislash va virusga qarshi maxsus davolash ishlarini tashkil etish xarajatlari	18,5	70,0
51	Qon komponentlari zaxirasini yaratish maqsadida qon bilan ishlash xizmati muassasalarini zarur miqdordagi gemokonteynerlar bilan ta'minlash	84,1	303,0
52	Bolalar va tug'ruq muassasalarida yuqori texnologik laboratoriya uskunalaridan to'laqonli va samarali foydalanish maqsadida Davlat budjetidan reaktiv, reagentlar, sarflov anjomlar hamda servis xizmatlar uchun xarajatlar	9,7	9,9
53	O'latga qarshi stansiya va shifoxonalarni saqlash xarajatlari uchun (Toshkent shahar mahalliy budjeti)	6,1	6,1
54	Bolalarni qo'llab-quvvatlash jamoat fondi mablag'lar	55,5	30,0
55	Sirdaryo viloyati, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi tibbiyot muassasalarini tibbiy asbob-uskunalar, kompyuter texnikasi va boshqa texnik vositalar hamda lokal tarmoq bilan ta'minlash xarajatlari	30,0	50,0
56	Ayollar orasida onkologik kassaliklarni nazorat qilish tizimini takomillashtirish dasturi xarajatlari	33,5	170,0
57	Yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va davolash sifatini oshirish xarajatlari		200,0
58	Bolalar gematologiyasi va onkologiyasi bo'limlarida dunyoning yetakchi klinikalarida qo'llab kelinayotgan diagnostika va davolashning klinik standartlari, protokollari va tavsiyalarini joriy qilish xarajatlari	9,3	9,0

		2025-yil kutilma	2026-yil prognoz
59	Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida (Tajriba-sinov tariqasida tanlab olingan 15 ta tumanning mexnatga xak to'lash shartlari o'zgarganligi munosabati bilan talab etilgan mablag'lar indeksatsiyada rejalashtirildi)		607,7
IV	Madaniyat sohasi bo'yicha	745,0	726,7
60	"O'zbekkino" Milliy agentligi tomonidan badiiy, qisqa metrajli, hujjatli, multiplikatsion filmlarni ishlab chiqarish, ularni dublyaj qilish, subtitrlash, qayta tiklash (restavratsiya) va reklama ishlarini amalga oshirish xarajatlari	110,0	110,0
61	"Tirik tarix" dasturi doirasidagi filmlarni yaratish uchun xarajatlar	70,0	70,0
62	Madaniy meros obyektlarini restavratsiya qilish va tiklash, shuningdek arxeologik ishlar uchun xarajatlar	125,0	125,0
63	Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	50,0	50,0
64	Madaniyat vazirligining madaniy tadbirlar o'tkazish xarajatlari	51,3	51,3
65	Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish xarajatlari	190,0	200,0
66	Madaniyat vaziri jamg'armasi mablag'lari	50,0	50,0
67	O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi Qo'lyozma fondini qadimiy manbalar bilan boyitish	5,0	5,0
68	"Ipak yo'li durdonasi" Toshkent xalqaro kinofestivalini o'tkazish uchun xarajatlar	10,0	10,0
69	Samarqand viloyatida madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish xarajatlari	5,0	5,0
70	Davlat muzeylarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash uchun xarajatlar	6,7	6,7
71	Jahonda mashhur bo'lgan 1 000 ta kitobni tarjima qilish, nashrga tayyorlash va chop etish xarajatlari	12,0	13,7
72	"O'zbekiston 24" va "Mahalla" teleradiokanallarini respublika hududida efirga uzatishni to'liq HD formatga o'tkazish	20,0	20,0
73	Madaniyat maskanlarini rivojlantirish borasida Shovot tajribasini yaratish xarajatlari	40,0	10,0
V	Sport sohasi bo'yicha	744,1	780,1
74	Sport va ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarining kalendar rejasi	250,0	210,0
75	Olimpiada sport musobaqalariga tayyorgarlik ko'rish xarajatlari	190,0	210,0
76	Paralimpiya o'yinlariga tayyorgarlik ko'rish va qatnashish uchun xarajatlar	50,0	60,0
77	Yurish, yugurish, mini-futbol, velosport, badminton, stritbol va "Workout" sport turlarini ommaviylashtirish va rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish uchun xarajatlar	84,0	85,0
78	Olimpiya shaharchasi obyektlaridan foydalanish direksiyasini saqlash xarajatlari	30,0	50,0
79	Sport maktablari tibbiyot xonalarini zamonaviy asbob-uskunalar, dori-darmon va tiklanish vositalari bilan jihozlash, zamonaviy o'quv adabiyotlarini chop etish va xarid qilish va shug'ullanuvchilarini (terma jamoalarini) maxsus sport kiyimlari (ekipirovkalar) bilan ta'minlash xarajatlari	20,0	27,0
80	2026-yil O'zbekistonda bo'lib o'tadigan 46-Butunjahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko'rish uchun xarajatlar	50,0	50,0
81	"Besh tashabbus olimpiadasi" doirasidagi sport musobaqalarini tizimli tashkil etish va o'tkazish	30,0	45,0
82	O'zbekiston futbolini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari	25,0	25,0
83	Kurash xalqaro assotsiatsiyasi faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun xarajatlar	10,1	13,1
84	Futbol akademiyalarida oziq-ovqat me'yorlarini oshirish xarajatlari	5,0	5,0
VII	Aholi bandligini ta'minlash xarajatlari	527,6	429,6
85	Kambag'allikni qisqartirish davlat maqsadli jamg'armasiga transfertlar	200,0	150,0
86	Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasiga transfertlar	247,9	150,0
87	Migratsiya jamg'armasiga transfertlar	50,1	50,0
88	Jalb qilingan chet el valyutasidagi mablag'larning valyuta xatarlarini boshqarish maqsadida amalga oshiriladigan xedjirlash operatsiyalariga oid xarajatlar	29,6	59,6

		2025-yil kutilma	2026-yil prognoz
89	Kambag'al oilalarga noutbuk hamda tadbirkorlik faoliyatini boshlash uchun kichik ishlab chiqarish uskunolari, ko'chma do'konlar (food truck), motoroller, skuter va shu kabi boshqa asosiy vositalarni sotib olish uchun garovsiz va foizsiz qarz ajratish		20,0
VIII	Qishloq va suv xo'jaligi, ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish sohasi bo'yicha	1 525,3	1 618,2
90	Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash xarajatlari	421,8	421,8
91	Sug'oriladigan yerlarning shamol eroziyasiga va suv xo'jaligi obyektlarining qum bosishiga qarshi ihota daraxtzorlari barpo etish uchun xarajatlar	80,0	73,7
92	Nasos stansiyalari agregatlarini energiya tejamkor nasos agregatlari va elektr dvigatellarini almashtirish dasturini moliyalashtirish xarajatlari	71,0	65,0
93	"Termiz suv yo'llari texnik uchastkasi", "Xo'jayli suv yo'llari texnik uchastkasi" va "Cholish suv yo'llari texnika bo'limi" davlat muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlari uchun mablag'lar	46,4	20,0
94	Suv xo'jaligi sohasini raqamlashtirish tadbirlari xarajatlari	47,7	125,0
95	Suv fondi yerlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish (daryo, soylar va ko'llar kadastri) xarajatlari	100,0	70,0
96	Hayvonot va o'simlik dunyosi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va chiqindilarni utilizatsiya qilish joylarining davlat kadastrlarini yuritish uchun xarajatlar	8,0	8,0
97	Gidrotexnik inshootlarni sug'urtalash xarajatlari	4,4	4,4
